

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAHMATOV M.M.

**ESKI O‘ZBEK YOZUVI PRAKTIKUMI
VA SHARQ TILLARI**

Birinchi kitob

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi uchun

o‘quv-uslubiy qo‘llamna

Toshkent – 2015

ANNOTATSIYA

Mazkur uslubiy qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalashi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, amaldagi ta'lim standartlari, fan va o'quv dasturlari asosida tuzilgan. Qo'llanma talabalarni arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvi va tili bo'yicha bilimlar bilan qurollantiradi.

Uslubiy qo'llanmada fan yuzasidan talabalarning savodxonligini oshurish maqsadida klassik ijodkorlarimizning asarlaridan namunalar hamda eski o'zbek tiliga xos so'zlarning lug'ati berilgan.

Mas'ul muharrir:

S.Ashirboyev f.f.d., professor

Taqrizchilar:

B.Abdushukurov
O'zMU Til nazariyasi va amaliyoti
kafedrasini mudiri, f.f.d.

N.Sulaymonova
TDPU Umumiy tilshunoslik kafedrasini
dotsenti, f.f.n.

Mazkur uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPUning O'zbek tili va adabiyoti fakulteti O'quv-metodik kengashining 2014-yil 20-noyabrdagi 3-sonli majlis bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti, 2015-y.

1-mavzu

Eski o'zbek yozuvining shakllanishi

Tarixda arab yozuvi deb nom olgan, asrlar davomida eroniy hamda turkiy xalqlarning madaniy hayotida katta o'rin tutib kelgan arab yozuvi arablarga islom dini qabul qilinishidan odinroq nabotiy qabilalaridan o'tgan, nabotiy lar uni oromiylardan, oromiylar finikiyaliklardan o'zlashtirib olgan edilar.

Nabotiy lar ham, oromiylar ham arablar singari somiy tillariga mansub xalqlar bo'lgani sababli ularning 22 harfli konsonant (undoshni ifodalovchi) yozuvi arab tiliga mos tushavergan. Keyinroq esa, islom dinining yoyilishi oldidan arablar yozuvga arab tilining o'ziga xos tovushlarini bildiruvchi 6 ta harf qo'shadilar. O'rta Osiyo xalqlari arab yozuvini qabul qilgan vaqtda bu yozuvda 28 ta harf mavjud bo'lib, harflarning katta bir qismi (ث ح ذ ص ع harflari) arab tilining maxsus tovushlarini ifodalashga xizmat qilar, mahalliy xalqlar u tovushlarni aynan talaffuz qila olmas, mazkur harflar faqat arabcha so'zlar tarkibidagina ishlatilar edi.

Arablarning 28 harfli yozuvi bilan mahalliy xalqlar arabcha matnlarni o'qishga odatlangan bo'lsalar ham, o'z tillarida fikr ifodalashga qiynaladilar. Natijada alifboga ba'zi qo'shimchalar kiritishga (پ چ ژ گ harflarini qabul qilishga) majbur bo'lishadi. Shunday qilib, forsiy va turkiy xalqlar alifbosida 32 harfli yozuv shakllandi.

Yozuvning nomlanishi xususida

Bu yozuv O'rta Osiyo xalqlariga ming yildan beri xizmat qilib kelgan va unda boy yozma madaniy obidalar yaratilganligi ma'lum. 1917 yildan keyin bu yozuvning isloh qilingani va orada lotin, slavyan yozuvlari asosida tuzilgan yangi yozuvlarga o'tishimiz tufayli ko'p asrlik eski yozuvdan va u yozuvdagi qimmatli merosdan uzoqlashib qolganimiz ham ayni haqiqat. Madaniy merosga va bu merosni egallashning kaliti bo'lmish eski o'zbek yozuvini o'rganishga munosabat tubdan o'zgarib qolgan bugungi kunda bizga arablardan o'tib xalqimizning o'z milliy-tarixiy yozuviga aylanib ketgan mazkur yozuvni nomlash masalasida bahsli o'rinlar ham bo'lgan. Ba'zilar buni to'g'ridan-to'g'ri «arab yozuvi» deb atayverish kerak, deb hisoblashsa, ba'zilar, bu yozuvni «arab – o'zbek yozuvi» deb qo'llashni ma'qullashdi.

To'g'ri, yozuv arablardan o'zlashgan. Bu tarixiy voqeadan buyon ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi: yozuvning ma'naviy egasi o'zgardi. Endilikda yozuv faqat arablarniki emas, shu bilan birga, eroniy, turkiy va boshqa xalqlarniki ham bo'lib qoldi. Ikkinchidan, yozuvning o'zi o'zgardi, yozuvga arablarda bo'lmagan harflar qo'shildi, uning grafik imkoniyatlari kengaydi, takomillashdi.

Arablarda yozuv konsonant (undosh tovushinigina ifodalovchi) yozuv vazifasini bajargan. Turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbek xalqi tarixida esa bu yozuv (qadimgi turkiy yozuv an'analari asosida) fonografik (unli va undosh tovushlarni teng ifodalovchi) yozuvga aylantirilgan, uning imlo asoslari ham

o'zgargan. Shu va shuning singari asoslarga ko'ra, xalqimiz tarixida qo'llangan eski yozuvni «arab yozuvi» deya olmaymiz. Aslini olganda, arab tiliga moslashgan yozuvni – fors yozuvi, turkiy tillarga moslashgan yozuvni – «turkiy yozuv» deb atash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biroq, «eski turkiy yozuv» deganda O'rxun-Enasoy yozuvi, uyg'ur yozuvi kabi qadimgi turkiy yozuvlar ham umumlashib ketishi mumkin. «Qadimgi turkiy til», «qadimgi turkiy yozuv» tushunchalaridan farqlash maqsadida o'zbek tili tarixiga nisbatan «eski o'zbek tili» atamasini qo'llab, shunga mos holda Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz ish ko'rgan va o'zidan keyingi avlodlarga charxlab qoldirib ketgan yozuvni – arab alifbosi asosidagi eski turkiy yozuvni “eski o'zbek yozuvi” deb atash maqsadga muvofiq. Bu yozuvda katta ma'naviy boyliklar yaratgan boshqa xalqlar tarixiga nisbatan ham arab yozuvning taqdiri (nomlanishi) turlicha bo'lishi mumkin.

Eski o'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlari.

Hozirgi yozuvdan savod chiqargan kishi uchun eski o'zbek yozuvini o'rganish ancha mashaqqatli ish bo'lib ko'rinadi. Biroq bu yozuvning xususiyatlariga chuqur ilmiylik nuqtai nazaridan yondashgan va metodik jihatdan to'g'ri yo'ldan borgan kishi uchun yozuvni o'zlashtirishda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, aksincha, unda shu yozuvni o'rganishga nisbatan alohida qiziqish va ishtiyoq paydo bo'ladi.

Eski o'zbek yozuvini o'rganish bo'yicha yaratilgan qo'llanmalar talaygina. Ulardan foydalanib yozuvga qiziqishi bo'lgan xalqimiz eski yozuv sirlari bilan allaqachon tanishib ulgurdi. Ko'pchilik o'ylaganidek, yozuv murakkab emas, balki, ulardan foydalanib tilimizdagi lug'at boyligimizni, yirik jimjimador jumlar, badiiy ifodalar hosil qilish mumkin. Qalam uchi satr chizig'i bo'ylab yo'l olar ekan, shu yo'nalishda u so'z libosi (harf shakli)ni bichib, tikib borish bilan birga, ma'lum to'xtamga borganda, qalam uchini yuqoridan o'ngga va undan quyiga borib bu libosning tugmachalarini – ost-ust nuqtalarini ham o'rni o'rniga qo'yib (qadab) boradi. Masalan, «qalam» so'zini yozar ekanmiz, o'ngdan chapga qarab qalam uchi bir harakat bilan (daftardan uzilmasdan) u so'z shaklini yozib chiqadi: **قلم** kabi.

Yozuvning o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni sanaash mumkin:

1. Bu yozuvda qisqa unlilar ifodalanmaydi.

Yozuvning fonetik-funksional tabiati o'ziga xos. Bu haqda so'z borganda ba'zi olimlar bu yozuvni fonografik yozuv deb baholasalar, boshqalari yarim fonografik yozuv deb hisoblaydilar. Arab yozuvi arab tili qurilishiga moslashgan bo'lib, so'zdagi undosh tovushlarni, asosan, bo'g'inlarni ifodalashga xizmat qilgan. Eski o'zbek yozuvi va o'zbek tiliga o'tib o'zlashib qolgan arabcha so'zlarni o'z shakli bilan ifodalanadi, arab tiliga xos so'zlarini fonografik asosda ifodalashga xizmat qildirilgan. Masalan, «Maktab» so'zi 6 tovushli (fonemali) so'z, ammo yozuvda u **مکتب** (m+k+t+b) tarzida 4 undosh harf bilan ifodalangan. Mamlakat so'zida 8 ta fonema bor, yozuvda

esa u مملكت (m+m+l+k+t) tarzida 5 harf bilan yoziladi. Bular – arabcha so‘zlar. «Qoshiq», «qiziq», «chiziq», «bildi» kabi turkcha-o‘zbekcha so‘zlarda esa 5 tadan fonema bor, ular yozuvda ham 5 harf bilan ifoda etiladi: چیزیق

قاشیق قیزیق بیلدی. Lekin yozma manbalarda turkiy-o‘zbekcha so‘zlarda, xoh asos, xoh qo‘shimcha tarkibida bo‘lsin, unililarning yozuvda aks etishi bir xil emas. Misol sifatida –dan kelishik qo‘shimchasini oladigan bo‘lsak, qo‘shimchadagi a unlisining yozuvda aks ettirilishi qat‘iy emas. Ayrimlarida – dan to‘liq yozilsa, ayrim manbalarda a unlisi yozuvda tushirilgan.

Ko‘rinadiki, arabcha so‘zlarda, ya‘ni o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabiy so‘zlarda va turkiy-o‘zbekcha so‘zlarda unililarning ifodalanishiga o‘ziga xos tafovutlar mavjud. Qadimgi turkiy yozuvlar ta‘siri bilan eski o‘zbek yozuvi so‘zdagi har bir tovushni alohida-alohida ifodalashga xizmat qildirilgan. Shuning bilan birga turkiy so‘zlarning imlosida (unililarning ifodalanishida) qat‘iylik yo‘q.

Arabcha so‘zlarning boshida va oxirida kelganda alif (ا) har doim ham sof unli tovushni ifoda qilavermaydi, ‘aza’, ‘ibtida’ so‘zlaridagi hamza (ء) bilan (اُ) qandaydir bir to‘siq bilan aytiluvchi chala unli tovushni bildiradi.

2. Hozirgi yozuvimizdagi kabi eski o‘zbek yozuvida ham harflar o‘zaro bir-birlari bilan qo‘shib yoziladi. Qo‘shib yozish talabi bilan yoki qo‘shib yozish natijasida harflar so‘zning qaysi o‘rnida kelishiga qarab turlicha ko‘rinishlar kasb etadi: so‘zning boshida kelsa – bir xil, so‘z orasida kelsa – ikkinchi xil, so‘z oxirida kelsa – uchinchi xil. Hammasi bo‘lib to‘rt (alohida shakli bilan birga to‘rt ko‘rinishli). Ular yonma yon kelgan harflarga ulanishiga ko‘ra ham tasnif qilinadi:

- ikki ko‘rinishli harflar – munfasil harflar;
- 4 ko‘rinishli harflar – muttasil harflar.

3. Arab harflari katta (bosh), kichik kabi turlarga ajratilmaydi. Hammasi har doim bir xilda yoziladi.

4. Bu yozuvda tinish belilari mavjud emas. O‘zbek yozuvi tarixida tinish belgilari ilk bor XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan boshlab ishlatila boshlangan.

5. Eski yozma manbalar tilida bo‘g‘in ko‘chirilmagan. Bo‘g‘in ko‘chirish va uning qoidasi ham tinish belgilari kabi XX boshlaridan kirib kelgan. Yozma manbalarda bo‘g‘in ko‘chirilmasa-da, satrga sig‘may qolgan bo‘g‘in va qo‘shimchalar so‘zning ustiga sig‘dirishga harakat qilingan.

6. Asos va qo‘shimchalarning yozilishida ham birxillik yo‘q, ya‘ni asos va qo‘shimchalar birga (qo‘shib) yoki ajratib yozilgan. Asos va qo‘shimchalarning ajratib yoki qo‘shib yozish an‘anaga ko‘ra yozilgan.

7. Harflar satr chizig‘iga nisbatan ikki xil holatda yoziladi:

- satr chizig‘i ustida yoziladigan harflar;
- satr chizig‘iga nisbatan oraliq holatda yoziladigan harflar.

8. Alifbodagi barcha harflar ham o'zbek tili fonologik bazasidagi tovushlarni ifoda eta olmaydi. Bunday harflarning soni 8 ta bo'lib, fanimizda "yot harflar" deb nomlanadi. Yot harflar sof arabiy tovushlarni ifodalaydi.

Harfning nomi	Harfning hozirgi ko'rinishi	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Yolg'iz holda
Se	S	ث	ث	ث	ث
Ho-ye hutti	H	ح	ح	ح	ح
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ض	ض	ض	ض
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
'ayn	-	ع	ع	ع	ع

9. Arab alifbosidagi jami 28 harf mavjud bo'lib, ular keyinchalik boshqa xalqlar tomonidan takomillashtirilgan. Jumladan, forsiy va turkiy xalqlar unga 4 ta harf qo'shishgan. Shunga ko'ra alifbodagi harflar soni 32taga etgan.

Harfning nomi	Harfning hozirgi ko'rinishi	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Yolg'iz holda
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Chim	Ch	چ	چ	چ	چ
Же	ж	ژ	ژ	ژ	ژ
Gof	G	گ	گ	گ	گ

ESKI O'ZBEK YOZUVI ALIFBOSI

Harflar alifbo tartibida joylashtirilgan. Jadvalda eski o'zbek yozuvidagi harflarga xos barcha jihatlar aks ettirilgan.

Harfning nomi	Harfning hozirgi ko'rinishi	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Yolg'iz holda
Alif	O,a	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت

Se	S	ث	ث	ثا	ث
Jim	J	ج	ج	جا	ج
Chim	Ch	چ	چ	چا	چ
Ho-ye hutti	H	ح	ح	حا	ح
Xe	X	خ	خ	خا	خ
Dol	D	د	د	دا	د
Zol	Z	ذ	ذ	ذا	ذ
Re	R	ر	ر	را	ر
Ze	Z	ز	ز	زا	ز
Же	ж	ژ	ژ	ژا	ژ
Sin	S	س	س	سا	س
Shin	Sh	ش	ش	شا	ش
Sod	S	ص	ص	صا	ص
Zod	Z	ض	ض	ضا	ض
To	T	ط	ط	طا	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظا	ظ
'ayn	-	ع	ع	عا	ع
G'ayn	G'	غ	غ	غا	غ
Fe	F	ف	ف	فا	ف
Qof	Q	ق	قا	قا	ق
Kof	K	ک	ک	کا	ک
Gof	G	گ	گ	گا	گ
Lom	L	ل	ل	لا	ل
Mim	M	م	م	ما	م
Nun	N	ن	ن	نا	ن
Vov	V	و	و	وا	و
Ho-ye havvaz	H	ه	ه	ها	ه
Yo	Y,I,E	ی	ی	یا	ی

1-topshiriq. Alifboni yod oling.

2-topshiriq. Arab alifbosiga kiritilgan o'zgartirishlarni aniqlang va yod oling.

3-topshiriq. Harflarning satr chizig'iga nisbatan yozilishiga diqqat qiling va eslab qoling.

4-topshiriq. Arabiy talaffuzgagiga mos keluvchi (yot harflarni) harflarni yod oling.

5-topshiriq. Yozuvning sodda va murakkab jihatlari, yozuvdagi ko'rinishlarini ko'zdan kechiring.

Savol va topshiriqlar.

1. Arab alifbosi va eski o'zbek yozuvidagi umumiy va farqli xususiyatlarni ko'rsating.
2. Turkiy alifbo va eski o'zbek yozuvi deganda nima nazarda tutiladi?
3. Eski o'zbek yozuvining o'ziga xos imloviy xususiyatlari xususida gapirib bering.
4. Konstant yozuv fonologik yozuv deganda nimani tushunasiz?
5. Turkiy mantlarda konstant yozuv ham amal qilganmi?



2-mavzu

Munfasil harflar haqida tushuncha

Arab alifbosidagi harflarning yozuvdagi ko'rinishiga ko'ra ikki turga ajratiladi. Agar harflar yozuvda to'rt xil shaklga ega bo'lsa muttasil harflar, ikki xil ko'riniga ega bo'lsa munfasil harflar deyiladi. O'zbek-arab alifbosida ettita munfasil harf mavjud: **ا، د، ذ، ر، ز، ژ، و** **Bu harflar** o'zidan oldingi harflar bilan ulana oladi, lekin **o'zidan keyingi harflarga hech qachon ulana olmaydi**.

Unutmang: agar so'zda munfasil harflar qator kelsa, bir biriga ulanmasdan yoziladi.

Munfasil harflarni ulashda quyidagi sxemaga amal qiling:

O'zidan keyingi harflarga ulanmaydi	Faqat o'zidan oldingi muttasil harflarga ulanadi
<p>ا د ذ ر ز ژ و</p> 	<p>ا د ذ ر ز ژ و</p> 

ا (alif) harfi

Alif harfi alifbodagi birinchi harf sanaladi. Alif o'ng tomondan, ya'ni o'zidan oldin keladigan harf bilan qo'shiladi. O'zidan keyin kelgan harf bilan esa qo'shilmaydi.

Alif harfi satr chizig'iga nisbatan quyidagicha joylashadi. Bu harfning alohida va bog'langan ko'rinishlari satr chizig'ining ustida --- ا ---- yoziladi.

Bu harf o'zbek tilidagi *anor, amir, bor, ota, ona*, so'zlaridagi a, o tovushiga mos keladi. O'zbek tiliga arab va fors tillaridan o'zlashgan *agar, odam, umid, ism* so'zlaridagi a, o, u, i tovushini, o'zbekcha so'zlardagi a, o tovushlarini ifoda qiladi.

Alif harfi yozuvda ikki xil ko'rinishda aks etadi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Alif	A,O	ا	ا	آ, ا	ا

----- ا ----- ا -----
----- ا ----- آ -----

Alif harfining imlosi bilan bog'liq quyidagi holatlar kuzatiladi:

-**o'zbekcha** so'zlarda so'z boshida har doim a tovushini ifodalaydi. So'z boshida a unlisini ifodalaganda fatha belgisini qo'yish shart emas:

adir - ادر asig' - اسيغ ariq - اريق

-**o'zlashma** so'zlarda ham so'z boshida a, i, u tovushlarini ifodalaydi:

- a tovushini ifodalaganda alif fatha belgisi bilan (أ) yoziladi. Lekin kasara belgisi akasriyat hollarda yozuvda aks ettirilmaydi. Masalan: Akram - اكرم Asror - اسرار Ahror - احرار

- i tovushini ifodalaganda alif harfi kasra belgisi bilan (إ) yoziladi. Masalan: Ikrom - اكرام idrok - ادراك ism - اسم

- u tovushini ifodalaganda zamma belgisi bilan (أ) yoziladi. Masalan: Umid - اُميد

-**o'zbekcha** va **o'zlashma** so'zlarda so'z boshida o tovushini ifodalaganda maddali alif (ا) yoziladi. Masalan:

osh - آش ota - آتا ona - آنا

omad - آمد odam - آدم

-so'z o'rtasida va oxirida o unlisini ifodalashda madd belgisi qo'llanmaydi.

1-topshiriq. Harfning har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

Savol va topshiriqlar

1. Munfasil harf deganda qanday harflar nazarda tutiladi? Ularni sanab bering.
2. Munfasil harflar o'zidan keyingi harf bilan ulana oladimi?
3. Munfasil harflar necha ko'rinishli harflar sanaladi?
4. Alif harfi o'zbekchi so'zlarda qaysi tovushlarni ifodalaydi?
5. Alif harfi o'zlashma – arabiy so'zlarda qaysi tovushlarni ifodalaydi? Bunda qaysi yordamchi vositalar qo'llanadi?
6. Alif harfining o'zlashma so'zlarda turli unilarni ifodalashi harfning joylashish o'rini muhimmi?
7. So'z boshida, o'rtasida va oxirida o tovushini ifodalashda qanday o'zgachalik kuzatiladi?

3-mavzu

ﺩ (dol) harfi

Dol harfi satr chizig'iga nisbatan quyidagicha joylashadi. Bu harfning alohida va bog'langan ko'rinishlari satr chizig'ining ustida ----- ﺩ --- ﺩ ----- yoziladi.

Bu harf o'zbek tilidagi *do'st*, *dushman*, *odam*, *dard* so'zlaridagi d tovushiga mos keladi. ﺩ harfi munfasil harf bo'lgani uchun faqat o'ng tomondan keladigan harflarning qo'shilish yoki qo'shilmaligiga qarab yoziladi va uning ikki ko'rinishi mavjud.

do	Ado	dod
دا	ادا	داد

----- ﺩ ----- ﺩ -----

1- topshiriq. **Dol** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Berilgan so'zlarni va bo'g'inlarni ovoz chiqarib o'qing.

دا آد داد اد ادا دادا

ذ (zol) harfi

Dol harfi satr chizig'iga nisbatan quyidagicha joylashadi. Bu harfning alohida va so'z boshidagi ko'rinishlari satr chizig'ining ustida --- ذ --- - --- yoziladi.

Bu harf o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlardagina qo'llanadi. Masalan, zikr, Zokir, zarra, mazkur so'zlaridagi **z** tovushini ifodalashda yoziladi.

(zol) «z:» fonemasi - tanglay oldi sirg'aluvchi shovqinli jarangli undosh. Uni to'g'ri talaffuz qilish uchun nutq a'zolarini **se** artikulyatsiyasidagi kabi holatga keltiriladi. Talaffuzdagi yagona farq tovushning ishtirokidir.

Hozirgi zamon o'zbek tilida bu tovushga muqobil keluvchi tovush yo'q. Shuning uchun bu harf yot harflar sirasiga kiradi.

ذ harfi munfasil harf bo'lgani uchun faqat o'ng tomondan keladigan muttasil harflargagina qo'shiladi.

harf nomi	ifoda etgan tovush	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	alohida
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ

----- ذ ----- ذ -----

zavq	tazkira	Zokir
ذوق	تذکیرہ	ذاکر

Eslab qoling: Quyidagi so'zlar tarkibida tanglay oldi sirg'aluvchi shovqinli jarangli ze tovushi mavjud: zol, zehn, bazr, ozuqa, oziq, zot, zarrot, tazkira, zikr, mazkur, Zokir, muzokara, zarra, zehn, zavq, razil, zukko, zakovot

1-topshiriq. **Zol** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so'z va so'z bo'g'inlarini o'qing va ko'chiring.

داد ذاد ذا دا اد إذا

Savol va topshiriqlar.

1. Dol va zol harflari qaysi harflar sirasiga kiradi?
2. Dol va zol harflarining qaysi biri turkiy talaffuzga mos?
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan zol harfi ishtirok etgan so'zlarni ko'chirib yozing.

4-mavzu

و (vov) harfi va uning imlosi

Vov harfi satr chizig'iga nisbatan quyidagicha joylashadi. Bu harfning alohida va bog'langan ko'rinishlari satr chizig'ining usti va ostida ----- و -----

و ---- yoziladi

Bu harf o'zbek tilidagi *vodiy, vatan, yovvoyi, ovqat, suv, ov* so'zlaridagi v tovushiga mos keladi.

و harfi munfasil harf bo'lgani uchun faqat o'ng tomondan keladigan harflarning qo'shilish yoki qo'shilmaligiga qarab ikki xil shakli mavjud.

ov	dov	vov
آو	داو	واو

----- و ----- و -----

Vov harfi so'z boshida har doim v undosh tovushini ifodalaydi:

وای voy

وطن vatan

واحد vohid

وادی vodiy

Vov harfi so'z ichida, so'z oxirida unidan so'ng kelsa, v undosh tovushini ifodalaydi. Masalan:

آواز ovoz

آو ov

داوان dovon

یاو yov

Vov harfi so'z o'rtasida va so'z oxirida undosh harflardan so'ng kelganda o'rniga ko'ra u yoki o' tarzda o'qiladi. Masalan:

سیودی sevdi

قوی qo'y

سوو suv

یوق yo'q

Vov harfi so'z boshida alif bilan birga kelib u va o' unli tovushlarini ifodalaydi: u, o' = او Masalan:

وردی urdi

اوت o't

اون un

اوتدی o'tdi

Vov harfi so'z boshida alif bilan birga kelib u va o' unli tovushlarini ifoda qilishiga va ularning so'z tarkibidagi harflarga ulanishiga e'tibor bering.

Vov harfi gapning uyushiq bo'laklari orasida qo'llanib bog'lovchi vazifasini ham bajaradi. Masalan:

دفتر و قلم biz va siz

آتا و آنا ona va bola

مین و سین men va sen

گل و بلبل gul va lola

1-topshiriq. **Vov** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Ushbu so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va ko‘chirib yozing.

آو او دود داد واو داو دو ادا دوا

ر (re) harfi

Re harfi satr chizig‘iga nisbatan quyidagicha joylashadi. Bu harfning alohida va bog‘langan ko‘rinishlari satr chizig‘ining usti va ostida ----- ر

----- ر - ----- yoziladi.

Bu harf o‘zbek tilidagi *rost, Rustam, raqam, mard, bor, tor* so‘zlaridagi *r* tovushiga mos keladi. ر harfi munfasil harf bo‘lgani uchun faqat bir tomondan, ya‘ni o‘ng tomondan keladigan muttasil harflar bilan harflar bilan qo‘shiladi, munfasil harflar bilan qo‘shilmaydi.

doro	o‘z	ur
دارا	اوز	اور

----- ر ----- ر -----

1-topshiriq. Harfning har bir ko‘rinishlarini to‘rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Ushbu so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va ko‘chiring.

رو دار داد ادا رود دارا آو دارو اور دور آرا
ارا رد در ردا ردا روا

4-topshiriq. Ushbu harfiy birikma va so‘zlarni arab grafikasiga o‘giring.
Or, ro, oz, zo, do, odo, zod, doz, rod, ozod, oro, doro, orod .

ز (ze) harfi

Ze harfi satr chizig‘iga nisbatan quyidagicha joylashadi. Bu harfining alohida va bog‘langan ko‘rinishlari satr chizig‘iga nisbatan quyidagicha joylashadi ----- ز ----- ز -----

Bu harf o‘zbek tilidagi *zor, zo‘r, tuz* so‘zlaridagi **z** tovushiga mos keladi. ز harfi munfasil harf bo‘lgani uchun faqat bir tomondan, ya‘ni o‘ng tomondan keladigan harflarning qo‘shilish yoki qo‘shilmasligiga qarab ular bilan bog‘lana oladi.

oz	Roz	Zor
آز	راز	زار

----- ز ----- ز -----

1-topshiriq. Harfning har bir ko'rinishlarini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. So'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chiring.

زار آزاد راز دارا آزار آواز اورار اوردو اور
اوز اوزار زار دادا او آرزو زور آزار آز دراز
اد دادا دارو رود دور در زر زردار ارز

ژ (je) harfi

Bu harf o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlarda qo'llanadi. Je harfi sirg'aluvchi tovush sanaladi. O'zbek tilidagi ajdar, mujda so'zlaridagi j tovushiga mos keladi.

----- ژ ----- ژ -----
je harfi satr chizig'ining ustida va ostida yoziladi, so'z o'rtasidagi va so'z oxiridagi ko'rinishlari ham satr chizig'iga nisbatan yuqoridagidek joylashadi.

harfi munfasil harf bo'lgani uchun faqat bir tomon ya'ni o'ng tomondan keladigan harflarning qo'shilish yoki qo'shilmassligiga qarab ular bilan bog'lanadi. Shunga ko'ra ko'ra uning ikki ko'rinishi mavjud.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
<u>Je</u>	j	ژ	ژ	ژ	ژ

----- ژ ----- ژ -----

ajdar	mujgon	jola
اژدر	موژگان	ژاله

Eslab qoling: quyidagi so'zlar j harfi bilan yoziladi.

Janda, jarf, jola, mujgon, ajdarho, mujda, jandarm.

1-topshiriq. **Je** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va daftaringizga koʻchiring.

ادر اژدر آرزو زر زور آز أد او اور اوز
اوزار آزاد آرز

Savol va topshiriqlar

1. Munfasil harflarni alifbo tartibida joylashtiring va satr chizigʻiga nisbatan yozilishini eslab qoling.
2. Munfasil shakldosh harflarni sanang va ularning farqini tushuntiring.
3. Munfasil harflar tarkibida necha tovush yot sanaladi?
4. Soʻz boshida o tovushini ifodalash uchun qanday amallar amalga oshiriladi?
5. Soʻz boshida u, oʻ unlilarini ifodalash uchun qanday amallar amalga oshiriladi?
6. Vov harfning soʻz oʻrtasida va soʻz oxirida u, oʻ unlilarini ifodalashi haqida gapirib bering.

6-MAVZU HARAKATLAR

Dunyodagi aksariyat tillarda unli va undosh tovushlar va shunga mos holda qoʻllanadigan harfiy belgilar mavjud. Garchi arab tilida ham unli va undosh tovushlar boʻlsa-da, unli tovushlarning hammasi ham yozuvda ifodalanavermaydi. Arab tilida unlilarikki toifaga boʻlinadi: qisqa unlilar va choʻziq unlilar. Choʻziq unlilar yozuvda doim ifodalanadi. Qisqa unlilar esa talaffuz etiladi-yu, yozuvda tushib qoladi. Shunga koʻra arab alifbosida qisqa unlilarni ifodalovchi maxsus harflar yoʻq. Lekin arab grafikasida baʼzi bir qoʻshimcha belgilar mavjud boʻlib, bu qoʻshimcha beligilar soʻzda qisqa unlining borligiga ishora qilib turadi va, albatta, ular oʻqish jarayonida eʼtiborga olinadi. Bu belgilar harakatlar deb nomlanadi.

Baʼzi kitoblarda harakatlar diakritik belgi sifatida ham qaraladi. Harakatlarni yozuvda ifoda etilmasligi oʻqishni qiyinlashtiradi, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilishga olib keladi. Harakatlar koʻproq boshqa tillarda soʻzlashuvchi xalqlarning arabcha matnlarni toʻgʻri yozish va oʻqish imkonini beradi. Matnni boshdan oxirigacha harakatlar bilan berish muqaddas kitoblarda, xususan, «Qurʻon»da koʻzga tashlanadi. Unda arab satr osti, usti belgilari va harakatlar oʻqish va talafuzdagi chalkashliklarni bartaraf qilish uchun toʻliq yozilgan.

Shuningdek, yozuvdagi bu tartib XI-XIV asrlarda Oʻrta Osiyoda koʻchirilgan ayrim adabiy, badiiy, ilmiy manbalarda, aniqrogʻi, tilga oid kitoblarda ham uchraydi. Bevosita tilga oid tadqiqot boʻlgan M.Qoshgʻariyning «Devoni lugʻatit turk» asaridagi soʻzlar ham harakatlar orqali berilgan.

Fatha yoki zabar. Unli tovushlarni ifodalovchi harakatlarning birinchisi — belgisi boʻlib, qisqa *a* unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida *fatha*, fors tilida esa *zabar* deb nomlanadi.

Soʻz boshida qisqa *a* unlisi *alif* harfining ustiga zabar ا belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

أَدْحَم	Adham	أَدَب	Adab
---------	-------	-------	------

Soʻz boshida qisqa *a* unlisi *ayn* harfining ustiga zabar ع belgisini qoʻyish orqali ham ifodalanadi. Masalan:

عَظِيم	Azim	عَدَالَت	Adolat
--------	------	----------	--------

Soʻz oʻrtasida qisqa *a* unlisini ifodalash uchun oʻzidan oldin kelgan undosh harfning ustiga zabar belgisi qoʻyiladi. Masalan:

دَفْتَر	daftar	قَلَم	Qalam
---------	--------	-------	-------

Soʻz oxirida hoʻyi havvaz harfi undosh harfidan keyin kelsa, *a* unlisini ifodalaydi (bu haqda hoʻyi havvaz harfini oʻtganda toʻliq maʼlumot olasiz).

كَلِمَه	kalima	خَانَه	Xona
---------	--------	--------	------

Kasra yoki zir. Unli tovushlarning ifodalovchi harakatlarning ikkinchisi — belgisi boʻlib, qisqa *i* unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida *kasra*, fors tilida esa *zir* deb nomlanadi.

Soʻz boshida qisqa *i* unlisi *alif* harfining ostiga zir ا belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

إِكْرَام	Ikrom	إِقْرَار	Iqror
----------	-------	----------	-------

Soʻz boshida qisqa *i* unlisi *ayn* harfining ostiga zir ع belgisini qoʻyish orqali ham qisqa *i* unlisi ham ifodalanadi. Masalan:

عِشْق	ishq	عِلْم	Ilm
-------	------	-------	-----

Soʻz oʻrtasida qisqa *i* unlisi oʻzidan oldin kelgan undosh harfning ostiga *zir* belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

مِلْك	milk	حِرْص	Hirs
-------	------	-------	------

Soʻz oxirida qisqa *i* unlisi uchramaydi.

Zamma yoki pish. Unli tovushlarning ifodalovchi harakatlarning uchinchisi — belgisi boʻlib, qisqa *u* unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida *zamma* fors tilida esa *pish* deb nomlanadi.

Soʻz boshida qisqa *u* unlisi *alif* harfining ustiga *pish* ا belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

أُمِيد	umid	أُمَّت	Ummat
--------	------	--------	-------

Shuningdek, soʻz boshida **ayn** harfining ustiga **pish** ^ع belgisini qoʻyish orqali ham qisqa *u* unlisi ham ifodalanadi. Masalan:

عُذْر uzr عُمْر Umr

Soʻz oʻrtasida qisqa *u* unlisi oʻzidan oldin kelgan undosh harfning ustiga **pish** belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

مُلْك Mulk هُنْر Hunar

Soʻz oxirida qisqa *u* unlisi uchramaydi.

1-topshiriq. Qisqa unilarni ifodalovchi harakatlarni yod oling. Ularning har bir turini yozilishini mashq qiling.

2-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga harakatlarni qoʻyib koʻchiring.

Zevar, dard, vird, zar, zard, dor, doro, doru, dov, dovdir, dur, davr, doʻz, duvur.

ARAB SATR USTI BELGILARI

Yuqorida soʻz yuritilgan fatha (zabar), kasra (zir) va zamma (pish) ham arab satr ostki va ustki belgilari tarkibiga kiradi, lekin ular faqat yozuvda aks etmagan qisqa unli tovushlarni ifodalashda qoʻllaniladi. Oʻqish, yozish va toʻgʻri talaffuz qilishga yordam beruvchi YAna bir necha belgilar ham borki, ular ham yozuvda juda kam hollardagina qayd etiladi. Bunday belgilarga quyidagilar kiradi:

1. Tashdid (تَشْدِيد) [ّ]. Tashdid ikkilantirish degan maʼnoni anglatib, soʻz tarkibidagi undoshlarning ustiga qoʻyiladi. Tashdid belgisi tushgan undosh kuchaytirilgan va ikkilantirilgan holda talaffuz etilishi lozim. Bu belgi koʻpincha tilimizga arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarga qoʻyiladi. Yozuvda yonma-yan kelgan bir undoshni ikki bor yozuvda takrorlash arab imlosi qoidasi boʻyicha mumkin emas. Arab yozuvida qoʻsh undoshli soʻzlar kelganda oʻsha undoshning biri yozilib, uning ustiga tashdid belgisi qoʻyiladi va shu orqali soʻzda ikkita bir xil tovush borligi anglashiladi. Masalan:

نَقَّاش naqqosh مَحَلَّة mahalla
عَطَّار attor مَكَّار makkor

Baʼzi hollarda tashdid belgisining ustiga fatha yoki zamma belgilari qoʻyilishi ham mumkin (— — —). Bu esa har ikkalasini ham oʻqish zarurligini bildiradi. Buning uchun avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab soʻngra tashdid ustidagi harakatni oʻqish lozim. Masalan:

أَوَّل avval تَبَسُّم tabassum
مُحَمَّد Muhammad مُحَبَّبَت muhabbat

Tarkibida qo'sh undoshi mavjud bo'lgan turkiy so'zlar, jumladan, o'zbekcha so'zlar arab grafikasida yozilganda, tovushlarning miqdoriga ko'ra yozamiz. Masalan:

ساککیز sakkiz قاتتیق qattiq

So'zlarga ba'zan qo'shimchalar qo'shilganda o'zakdagi undosh bilan birga qo'shaloq undoshni emas yondosh kelgan undoshlar sanaladi. Bunday hollarda ular yozuvda to'liq yoziladi. Masalan:

تاقتا taqqa بیلاککا bilakka

Yozma manbalarda aksariyat hollarda esa bunga amal qilinmagan, ya'ni turkiy-o'zbekcha so'zlardagi qo'shaloq undoshlardan biri yozilgan.

Masalan: ساککیز، توقوز، قاتتیق kabi.

2. Tanvin (تنوین) ـ . Bu ham arab satr usti belgilaridan biri bo'lib, faqatgina arabiy so'zlardagina ishlatiladi va yozuvdagi shakli quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi. ا tanvin fatha, إ tanvin kasra va ى tanvin zamma. Tanvin ko'pincha so'z oxirida kelib, taglik vazifasida olingan alif harfining ustiga ikkita zabar ko'rinishidagi chiziqcha qo'yish orqali hosil qilinadi. Tanvin belgisi talaffuzda an tovush birikmasini beradi. Masalan,

مثلاً masalan تخمیناً taxminan

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar tanvinli so'zlar ravish so'z turkumiga kiradi. Tanvin belgisi yozuvda tushib qolishi mumkin, lekin talaffuzda saqlanadi. Shu sababli so'z oxrida tanvin belgisiga taglik vazifasini bajarib kelayotgan alif o tarzida o'qilmaydi.

3. Sukun (سکن) ـ . Sukun arabcha so'z bo'lib, to'xtab turish, tinchlik, orom degan ma'nolarni bildiradi. Bu belgi ba'zan sokin deb ham yuritiladi. Uning asosiy vazifasi bo'g'inning yopiq ekanligini bildirishdir. Sokin belgisi undosh harf ustiga qo'yiladi va shu undoshdan so'ng unli yo'q ekanligini bildiradi. Masalan:

فَرَزَنْدُ farzand مَمْلَكَتُ mamlakat
مَجْلِسُ majlis مَصْلَحَتُ maslahat

4. Hamza belgisi (همزة) ءـ . Uning hozirgi kompyuter grafikasida ؤ ء shakllari mavjud. Bu belgi o'zining vazifasiga asosan quyidagilardan iborat:

a) ikki unli qator kelganda ularni ajratish uchun yoziladi. Masalan:

شرائط sharoit غرائب g'aroyib
عجائب ajoyib عائلة oila

b) bo'g'inni ajratish uchun qo'llanadi. Masalan:

مسؤولیت mas'uliyat

تأسيس ta'sis

مثله mas'ala

تأكيد ta'kid

v) forsiy izofiy birikmalarda agar aniqlanmish qisqa *i* unlisi bilan tugallangan bo'lsa, hamza belgisi shu harfning ustiga qo'yiladi.

شجره ترک Shajarai turk

نقطه نظر nuqtai nazar

5. Vasla (وصله) **أ**. Bu belgi arabiy izofalarda ishlatilib, al aniqlik artikli ustiga qo'yiladi. Vasla so'zi arabcha so'z bo'lib, qo'shish degan ma'noni bildiradi. Demak, vasla belgisi qo'yilgan al aniqlik artikli to'la holda o'qiladi. Agar al aniqlik artikli ustida vasla belgisi qo'yilmasa, biz faqatgina artiklning a harfini o'qib, keyingi kelayotgan so'zning birinchi tovushini ikkilantirib o'qiymiz. Lekin vasla belgisi aksariyat hollarda yozuvda tushirib qoldirilgan (Bu haqda shamsiy va qamariy harflar va izofa bo'limlariga qarang). Masalan:

دار الفنون dorul funun

كمال الدين Kamoliddin

Yuqorida tilga olingan belgilar yozuvda ifoda etilmasligi mumkin, lekin bu belgilarning xususiyatlarini to'liq o'zlashtirmog'imiz lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Harakatlar deganda nimani tushunasiz, ularning vazifasi nimadan iborat?
2. Harakatlar, odatda, qaysi tovushlarni ifodalaydi?
3. Harakatlarning qaysi biri alif harfi bilan bog'liq?
4. Harakatlar va sarti usti, satr osti belgilarining farqi nimada?
5. Satr usti va satr osti belgilarini sanab bering va ularning vazifasini tushuntiring.
6. Vasla belgisi va arabiy izofa mavzularining bog'liqligi haqidagi mulohaza yuriting.
7. Hamza belgisi va uning bugungi o'zbek alifbosidagi grafik belgisi bilan bog'liqlik jihatlari haqida gapiring.

7-mavzu

O'tilganlarni takrorlash

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni o'qing va ko'chiring.

زور زار راز رد ردا روا روز زردار زود زور
واو دراز در درز دراو درد دزد داوور دارو داود

2-topshiriq. Birinchi mashqdagi soʻzlardan foydalanib bir necha jumla tuzing.

3-topshiriq. Choʻziq o unlisiga misollar toping va yozing.

Eslang: Soʻz boshida til orqa choʻziq o unlisini ifodalash uchun **ا** – alifning ustiga madd belgisi qoʻyiladi, yaʼni ustiga madd belgisini olgan **آ** alif o tovushini bildiradi. Maddali alif **آ** faqat soʻz boshidagina keladi. Masalan: **آو** ... **دارا**

4-topshiriq. Choʻziq u va oʻ unlilariga misollar yozing.

Eslang: soʻz boshida u va oʻ unlilarini ifodalashda vov harfidan oldin bir alif orttiriladi. Masalan: **او** = u, oʻ

اور اوز اورار اوردو ...

8-mavzu

Muttasil harflar

Muttasil harflar toʻrt koʻrinishdagi harflar boʻlib, arab-oʻzbek alifbosida ularning soni 25 tadir. Bunday harflarning alohida – alifboda berilish shakli, soʻz boshida, soʻz oʻrtasida va soʻz oxiridagi shakllari mavjud. Muttasil harflarga xos umumiy qonuniyat bu - oʻzidan keyingi har qanday harfga ulana olishidadir.

ب، پ، ت، ث (be, pe, te, se) harflari

ب (be) harfi

Be harfining barcha koʻrinishlari satr chizigʻining ustida yoziladi.

ب harfi oʻzbek tilidagi *bor, bodom, bobo, oftob* soʻzlaridagi *b* tovushiga muvofiq keladi.

Bu harf muttasil harf boʻlgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflarning qoʻshilish yoki qoʻshilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bogʻlanadi.

borur	bozor	bobo
بارور	بازار	بابا

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Be	B	ب	بـ	ب	ب

-----ب-----ب-----ب-----ب-----

1-topshiriq. **Be** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlarni o‘qing va ko‘chiring.

بابا آب باب باو بازار آباد بو برار زر آزاد دارو درد
 دار باز بار زرد بد زور روز برد زد آز بدر رباب
 آبدار دارباز او اور اوز اودور باور زب ارباب
 زرداب آداب باد وبا بدار بزور باردور بارادور برابر آبرو
 بر باد ابرار روا اورا باور ارباب ببر بد

3-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

urub, urur, o‘rur, o‘rub, burub, burar, buzadur, bod, iz, uz, uzar, o‘r, o‘rub, oz, ozar, bura, bo‘r, bo‘z, bo‘zar, buz, buzar.

4-topshiriq. So‘z qo‘shilmalarini o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

او و بو بابا و دادا آب و باب آو و بو واو و داد
 ادب و آداب بوز و بوز دود و در

پ (pe) harfi

Bu harf o‘zbek tilidagi *piyoz, paxta, opa, turp* so‘zlaridagi *p* tovushiga mos keladi.

پ harfi muttasil harf bo‘lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo‘shilish yoki qo‘shilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bog‘lana oladi.

par	opa	padar
پَر	آپَا	پَدَر

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Pe	P	پ	پ	پ	پ

-----پ-----پ-----پ-----پ-----

1-topshiriq. **Pe** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quydagi soʻzlarni eski oʻzbek yozuviga oʻgiring.

Po, par, dupur, dupur-dupur, port, pur, rodapo, opa, paz, parvar, pardod.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va koʻchiring.

بو پَدَر آپادور اوپ پا پرواز ادر باردور زر زور
زاوور زبر واو پر ازدر پر پروا پت پاپ پاپاپ

4-topshiriq. Oʻtilgan harflar ishtirokida soʻz birikmasi va jumlar tuzing.

ت (te) harfi

Te harfi oʻzbek tilidagi *tok*, *tuproq*, *ota*, *sut* soʻzlaridagi *t* tovushiga mos keladi.

ت harfi muttasil harf boʻlgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qoʻshilish yoki qoʻshilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bogʻlana oladi.

oʻt	oʻtin	tan
اوت	اوتین	تن

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Te	Т	ت	ت	ت	ت

----- ت ----- ت ----- ت ----- ت -----

Eslatma: ta- bilan boshlanuvchi arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda a-unlisi yozuvda aks ettirilmaydi. Oʻzlashma soʻzlarda boshqa qisqa unililar ham boʻlishni ham unutmang. Masalan: ترتیبات ترتیب تشبُّس تورات تدبیر

1-topshiriq. **Te** harfining har bir koʻrinishini toʻrt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quydagi soʻzlarni eski oʻzbek yozuviga oʻgiring.

oʻt, tob, but, tub, ota, tot, otur, bot, turub, botub, tuzur, totur, badtar, tor.

3-topshiriq. Ushbu so'zlarni o'qing va ko'chiring.

توت تور توز توتزار تورت آت بار بات تار اوتزار
 بَرَات تَارِت تورت آرت اِبْتَدَا بوت بُرُوت اَبْد اَبْدَا
 پَرْتُو ذاد زات تَب تَرُوز تاز توز اوپ روات تَرُوز بات

4-topshiriq. So'z qo'shilmalarini o'qing va ko'chiring.

تات و بات باب و باد تاب و اوت تار و رود باتر و
 ابرار اوت و توت تور و بور بوز و توز اور و اوز

5-topshiriq. So'zlarni o'qing va ma'nosini izohlang.

توت و توت توز و توز تور و تور بوز و بوز اوت و
 اوت بار و بار اور و اور اوز و اوز تار و تار

6-topshiriq. O'tilgan harflar ishtirokida so'z birikmasi va jumlar tuzing.

ث (se) harfi

ث (se) «s:» fonemasi - tanglay oldi sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli. U ustki va ostki tishlar o'rtasida talaffuz qilinadi. Bunday tovush mavjud emas.

Uning artikulyatsiyasida til uchini tishlar orasiga shunday joylashtirish kerakki, u yuqoridagi tishlarga mahkam jipslashib tursin. Shunda til uchi bilan pastki tishlar orasida kichik tirqish qoladi. Nutq a'zolarining shunday holatida

ث se fonemasi kuch bilan talaffuz qilinadi.

Bu harf arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan *meros, voris, misol, masala* so'zlaridagi s tovushini ifoda qiladi.

ث harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Se	s	ث	ث	ث	ث

-----ث-----ث-----ث-----ث-----

sano	asar	sarvat
ثنا	اثر	ثروت

Eslab qoling: Sano, suls, misl, nasr, nisor, sobit, osor, asno, savob, sabot, samara, masal, misol, masala, musbat, usmon, sarvatmand, sur, samar, samara, samir, Samarqand, salj so'zlarida tarkibida tanglay oldi sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli se tovushi mavjud bo'lib, faqat mazkur ث harf bilan yoziladi.

1-topshiriq. **Se** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. So'zlarni o'qing va yozilishiga e'tibor qarating.

ثابت ثبات ثبوت ثور ثواب ثبت ثوابت إثبات آثار
اثارت اثر

3-topshiriq. Eski o'zbek tiliga xos so'zlarning ma'nosini eslab qoling:

ثور	savr	ho'kiz
ثلج	salj	qor
ثمر	samar	foyda
بقا	baqo	doimiylik
پرتو	partav	nur,shu'la
ثوابت	sabovit	sobit ko'pligi
تب	tab	isitma

Savol va topshiriqlar

1. Muttasil harflar deganda nimani tushunasiz? Ularning munfasil harflardan farqli xususiyati nimadan iborat?
2. Eski o'zbek yozuvi alifbosidan munfasil harflarning (alohida ko'rinishiga ko'ra) shakliy o'xshashligiga ko'ra saralang. Ularning sonini aniqlang.
3. Shaklan noo'xshash munfasil harflarning (alohida ko'rinishiga ko'ra) qaysilari so'z boshida va so'z o'rtasida o'xshash bo'ladi?
4. Muttasil so'zining ma'nosini "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobidan topib, ma'nosini izohlang.

9-mavzu

ی (yoy) harfi

Yo harfi o'zidan oldin va keyin kelgan harflarga qo'shib yoziladi, shuning uchun yozuvda to'rt xil ko'rinishda bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili kirill grafikasida mavjud bo'lgan "yo"lashgan (e, yo, ya, yu) unllilar eski o'zbek yozuvid tovushlar miqdoriga ko'ra xuddi lotin yozuvidagi kabi to'liq tovushlar miqdoriga ko'ra (ye, yo, ya, yu tarzida) yoziladi.

يور yur	ياپ yop
يوت yut	يير er
ياز yoz	ييت et
يار yor	ييتى etti

Turkiy so'zlarda so'z o'rtasi va so'z oxirida **yo** harfi undosh tovushlardan so'ng *i* unlisini ifodalaydi va yozuvda to'liq ifodalanadi.

باردى bordi	تيريب terib
بيريб berib	ايتدى aytdi

1-topshiriq. Yo harfining har bir ko'rinishini mashq daftaringzga to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Mashq daftaringizga **e, yo, ya, yu** unllari ishtirok etgan so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

3-topshiriq. Quyidagi so'zlarini eski o'zbek yozuviga o'giring.
Oy, ov, voy, oyi, yoy, yovvoyi, yayov, uy, o'y, yuv, yov, roviy, devor.

4-topshiriq. So'zlarni o'qing va ko'chiring.

واى و تاى باى و ياي آى و يار ياي و يايو ياو و
ياد يات و يير ايز و اير اوى و توى يارور و بارور
ايتور و بيورور زبر و زور ايويىدى و يوى يوردى و بار
ايردى توردى و اوتيردى ايرور و ايزور اورور و اوزور
دوتار و تار آى و ارثى آى و بيى

5-topshiriq. Quyida berilgan jummalarni o'qing va ko'chiring.

آى پرى ايدى آى ياريتور و بد باتور باتير آرزو ايتار او باور
ايلادى ييرا يار يار ايتور آت بيردا ياتدى ياز اوتدى اوت
اورور ثابت توت تيرور ايت آواز بيورور وادى ديار

6-topshiriq. So'zlarni o'qing, o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering.

تير و تير ايپ و ايپ ايت و ايت و ايت تيز و تيز
 بير و بير اير و اير ايز و ايز توپ و توپ ياي و ياي ياز
 و ياز يار و يار ايز و ايز بور و بور بير و بير يات و
 يات يوز و يوز

ن (nun) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *non, nodir, ona, anor, xon* so'zlaridagi *n* tovushiga mos tovushni ifodalaydi.

ن harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

non	ana	ona
نان	انا	آنا

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Nun	N	ن	ذ	ن	ن

-----ن-----ذ-----ن-----

1-topshiriq. **Nun** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Nodir, nur, nun, bo'ron, davron, don, nordon, anor, nom, zan, dono, nodon, yon, yondi, tun, tunadi, bonu, nur, nuradi, nonvoy, nay, boron.

3-topshiriq. Ushbu matnni o'qing va daftaringizga ko'chiring.

بو نان دور او نانوایدور نانوای تنوردا نان یاپور نادر
 ایویدین یانوی بو آت و او تایدور انور و ابرار دانادور آی
 توننی یاریتور آری دیدی او آب نان بیر راوی روایت ایتور
 ایردی

4-topshiriq. So'zlarni o'qing va yozilishiga e'tibor bering, kerakli o'rinlarga harakatlarni qo'yib ko'chiring.

نادر نارین نادان آنا انار انور نور نازنین اون تون
داوان دَرَباز دَرَبان این آیت ایران ایران ایتبورون آیدین ایندی
ایندین اینی اینداو اونداو تَن نروان نَباد

5-topshiriq. Soʻzlarni oʻqing. Oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering.

اون و اون نارین و نارین این و این ایردی و ایردی
اینی و اینی بات و بات بایی و بایی بیز و بیز بور و بور

Savol va topshiriqlar

1. Yoy va nun harflari qaysi jihatlariga koʻra bir guruhga kiradi?
2. Yoy harfi oʻzbek tilida qaysi nutq tovushlarini ifodalay oladi?
3. Soʻz boshida i, e unlilarini ifodalash uchun qanday amallar amalga oshiriladi?
4. Yoy harflari soʻz oʻrtasida va soʻz oxirida i, e unlilarini ifodalashi haqida fikr yuriting.
5. Oʻqilishi har xil yozilishi bir xil, oʻqilishi bir xil maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar tilshunoslikda qanday nomlanadi?

10-mavzu

Oʻtilgan harflar yuzasidan mashqlar

1-topshiriq. harflari ،ب، پ، ت، ث، د، ذ، ر، ز، ژ، ی، ن
ishtirokda soʻzlar tuzing va soʻz birikmalarini hosil qiling.

2-topshiriq. Juftliklarni yozilishiga eʼtibor bering va yozing. Maʼnosiga eʼtibor bering.

bilar-bilur, berar-berur, terar-terur, urar-urur, oʻrar-oʻrur, aytar-aytur, yonar-yonur, botar-botur, oʻyar-uyur, oʻynar-oʻynur (uynayur), bezar-bezur (bezayur), ezar-ezur (eziyur), sevar-sevur (seviyur)

3-topshiriq. Soʻzlarni oʻqing va koʻchiring.

پ ای پایپ پر پور پَدَر پَتیر پیر پَرَتاو پَرَداز انداز پَرِوا
پَرِواز پَرِوین پَرِی پَرَداد پردیوار پیوند پَرور اناپرور آتار
تاتار تاوان نروان ترتیب توپدان توزان تونا تیترادى تیتراتدی
تین تیندیردی دوندیردی ثبات ثبوت اری اذن

4-topshiriq. Soʻzlarni oʻqing va oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering.

تاپ و تاپ ياپ و ياپ يات و يات اير و اير آت و
 آت تاز و تاز تان و تان تاي و تاي توي و توي تونا و
 تونا اري و اري آداب و آداب آرا و آرا يوز و يوز

5-topshiriq. O'tilgan harflar ishtirokida qisqa jumlar tuzing va yozing.

11-mavzu

ه (hoye havvaz) harfi

O'zbek tilidagi *mehmon*, *har*, *hamkor*, *shoh* so'zlarida *h* tovushini ifodalaydi. Bu harf so'z oxirida arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda *a* unlisini ifoda qiladi. Masalan: *baraka*, *ma'raka*, *sajda*, *toza*, *xona*, *taxta* kabi so'zlarda so'z oxiridagi *a* unlisi hoyi havvaz harfi bilan yoziladi.

ه harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmassligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Ho-ye havvaz	H	ه	ه	ه	ه
	h	ه	ه	ه	ه

-----ه-----ه-----ه-----ه-----

arra	bahor	har
اره	بهار	هر

Hoyi havvaz harfi kof hafidan keyin kelib, o'zbek tilida *i* tovushini beradi. Bu asosan bog'lovchilarda ko'zga tashlanadi. Masalan: *ki chunki*, *balki*, *zeroki*.

Qizlarning ismidagi jinsni ko'rsatuvchi *a* tovushi har doim hoyi havvaz harfi bilan yoziladi. Masalan: *اراده* *دردانه* *اناره* *آزاده* *نادره* *زياده* kabi.

1-topshiriq. **Hoye havvaz** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Ota, ona, parda, bahodir, oh, pora, pona, zarra.

3-topshiriq. Ushbu soʻz va birikmalarni oʻqing va yozing.

آه آهو هر هم انتها هُدهُد هوا واه هوان وهَاب
هَيْبَت آوازه آواره اندازه اندوه اندوَه اَبَلَه ابيره آب هوا
زاهد زاهدانه زرده زياده زهر زِنهار زنده زيره زينه
پايه داده دايه دُرده دَرپرده اِراده اِداره اذان اَرپه ارزان آزاده
روانه آواره زياده راه هَيدر انتباه اندوه

4-topshiriq. Hoyi havvaz harfining soʻzlarda qoʻllanishi va qaysi tovushlarni ifoda qilishiga eʼtibor bering.

يار يوز بيداو ايز بها بهار وياز بودور هوا اَثار تيز تيز
تيردى بو روز نَوروز راه هُنر بَدِيهه ايواه آينه بابا اياز ايت
تلوان ايران اويون اويونباز اوندو اَثار اِبَندا اووده زاره

5-topshiriq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va maʼnosiga eʼtibor bering.

هوان –havon – manfur, jirkanch, razil; haqir, notavon

زنده –zinda – hayot, yashamoq

Savol va topshiriqlar

1. Hoyi havvaz harfi necha tovushni ifodalay oladi?
2. Alifboda hoyi havvaz harfining shakldoshlari bormi?
3. Qaysi harflar ham undosh, ham unli tovushlarni ifodalay oladi?
4. Hoyi havvaz harfi soʻz oxirida qaysi tovushlarni bera oladi?
5. Hoyi havvaz ishtirok etgan soʻzlar qaysi tillarga xos?
6. Turkiy soʻzlarda h tovushi soʻzning qaysi oʻrnida kelishi mumkin?
7. Hoyi havvaz harfi soʻz oxirida h tovushini ifoda etsa, soʻzga qoʻshiladigan qoʻshimcha qanday yoziladi?

12-mavzu

ج چ ح خ (jim, chim, hoyi huttiy, xe) harflari

ج (jim) harfi

Bu harf oʻzbek tilidagi jizm, *joʻja*, *jabr*, *kajdum* soʻzlarida j tovushini ifoda qiladi.

ج harfi muttasil harf boʻlgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qoʻshilish yoki qoʻshilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bogʻlana oladi.

choy	chachvon	chordevor
چای	چچوان	چار دیوار

1-topshiriq. **Chim** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Chor, choch, och, tinch, sinch, chopon, cho‘pon, chipor, chopar, uchar, chor (chahor) chori, choyo‘ti, nochor, chiroy, checha, chayon, chinor, chinni, chodir.

3- topshiriq. Berilgan so‘zlarni o‘qing va ko‘chiring.

جَرچى پاره چاره چادر چارچادى آچ آچدى ايچى پاپايچى
 ايندين تاتارچه تايانچ توپچى چيز چيزى چيراي چيجان چيرت
 چاى چايدان چوتير چورى چهار چهارجوى اوچدى اوچار
 چچوان چوچويدى چينار چيناز چينارزار چين چيننى چيوين
 چيوره ناچار بچه نجار چاپ چپيار چين چيناباد

ح (hoye huttiy) harfi

Bu harf o‘zbek tilidaga arab tilidan kirib o‘zlashgan so‘zlardagina qo‘llanadi. Hoyi huttiy harfi bo‘g‘iz *h* tovushini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi *halim, hakim, hukamo, mahkam, solih, sahro* kabi so‘zlardagi *h* tovushi hoye huttiy harfi bilan yoziladi.

ح harfi muttasil harf bo‘lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo‘shilish yoki qo‘shilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bog‘lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Ho-ye huttiy	H	ح	ح	ح	ح

----- ح ----- ح ----- ح ----- ح ----- ح -----

habib	bahr	Rohat
حبيب	بحر	راحت

1-topshiriq. **Hoye - hutti** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.
hoji, ranj, hamd, hojat, hodisa, hadis

3- topshiriq. Berilgan so‘zlarni o‘qing va ko‘chiring.

حَدِّ حَدِيثِ حُدُودِ حَجَرِ حُجَّتِ حِجَابِ حَبِيبِ حَرَارَتِ حَرْبِ
حَرْبِي حُرِّيَّتِ حَيَا حُورِ حَيَاتِ حَيْرَانَ حَيْرَتِ حَيَوَانَ حَاجَتِ
حَاجِبِ حَاجَتِ زَبَانَ زَنْجِيرِ زَنْدَانِ جَدِيدِ حَيَا حَيَوَانَاتِ جِينِ جَزَا
جِنَايَتِ جَنَّتِ حَجْرِهِ حُجَّتِ حَزِينِ اَجْرِ حَجَرِ حَيْرَانَ

خ (xe) harfi

Bu harf o‘zbek tilidagi xo‘roz, oxir, baxt, Balx so‘zlarida x tovushini ifoda

qiladi. خ harfi muttasil harf bo‘lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo‘shilish yoki qo‘shilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bog‘lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Xe	X	خ	خ	خ	خ

----- خ ----- خ ----- خ ----- خ -----

taxt	paxta	daraxt
تخت	پخته	درخت

1-topshiriq. **Xe** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Xon, xabar, axbor, daraxt, daraxtzor, paxta, paxtakor, taxt, taxa, xona, paxtazor, baxt, axir, oxir.

3-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ko‘chiring.

خاتون خوار خییچه خییچین خَبَرِ خانِه خانِ خُدا خُدايَا
خَرَابِ خرابات خرابه خِرَاجِ حَرَجِ خَنَدِه خورِ خَنَجَرِ خَنَدَانِ

خِنا خوروزباز خون خونریز خیره خیر خیریات خیویچ
باوجود خرید خنجر دانخور زخ خبَردار خبرچی خندان خرید
خریدار خَرَجَت خارج تَخْت روان تَخیر

Savol va topshiriqlar

1. ح shaklidagi harflar soni nechta, ularning bir-biridan farqini tushuntiring.
2. ح shaklidagi harflarning qaysisi faqat forsiy va turkiy soʻzlarda qoʻllanadi?
3. ح shaklidagi harflarning qaysi biri faqat arabiy soʻzlarda qoʻllanadi?
4. ح shaklidagi harflarning qaysi biri arabiy va turkiy talaffuzga mos keladi?
5. ح shaklidagi harflarning ketma ketligini aniqlang va yod oling.

13-mavzu

Oʻtilgan harflar ishtirok etgan matnlar ustida ishlash

1-topshiriq. Berilgan harflarni alifbodagi oʻrni boʻyicha joylashtiring:

ت ت خ ه ژ ی ا ذ و ج ن ح ز

2-topshiriq. Soʻzlarni oʻqing va arab alifbosiga oʻgirib daftaringizga yozing.

Acha, archa, charchab ajrat, barcha, xona, ijara, achi, oxir, axir, oʻrda, oʻtxoʻr, ancha, oʻtzor, birov, uchov, uyat, yoy, eridi, aynitdi, beva, bod, narvon, benarvon, behbud, badbin, poya, parpi, boʻybast

Bir, uch, toʻrt, etti, oʻn, oʻttiz, yuz

3-topshiriq. 10 ta tashdidli soʻzlardan topib yozing.

4-topshiriq. Berilgan soʻzlarga harakatlarni qoʻyib oʻqing va koʻchiring.

هیبب خاور وبا وزن ویران وادی نو نیت نیزه نهان
نهار نهر خنازه ریا مهمان زیان زبر دریا ریحان دهن
درپرده دور خیر دربند دزد خیال دوات دنیا خواننده خبر
خداوند خرد جزا خنت جراح بند تربند تربت

14-mavzu

س (sin va shin) harflari

س (sin) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *soat, sust, ost, rost, bas* so'zlarida s tovushiga mos keladi.

س harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

asb	dast	SUV
اسب	دست	سوو

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Sin	S	س	س	س	س

----- س ----- س ----- س ----- س ----- س -----

1-topshiriq. **Sin** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quydagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Chust, Chustiy, Chori, Chinora.

Bos, rus, do'st, to's, chinor, dast, savdo, so'ra, sabab, dastur, sarboz, sardor, sut, sot, rost, soy, sen, past, os, mavzu, ustod, , sarvar, bosavod, dastur, bas.

3-topshiriq. Berilgan so'zlarni o'qing ko'chiring.

سین و بیز ساپ و دست ساچ و سان ساخته و
سامان سازنده و بازنده سادّه و روان سایه بان و سپاه سبب
و سیّاره ساوچی و سروپا سخاوت و سواب سُخندان و
سرباز سر و بست سواد و درس سُوری و سَمندر سیرسو و
سیرسوت سبزه و سیردرخت سیوینچ و ایانچ سوست و سوت

4-topshiriq. Berilgan so'zlarni o'qing va imlosiga e'tibor bering.

ذهن جانب جذبّه ثور جهان چیز جنوب جسور چرخ ساچ
سواد حسد حُسن حسیّ حسیب حساب حسابات خسیس خروس
دست درس ذره ربّنا رُخسار راهب سادّه سایه سپاه سوت

سَرای سَرَباز سُرُخ سَرَدابه سیردیریا سرسان خرسند خسیس
سخی

ش (shin) harfi

Shin harfi o'zbek tilidagi *shirin, shakar, tesha, osh kabi* so'zlarda *sh* tovushini ifodalaydi.

ش harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

shirin	sharbat	Bosh
شیرین	شربت	باش

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش

----- ش ----- ش ----- ش ----- ش -----

1-topshiriq. **Shin** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quydagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Osh, bosh, shab, tush, kush, dosh, shon, poshna, bashorat, dushvor, yosh, soch, shoh, besh, pushta, shona, toshur, sho'x, shodon, shiddat, chora, bechora, daricha, chorpoya, chordona, chorraha, sher.

3-topshiriq. Ushbu matnni o'qing.

شاهد شایان شَبَدَه شاه شاه نامه شاه توت شادان شَرشَره
شَهزاده شوربا شَجَرَه شُهْرَت شَرایت شَب شُبُهه شَبستان شیشَه
شیره شیرین شَرَبَت شیوه سیپیش باریش اوروش آش سَرتراش
دَشت آشخور خوش خوشنود خوشتار خواهیش جوار و
خار روس روسچه روشن

4-topshiriq. Ushbu matnni ko'chirib yozng.

خوشبخت و شَهْر خود بیخود ریاست خواه ناخواه خَرَد
جارج خارپشت خُسرو خورشید خاناب سپاهی خونخواره

خونریز دَه دِه دَهر سَرِد سَتاره شَرِح سِرَاج سوتَه شور
شَهسوار شَیخ جُنن جُنبوش توپتاش

5-topshiriq. Berilgan so‘zlarni yozilishi va o‘qilishiga diqqat qiling.

نویسنده سازنده نوازنده بازنده خواننده شنونده پرنده درنده
خورنده پسنده خنده اندیشه بیشینچی

6-topshiriq. So‘zlarni o‘qing va o‘qilishi va yozilishiga e‘tibor bering.

اوچ و اوچ تاش و تاش شاش و شاش آش و آش توش
و توش یاش و یاش سان و سان ساچ و ساچ چاپ و
چاپ

6-topshiriq. Maqollarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Ish bor erda osh bor.

Har oina o‘z jinsidin.

Yosh ishni topar,

Ishsiz dardisarni.

Er – ona, suv – ota.

Er – xazina, suv – oltin.

Savol va topshiriqlar

1. Sin va shin harflarining alifbodagi tartibini belgilang.
2. Sin va shin harflari alifbodagi tartib bo‘yicha nechanchi shakldosh harf sanaladi?
3. Sin va shin harflarining qo‘lyozmadagi shakllariga e‘tibor bering.
4. Sin va shin harfi qatnashgan so‘zning o‘zlashgan-o‘zlashmaganini qaysi xususiyatlarga qarab ajratish mumkin?
5. Sin va shin harflari so‘z o‘rtasida kelganda o‘zidan oldingi harfga ulanishi mumkinmi?
6. Sin va shin harflari o‘zlashma so‘zlarda qo‘llanadimi?

15-mavzu

ف ق (fe va qof) harflari

ف (fe) harfi

Bu harf o‘zbek tilidagi *firoq*, *fonus*, *oftob*, *sahhof* so‘zlarida *f* tovushini ifoda qiladi.

ف harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Fe	F	ف	ف	ف	ف

-----ف-----ف-----ف-----ف-----

fonus	oftob	daftar
فانوس	أفتاب	دفتر

Eslab qoling! Tarkibida f tovushi mavjud bo'lgan so'zlar o'zlashma so'zlar bo'lib, ularning aksariyati arab va fors tillaridan o'tgan. Ularning tarkibida qisqa unlilar bo'lishi mumkin. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda ham f tovushli so'zlar ham mavjud. Bunday so'zlar to'liq yoziladi.

1-topshiriq. **Fe** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Safar, afsus, sharor, faxr, fido, sharaf, farrosh, sharofat, farosat, farzand, shahodat, folbin, fotih, fath, fors, farmon, falsafa, fan, oftob.

3-topshiriq. Ushbu so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chiring.

وفا نفس شفا نفرت سفر فدا فراوان دفتر وفادار
 فانوس نفاست فرست مفتون فاتح فاتحه فتح فتحة فتنه فحش
 فرح فرخ فرد فزون فساد فانوس فاش فتنه فراست فن فنون
 فرشته شواز شهادت فتوى فارسچه فائده فراست فساد فريب
 ان سان

4-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarning ma'nosini eslab qoling.

فروخ	farrux	go'zal, baxtiyor
فزون	Fuzun	ortiq, ziyoda, ko'p
فساد	Fasod	tartibsizlik
فرح	Farah	xursandlik, sevinch

ق (qof) harfi

Qof harfini ifodalovchi tovush o‘zbek tilida mavjud emas. Bu harf o‘zbek tilidagi *qovoq*, *qalin*, *oqsoq*, *oq* so‘zlaridagi *q* tovushini ifoda qiladi.

ق harfi muttasil harf bo‘lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo‘shilish yoki qo‘shilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bog‘lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Qof	Q	ق	ق	ق	ق

ق ----- ق ----- ق ----- ق ----- ق ----- ق -----

qush	quchoq	qoshiq
قوش	قوچاق	قاشىق

1-topshiriq. **Qof** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Boq, qosh, quduq, farq, qand, sharq, oq, qadar, qaboq, quruq, qanot, naqqosh, diqqat, naqsh, qiziq, quyosh, qipiq, firoy, furqat.

3-topshiriq. Ushbu so‘zlarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

اوق قَريب قير قيز قُربان قاجقاق قوش قار قاشيق قودوق
قُرآن قُدس شَريف قَدَح قورقاق قيش شَبستان شيرين قاش قار
قادِر قاجاق قَيپچاق قَند قَبر آقساق اوقوش قَيين قُرت قَفر شَفق
شَفيق شَفقت شَرق قارون قارى اوراقچى اوراقچى اق قوش
اويناقى تاواق تاوق ساوق قازيق اق سراى بقيراق باتقاق قادر
قازاق قازاقچه قيز قودوق باسيق باسقينچى ايناق پوچوق
پيشانه پيشيق تايقير تارقاق تحقيق تاشقين توقاى قيليچ قير
ساقاو تَقيه تَرقى ترقى پرور نقش نقاش نقره

4-topshiriq. So'zlarni o'qing va o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering.

آق و اق قاش و قاش قوش و قوش قوی و قوی قار و
قار قان و قان قیپیق و قیپیق قیر و قیر اوقی و اوقی ساچ
و ساچ

5-topshiriq. Maqollarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Oq it qora it bari – bir it.

Qizi borni nozi bor.

Ish bor erda vaqt tez o'tar.

Yoz bo'yi yotar,

Qish bo'yi qotar.

YAlqov o'zidan qo'rqsin.

Savol va topshiriqlar

1. Fe va qof harflarining alifbodagi tartibini aniqlang.
2. Fe va qof harflari qaysi xususiyatlariga ko'ra o'xshashligi bor?
3. Fe va qof harfi qatnashgan so'zning o'zlashgan-o'zlashmaganini qaysi xususiyatlarga qarab ajratsa bo'ladi?
4. Fe va qof harflari so'z o'rtasida kelganda o'zidan oldin munfasil harf bo'lsa, o'rta ko'rishini yozish mumkinmi?
5. Fe va qof harflaridan oldin muttasil harf kelsa, qaysi ko'rinishi tanlanadi?

16-mavzu

ک گ (kof va gof), ل م (lom va mim) harflari.

ک (kof) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *karam, komil, ko'rk, o'ktam, uka, tok, turk* so'zlaridagi *k* tovushiga mos keladi.

ک harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmassligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Kof	K	ک	ڪ	ڪ	ک

.....کڪڪک.....

Kitob	kabutar	nok
کتاب	کبوتر	ناک

1-topshiriq. **Kof** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. So‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring va ko‘chirib yozing.

Kotib, kosib, takror, takbir, bo‘shlik, ko‘rsatdi, naqshdor, tok, ro‘kash (ro‘kach), kashfiyot, kafsh, kabob, korsoz, kib, kitob, kutubxona, kira, kabutar, kiy, kayvoni, kishan, kishvar, koshona, kordon, kulonkir.

3-topshiriq. Ushbu so‘zlarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

کام کدو کاف کشف کثور کلام کلیمه کوثر کوشک
گوگب (کاویب) کوه براکوه گیوان کبر کتاب کاتب کاسه کام
کشنده کثور کس کشن کفر کفن دفن کفاک کور قوش کلانکر
تورنه کوروک کوز کوکقرغه اوردک کیف کیین کاسب

3-topshiriq. Quydagi maqollarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

Ot tobinda, er qoninda

Oz oshka indov yo‘q (Gulxaniy “Zarbul masal”)

YAxshi uydan yaxshi tutun chiqar.

O‘t tosh yorar, tosh bosh yorar.

Har erda xo‘roz birday qichqirar.

YAxshi qiz erta turib soch tarar,

Erinchoq qiz erta turib non so‘rar.

4-topshiriq. Maqollarni o‘qing va mashq daftaringizga ko‘chiring.

شیرین آش سیرین سوز
ایرتا بارسه ایت پیشار
آرقه قالسه بیت پیشار
قوناqqه آش بیر آتینه اوت
سخی تاپسه ساچیب بیر
خسیس تاپسه باسیب بیر
سخی تاپسه اورتادا
خسیس تاپسه اورادا

گ (gof) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *gul, gunoh, ogoh, tug, begona* so'zlarida *g* tovushiga mos keladi.

گ harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Gof	G	گ	گ	گ	گ

-----گ-----گ-----گ-----گ-----

barg	gasht	sak
برگ	گشت	سگ

1-topshiriq. **Gof** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring va ko'chiring.

Gov, agar, gap, gapir, gapirdi, dong, tong, danak, garov, egri, sigir, gasht, gurung, gard, gardan, grihon, gunoh, nogoh, ogoh, goh, gasht, nigor, ogoh.

3-topshiriq. O'qing, ko'chirib yozing va yod oling.

گرد گوده گنج گونگ گویا گویاکه گه گوشه اگر گردون
گوهر (گوهر) گوشنکه گوشت گوشتخور گور گورستان گپ
گذر گردان گردش گردن گریبان گریه گفتار گنبر گنجینه گوشه
گوینده ایتگوچی سورگوچی گرگ

4-topshiriq. Ushbu matnni ko'chirib yozing va o'qing.

قازانکه یانداشسنک قراسی یوقار
هر آئینه اور جنسیدین
گر نیچیدین نه کیتار بر فوف
کونده بازنی آخیریگا باق
کیتینکا باق ناغاره قاق

5-topshiriq. Quydagi maqollarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

YAlqov o'ziga yov.

Oshnongdin top.

To'yga borsang to'yub bor, to'rqa to'nung kiyib bor.

Boshga tushganni ko'z tortar.

Eshagiga yarasha tushovi.

Esing borida etagingni yop.

(Gulxaniy "Zarbul masal")

ل (lom) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *lola*, *olma*, *olcha*, *ol*, *bol* so'zlaridagi *l* tovushiga mos keladi.

ل harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Lom	L	ل	ل	ل	ل

----- ل ----- ل ----- ل ----- ل -----

Shamol	shaftolu	bulbul
شمال	شفتالو	بلبل

Ligaturalar

Arab alifbosidagi **kof**, **gof** va **lom** harflaridan so'ng alif kelganda birga qo'shilib o'ziga xos qo'rinishga ega bo'ladi. Bunday harflar **ligaturalar** deb yuritiladi. O'zbek tilidagi boshqa adabiyotlarda bu shakldagi harflar **qo'shaloq harflar** deb ham yuritiladi.

Nasx xatida

lo, la | ل+ا+ل | go, ga | گ+ا+گ | ko, ka | ک+ا+ک

Shuningdek, gof harfi lom harfi bilan yonma-yon kelganda qo'shaloq holda yoziladi. گ+ل+گ گل

Nastaliq xatida

لا	گا	کا	گل
----	----	----	----

Ular naxs xatida (bosma grafikada) quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:
 گلنار لای کاتب ایگار گلزار گل لابر لاجین کوکلا گلا
 بالالار لاله زار لاله قیزغالداق لابر

Ular nasta‘liq xatida quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:
 گلنار لای کاتب ایگار گلزار گل لابر لاجین کوکلا گلا
 بالالار لاله زار لاله قیزغالداق لابر

Nun va gof harflari birikmasi

Arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida ڱ (ng) sonor tovushi hozirgi yozuvdagi kabi ikkita harf ن va گ yordamida birikma shaklida qo‘llangan. ڱ tovushi ishtirok qilgan so‘z va qo‘shimchalar نگ tarzida yozilgan va o‘qilgan. Masalan:

تانگ سونگ مینگ بانگ چانگ دانگ رنگ-برنگ
 نهنگ آهنگ بادرینگ شدرنگ آنگ؛
 - نینگ: خوارزم خلقینینگ بیوقوفلیقی؛ بیزنینگ جماعتیمیز.
 - نگ: بیرینگ کیلینگ آلینگ چیزینگ کورینگ.

Manbalarda -ning qaratqich kelishigi qo‘shimchasi – ng نگ shaklida ham qo‘llangan:

نفاق دیب کشینک آلدیده بر خیل آرقاسیدن باشقه خیل
 سوزلاندورگان سوزنی ایتیلور.

1-topshiriq. **Lom** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2-topshiriq. *Lom alif, kof alif va gof alif, nun gof* harfiy birikmalarining har birini mashq daftaringizga bir qatordan yozing.

3-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring. Ligatura shakliga ega bo‘lgan so‘zlarni alohida ajrating.

Bugun, butun, ko‘rik, eshik, terak, gulzor, gugurt, gard, gulchi, gullari, agar, elak, dalil, kelin, kabutar, barg, norin, nodir, kapalak, kiprik, ko‘prik, lola, tol, qalb, avval, soqol, qabul, lof, loqayd, oltun, olsun, lochin, solub, lapar, alifbo, qishloq, qalandar, oqsoqol, balo, bolo, laylak, bo‘lub, quloq, iqbol, saqlab, falaj, falak, gilos.

4-topshiriq. Berilgan maqollarni o'qing.

ياو كيتگان سونگ قيايچينگى يرگا چاپ
ياو توبى ايل بولور جر توبى يول بولور
كونينگ تىلاگى ايكى كوزى
قل قوتورسه قودوققه توفلار
قدا بولونگ جدا بولدونك
جانكال اور جاييده كونكورار
(Gulxaniy "Zarbul masal"dan)

م (mim) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *mamnun*, *mamlakat*, *mash'al* so'zlarida *m* tovushini ifoda qiladi.

م harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Mush	Uzum	murod
موش	اوزوم	مُرَاد

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Mim	M	م	م	م	م

----- م----- م----- م----- م-----

Eslatma: arab tilidan o'zlashgan *ma*-, *mu*-, *ta*- bilan boshlanuvchi so'zlarda bo'g'in tarkibidagi a, u unilari yozuvda tushib qoladi. Masalan:

مَكْتَب مَدْرَسَه مَرْتِيَه مَحْرُوم مَخْفِي مَذْكُور مَحْبُوب مَدْرَسَه
مَشْهُور مَرْحَبَا مَيْدَان مَجْنُون مَسْت مَسْجِد مَسَافَه مَقْبَرَه
مُرَاد مُسْلِم مُبَارَك مُبَاشِر مُتَفَكِّر مُبْتَلَا مُحْسِن رَهْنَمَا
رُوزْنَامَه مُكْرَم مُدْرَس مُيَسَّر مُعَمَّا مُقَدَّس
تَشْكُر تَفَكِّر تَكْبِير تَدْقِيق تَكْلِيف تَدَارَك تَحْرِير تَحْسِين
تَشْرِيف تَفْسِير تَكْلَم تَنْفَس

Shuningdek, soʻz tarkibida ikki xil undosh kelsa, oʻzlashma soʻz sanaladi (old, ust soʻzlaridan tashqari). Bunday soʻzlarning imlosiga eʼtibor berish kerak boʻladi. Masalan:

خرد انور نقش خرسند فرزند سست قصد اقتصاد اقلم قند

1-topshiriq. **Mim** harfining har bir koʻrinishini toʻrt qatordan yozing.

2-topshiriq. Quydagi soʻzlarni eski oʻzbek yozuviga oʻgiring.

Maorif, Akmal, Karim, Akram, Komil, Madina, Mashhura, Maysara, Mehmon, Jamol, Muxtor, Malohat, Mohira, Murod, Omon;

maktab, muz, rum, mum, dom, tom, qamar, mush, shum, orom, sharm, samo, ammo, musht, mard, tamosho, kamalak, maqol, malol, shimol, shamol, salomat, islom, dilorom, maymun, mudom, may.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarni oʻqing, yozilishiga eʼtibor bering.

گُمان گُمدان گُمراه مُرد مُراد مَسَلک مَقام مِقدار مِی مَه
لقا مَهابت مَهوش میرزا مِیْمون مَحروم مَحزون ماش مِیم مای
مَجاز مَحشر مَرآتبه مَرجان مَرمر حُرمت

4-topshiriq. Ushbu maqollarni oʻqing va koʻchirib yozing.

آت آسانک اولینک برله کینکاش
یول سوراکان نامرددور آت اوستیکا مینکان سونک
آدمی کوپ حیلہ و تدبیر ایتار لیک ایشنی آخیری تقدیر ایتار
آشوققان قیز ایرکا بارسه یارچوماس
آلا کوزنک آلمان بولسه هم ارسلان بولماس
آلتوننی بیتکان یرده قدری بار

5-topshiriq. Maqollarni eski oʻzbek yozuviga oʻgiring.

Oʻy oʻylagan qul tek turmas.

Yamonning kuchi yapaloqqa etar.

Eshikni ursam, devor titraydi.

Na talqonu na qalqonni gʻamini er

Katta kema qaydin yursa, kichik kema andin yurar.

Arzon molni shoʻrbasi totimas .

Er soʻzi el soʻzi.

Tepib oʻtma suyab oʻt.

Dunyoni el, odamni soʻz eydi.

Er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar,

Ot boshiga ish tushsa, suvliq bilan suv kechar.

Yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.
Itga bersang oshingni itlar talar boshingni.
Uydagi savdo bozorga rost kelmas.
Bek uldurki, olmagay bergay,
Qaro uldurki, sochmagay tergay (Gulxaniy).

Savol va topshiriqlar

1. Shakldosh harflarning umumiy sonini aniqlang, kof va gof harfining farqli xususiyatlarini aniqlang.
2. Alifboga nima uchun gof harfi kiritilgan deb o'ylaysiz?
3. Ligatura nima?
4. Ligaturalarning xat turlarida yozilishidagi farq nimada?
5. Sonor ng tovushining manbalarda yozilishi haqida gapirib bering.
6. O'zbek tilidagi sonor ng tovushi yozuvda qanday ifodalanadi?
7. Manbalarda –ning qaratqich kelishigi qanday shakllarda uchrashi haqida gapirib bering.
8. Kof, lom, mim harflarining talaffuzi o'zbek va arab tillarida deyarli bir xil. Ularning arabcha so'z tarkibida kelganini qaysi xususiyatlarga qarab ajratish mumkin?

17-mavzu

ص ض (sod va zod) harflari

ص(sod) harfi

ص (sod) «s.» fonemasi - tanglay oldida talafuz qilinuvchi tish orti emfatik sirg'aluvchi, shovqinli jarangli undosh. Uning artikulyatsiya olish asnosida nutq a'zolarining holatlari oddiy tish orti sirg'aluvchisi «**sin**» ning talaffuziga o'xshaydi. Boshqacha aytganda til uchi pastki tizmasining ichki tomoniga biroz tegib turadi. Tilning o'rta qismi qattiq tanglayga qarab ko'tariladi va havo o'tishi uchun tor tirqish hosil qilinadi. A'zolarning ana shunday holatlarida havo sirg'alishidan sod harfini ifodalovchi tovush talaffuz qilinadi. Biroq shuni esdan chiqarmaslik kerakki, emfatik talaffuzda oddiy undosh talaffuzdagiga nisbatan havo o'tish yo'li anchagina tor bo'ladi; til va boshqa barcha a'zolar nihoyatda taranglashadi; til orqasi yumshoq tanglayga qarab to'liq tortiladi; havo sirg'alib kuch bilan tashqariga otiladi. Bunday tovush o'zbek tilida yo'q.

Bu harfni ifodalovchi tovush o'zbek tilida mavjud emas. Bu harf faqat o'zbek tiliga arab tilidan kirib o'zlashgan sodiq, sidq, sandiq, sahro kabi so'zlarda qo'llanadi. Bu tovush o'zbek xalqining fonologik bazasida bo'lmagani uchun sin harfi ifodalagan tovush bilan talaffuz qilinadi.

ص harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Sod	S	ص	ص	ص	ص

-----ص -----ص -----ص -----ص

sabr	tasvir	Shaxs
صبر	تصوير	شخص

1-topshiriq. **Sod** harfining har bir ko'inishini to'rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Nosir, Sayyod, Sabohat, Sodiq, Sodiqa, Siddiq, Sohib, Sohiba, San'at, Sanam;

nosir, sayyod, hasrat, suhbat, sabo, sabr, sado, sahiro, sahih, surat, tasvir, sobun, besabr, g'avvos.

3- topshiriq. Ushbu matnni o'qing va ko'chiring.

صاحب صاحبيه صباح صابون صبا صبر صحت صبر
صحنه صُحِبَت صحرا صحراى صحن صنابر صياد صحا
صُرْنى صورت صوت صيد صحيح بترتيب صفا فرصت
إخلاص إختصاص خصوصاً صدا صبا صداقت اسد أسلوب
اصراف اصل اصلا اصلاً اصلاح اصلى اصليت اصيل
مصلحت صبر بيقصم تصوير تصوّف تصنيف تصوّف تصديق
تصادف تفصيل تفكر حاصل حاصله حرص خاصيت خصم
خصومت رخصت شخص شخصيت صحيفه صاف صادر
صف صرف صلح صلاحيت صلوات صمى صنم صنابر
صنف صنعى صنعت صندوق صندل صورت صولت صياد
صيقل فرصت صدق صادق صداقت صاحب صبا صباحت
صدا صحرا رُخِصَت صَبِحَ شَخْصَ إحتراص صبر مَحْصُول
مُصَفًّا

4- topshiriq. Berilgan maqollarni eski o'zbek yozuviga o'giring.
Dushman ne demas tushga ne kirmas («Boburnoma»).

Oyni etak bilan yoshurub bo'lmas.
 Birmas qizni qalini ko'b.
 Bemor tuzalgusi kelsa tabib o'z ayoqi bila kelur.
 Bo'zchi belboqqa yalchumas.
 Ema bilgan qo'zilar iki anoni teng emar
 Ema bilmas qo'zilar o'z anosin emolmas (Gulxaniy "Zarbul masal")

ض (zod) harfi

ض (zod) «d.» fonemasi - emfatik tanglay oldi tovushi, shovqinli, jarangli tish orti portlovchisi. U barcha sifatlari bilan «d» fonemasiga mos kelsa ham, birgina farqi bor. U ham bo'lsa, nutk a'zolarining ortiqcha kuch bilan taranglashuvidir. Boshqacha qilib aytganda, uning artikulyatsiyasi paytida til uchi tanglay oldiga tortilib, qattiq jipslashadi, Ayni shu lahzada havo oqimi shiddat bilan tashqariga otiladi va zod fonemasi talaffuz qilinadi. Artikulyatsiya paytida burun bo'shlig'ini tanglay bilan bog'lovchi tirqish yopiq bo'ladi. Shu sababli havo oqimi faqat og'iz bo'shlig'i orqali tashqariga yo'l oladi. Bunday tovush o'zbek tilida yo'q.

Bu harfni ifodalovchi tovush o'zbek tilida mavjud emas. Bu harf faqat o'zbek tiliga arab tilidan kirib o'zlashgan *zarar*, *arz*, *zarb* so'zlarida qo'llanadi. Bu tovush o'zbek xalqining fonologik bazasida bo'lmagani uchun ze harfi ifodalagan tovush bilan talaffuz qilinadi.

ض harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Zod	Z	ض	ض	ض	ض

-----ض ----- ض ----- ض -----ض -----

ziyo	hozir	zarar
ضيا	حاضر	ضرر

1-topshiriq. **Zod** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.
 Ziyo, zarur, zarar, ziddiyat.

3-topshiriq. Kuyidagi so‘zlarni o‘qing va topshiriq daftaringizga ko‘chirib yozing.

ضِيَا حَصْرَتِ حَضْرَتِ ضَرْبِ ضَرَّرَ حَاضِرِ ضَرْبِ
ضَرْبِدَارِ رِضَا ضِدِّ ضِدِّيَّتِ ضَرْبِ ضَرْبِهِ اضْتِرَابِ اضْأَفَه
اضْأَفَاتِ اَفْضَلِ تَضْيِيقِ تَقَاضَا رَاضِي فِضَا فِضْلِ فِضِيْلَاتِ
فَرَضِ قَاضِي قَرَضِ بَعْضِي قَاضِي

4- topshiriq. Ushbu matnни o‘qing.

بورونكىلاردىن كوپ حكمتلار قالكان ترور مولانا محمد گلخنى
اوزىنىنگ ضرب المثل اسرىدا بورونكىلاردان قالكان بر مثلنى
كىلتوروب تروركىم قىز قرىسه قاضى بولور سارىغ ايتكا راضى
بولور و ينه دىيدوركه اوزىنكىنى اير بىلسنك براونى شىر بىل.

5-mashq. Hikoyatni o‘qing.

حكایت

بر كىشىنىنگ برهميان آلتونى اوييده يوقالدى اولكىشى
قاضيغه عرض قىلىب ايردى قاضى انىنگ اوييده غى بار
كىشىلارنى ايدادى و هر بىر كىشىغه بىر دانه دىن جوب بىردىكه
همه چوبلار اوزونلىقده بىر ايردى و ايدى هر كىمكه اوغرى
بولسه انىنگ جوبى بىر انگشت مقدارى اوزايغى تاكه همه
سىنغه رخصت بىردى بىر كىشى كىم اوغرى ايردى قورقتى
و اوزىنىنگ جوبىنى بىر انگشت مقدارى كىسىب تاشلادى ايرته
سى مذكور كىشىلارنىنگ همه سىنى ايندادى و جوبلارنى
كوردى بىلدىكه جوبىنى كىسكان كىشى اوغرى ايركان همياننى
اندىن آدى و سياست قىلدى.

Savol va topshiriqlar

1. Sod va zod harflarini talaffuz me‘yorlariga amal qilgan holda mustaqil talaffuz qiling.
2. Sod va zod harflari shakldoshligina ko‘ra alifbodagi o‘rniga ahamiyat bering.
3. Yot harflarning qoidasini esga oling. Sod va zod harflarining eski o‘zbek yozuvida saqlanib qolganligi sababini tushuntiring.

4. Tilshunoslikda shakliy yozuv printsipli deganda nima nazarda tutiladi?
5. Qadimda shakliy yozuv printsipliga amal qilinganmi?

18-mavzu

ظ ط (to va zo) harflari

ط (to) harfi

ط (to yoki itqi) «t.» fonemasi - til oldi emfatik, shovqinli jarangsiz, jarangsiz, tish orti sirg'aluvchisidir. Uning artikulyatsiyasi emfatik **zod** fonemasiga to'la mos bo'lgani holda jarangning yo'qligi bilan farqlanib, nutq a'zolarining holati oddiy tish orti jarangsiz portlovchi «te» talaffuzidagi kabidir. Farq shuki, til uchi tanglay oldiga tortilganda, qattiqroq jipslashadi. Til orqasi yumshoq tanglaydan imkon borichi uzoqlashadi va shu lahzada havo oqimi shiddat bilan otilib chiqadi. Artikulyatsiya lahzasida burun bo'shlig'ining yo'lagi yopiq bo'ladi. Shu sababli havo oqimi faqat bo'g'iz bo'shlig'i orqali to'g'ri sirtga yo'l oladi.

Bu harfni ifodalovchi tovush o'zbek tilida mavjud emas. Bu harf faqat o'zbek tiliga arab tilidan kirib o'zlashgan *tolib, taraf, tib, matlab* so'zlarida qo'llanadi. Bu tovush o'zbek xalqining fonologik bazasida bo'lmagani uchun te harfi ifodalagan tovush bilan talaffuz qilinadi.

ط harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmaligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
To	T	ط	ط	ط	ط

-----ط ----- ط -----ط -----ط -----

xattot	shart	botin
خَطَّاط	شَرَط	بَاطِن

1-topshiriq. **To** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Latif, Latofat, Matlab, Tolib, To'ti, Tohir;

satr, tayr, tabib, tanbur, to'ti, faqat.

3- topshiriq. Soʻzlarni oʻqing va daftaringizga yozing.

ضابط طاهر طرز طرب ظهارة ظير طينت طب طبي
طبيات طبابت طبيب طناب طناز طوطى طى طيار واسطه
بشرط طاقت طرف تطبيق خاطر خطاي خطاب خطا خواطر
سلطنت سلطان رابطه سطر سرطان سطرنج شرط شاطر
شيطان طاوس طبق طبقه طرخ طرز طرح طراوت طريقت
طناب طلب مطلب طلا طنبور طومار نقطه نقصان نهال
نهان هضم مطلب طالب

4-topshiriq. Ushbu matnni oʻqing.

ايرته توروماكنينگ خصلتي خيلي بسيار تورور گل عذاري آدى
أستاد لطيفه ايتدى ملا روشن كلكين آدى بو بنا بلنددور و
نقشداردور بو سوز مقبولدور گلخنى ضرب المثل دا
كىلتوروبدوركيم صبر قيلسانك غوره دين حلوا بيتار و ينه
ديبتوركه سوزنى ايتگيل اوق قانغه جان نى جان غه سوق قانغه

ظ (zo) harfi

ظ (zo yoki izgʻi) «z.» fonemasi - tanglay oldi undoshlaridan shovqinli, jarangli tish orti sirgʻaluvchisi. Talaffuz qilinish uslubi **sod** fonemasi bilan mos keladi. YAqona farq «**zo**» jaranglidir. Fonema artikulyasi asnosida barcha aktiv va passiv ishtirok qiluvchi nutq aʼzolarining qattiq taranglashuni esdan chiqarmaslik kerak. Bu xildagi undosh oʻzbek tilida yoʻq.

Bu harfni ifodalovchi tovush oʻzbek tilida mavjud emas. Bu harf faqat oʻzbek tiliga arab tilidan kirib oʻzlashgan *zohir*, *zulum*, *mazlum* soʻzlarida qoʻllanadi. Bu tovush oʻzbek xalqining fonologik bazasida boʻlmagani uchun ze harfi ifodalagan tovush bilan talaffuz qilinadi.

ظ harfi muttasil harf boʻlgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qoʻshilish yoki qoʻshilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bogʻlana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Zo	z	ظ	ظ	ظ	ظ

مونىنگ سببى نە دور طبىب جواب بىردىكە بو گورستان
نىنگ اولوك لارىدىن اويالورمن زىراكە ھمە لارى مېنىگ
دارولارىم دىن اولغاندورلار

Savol va topshiriqlar

1. To va zo harflarini talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil talaffuz qiling.
2. To va zo harflarining shakldoshligiga ko'ra alifbodagi tartib raqamini belgilang.
3. Yot harflar sirasiga kiruvchi to va zo harflari nima uchun eski o'zbek yozuvida saqlanib qolganligi sababini tushuntiring.
4. Tarkibida to va zo harflari ishtirok etgan so'zlarga qanday so'z sifatida baholash mumkin?
5. Qadimda to va zo harflari ishtirok etgan so'zlarni aynan yozish amalda bo'lgan. Buni qanday izohlaysiz?

19-mavzu

ع غ (ayn va g`ayn) harflari

ع (ayn) harfi

ع (ayn) fonemasi. Arab va barcha somiy tillar uchun xos tovush bo'lib, halqumda talaffuz qilinuvchi shovqinli portlovchi undosh tovushdir. U bo'g'izning mushaklari nihoyatda taranglashib, jipslashgach, pauzadan so'ng birdaniga bo'shashuv oqibatida nafas kuch bilan tashqariga otilgan lahzada talaffuz qilinadi. Bunda tovush paychalari to'liqlanib harakatga keladi. Yumshoq tanglay ko'tarilgan, burun bo'shlig'iga o'tish yo'li yopiq bo'ladi. Bunday tovush o'zbek tilida yo'q. Uning to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini hosil qilish barcha emfatik tovushlar artikulyatsiyasidagi kabi mushkuldir.

Bu harf o'zbek tiliga arab tilidan krib o'zlashgan so'zlarda ishlatiladi. Uning arab tilida bir necha funktsiyasi mavjud. Ularning ayrimlarigina o'zbek tiliga kirib o'zlashgan.

Ayn harfi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. **Ayn** harfi so'z boshida kelgan tilimizga o'zlashgan so'zlarning ayrimlaridagi **a** tovushini ifodalaydi.

عَدَد	adad	عَجَب	ajab
عَرْش	arsh	عَصَا	asso
عَرَب	arab	عَدَالَت	adolat

2. Arab tilidan o‘zlashgan ba’zi bir so‘zlarda esa **ayn** harfi so‘z boshida i unli tovushini ifodalaydi.

عَشْرَات	ishrat	عشوه	ishva
عِزَّت	izzat	عيد	iyd
عِدَّة	ldda	عصيان	isyon

3. Arab tili orqali o‘zbek tiliga o‘zlashgan ayrim so‘zlarda **ayn** harfi so‘z boshida kelib, **u** yoki **o**‘ tovushlarini ifodalaydi.

عُذْر	umr	عبيدالله	Ubaydullo
عَضُو	uzv	عذر	uzr
عَشْر	ushr	عهده	uhda

4. Ayn harfi so‘z boshida **alif** harfi bilan birikib cho‘ziq **o** unlisini ifodalaydi. ع+ا ← عا + ا ← عا

عَارِض	oraz	عاجز	ojiz
عَاصِي	osiy	عَادَت	odat

5. O‘zbek tiliga o‘zlashgan ba’zi arabiy so‘zlarda **ayn** harfi so‘z boshida o‘z xususiyatini yo‘qotgan, lekin tarixiy traditsional printsipga ko‘ra ular yozuvda arab tilidagi shaklida yoziladi.

عَصَا	aso	/hassa	عِيد	iyd	hayit
-------	-----	--------	------	-----	-------

Mazkur so‘zlar asrlar davomida o‘z talaffuz xususiyatini yo‘qotib, o‘zbek tilining talaffuz qoidalariga moslashgan.

6. Ayn so‘z ichida yopiq bo‘g‘indan keyin kelsa, keyingi bo‘g‘inni oldingisidan ajratib turadi. Bu xususiyat lotin youviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida tutuq belgisi (‘) bilan ifodalanadi.

بِدْعَت	bid‘at	bid‘at	صِنْعَت	san‘at	san‘at
---------	--------	--------	---------	--------	--------

7. Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi arab tilidan o‘zlashgan ayrim so‘zlarda so‘z oxirida keluvchi ayn harfi talaffuz qilinmaydi va yozilmaydi. Lekin bu so‘zlar eski o‘zbek yozuvida, ya’ni arab grafikasida ifodalanadigan bo‘lsa, **ayn** harfining yozilishi shart.

طالع tole(‘)

تابع tobe(‘)

طمع tam(‘)

واقع voqe(‘)

ع harfi muttasil harf bo‘lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo‘shilish yoki qo‘shilmasligini hisobga olgan holda ular bilan bog‘lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
‘ayn	,	ع	ء	ء	ع

-----ع-----ء-----ء-----ع-----

sham	soat	asal
شمع	ساعت	عسل

Eslatma: tarkibida -at mavhum ot yasovchi qo‘shimchasi bo‘lgan so‘zlar ham o‘zlashma sanaladi, chunki –at qo‘shimchasi arabiy shakl sanalib, faqat arabiy so‘zlardan so‘z yasaydi. Yozuvda “a” unlisi tushib qoladi. Masalan:

سميت قدریت اصلیت اصلیت

Shuningdek, tarkibida –ot arabiy ko‘plik shakli bo‘lgan so‘zlar ham arabiy so‘zlar sanaladi. Masalan:

اخبارات حیوانات کمالات خرابات کرمات

1-topshiriq. **ayn** harfining har bir ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so‘zlarni eski o‘zbek yozuviga o‘giring.

odat, obid, ojiz, or, odil, oqibat, ojiz, obida, olam, oddiy, oraz, olim, oliy, omil, omma, oid;

‘ayb, ‘azim, ‘ajab, ‘arab, ‘ajoyib, ‘adovat, ‘adad, ‘azob, ‘arava, ‘ariza, ‘azador, ‘asab, ‘aruz, ‘azm, ‘adl, ‘adliya, ‘araq, ‘asal, ‘asalari, ‘ajam, ‘adolat, ‘arafa

odil, oshiq, oqibat, olim, olam, oliy, omma, omil, omi, oid, oila;

‘usmon, ‘umr, ‘uzv, ‘uzviy;

‘iroq, ‘iroqi, ‘urf, ‘imorat, ‘irq, ‘inoyat, ‘ibodat, ‘inobat, ‘iborat, ‘idda, ‘ibrat, ‘ishva, ‘ishrat;

na’ra, shu’aro, sha’bon, soat

3- topshiriq. So‘zlarni o‘qing ayn harfining so‘z boshida qaysi tovushni ifodalashiga e’tibor bering va daftaringizga yozing.

عَصَبَ عَطَّارَ عَطَّرَ عَصْرَ عَصِيَانَ عَطَا عَفَّتْ عَنَعْنَهُ
 الْخُصُوصَ عَلِيحِدِهِ عَلَيْهِ السَّلَامَ عِمَارَاتٍ عِلَاجَ عَمَكِ عَمَلِ
 عَمَلِيَّاتٍ عَمُومَ عَنَبِرٍ عِيَالَ عَيْنِكَ عَقْرَبَ عَقِيْقَ عَكْسَ عِلَاقِهِ
 عِلَامَتَ عِلَّامِهِ عِلَامَا عِلْمَ مَعْرِفَتٍ عَلَى كَعْبِهِ عَيْنِكَ عُنْصُرَ
 عُنْوَانَ عَوَامَ عِوَضَ عِيَارَ عَوْدَ عَوْرَتَ عَوَجَ عَهْدَ عَيْبَ عَيْشِ
 عَصْرَ عُنْصُرَ فَاجِعِهِ قُرْعَهُ مَعْرُوفَ مُعْظَمَ مُعْطَّرَ مُعْطَّرَ
 طَلَعْتَ طَمَعَ طَعْمَ مَعْرِفَتٍ مَعَامِلَهُ وَاوَقَعَ تَعْظِيمَ نِعْمَتٍ وَعَظَّ

5- topshiriq. Ayn harfining yozuvdagi xususiyatlariga va yozilishiga e'tibor bering.

اَعْدَادَ مَعْرُوفَ عَزَلْتِ سَاعَتَ مَنَعَ مَعْرَاجَ مَعْذُورَ مَعْدِنَ
 مَهَبَدَ مَعْرَكَةَ مَعَشَرَ مَعْمَارَ مُعَالَجَةَ مُعَاوِنَ مَعْمُورَ نَوْعَ مَانِعَ

6- topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'nosini eslab qoling.

شروع	shuru'	boshlash
مجموع	majmu'	to'plam, kompleks
معشر	ma'shar	yig'in, odamlar jamoasi
عشر	ushr	o'ndan bir
عناصر	anosir	unsurlar
اعداد	e'dod	son-sanoqsiz
معنى	ma'ni	ma'no
معبد	ma'bad	ibodatxona

غ (g'ayn) harfi

Bu harf o'zbek tilidagi *g'oz, g'or, og'ir, tog', bug'* so'zlarida *g'* ovushini ifoda qiladi.

غ harfi muttasil harf bo'lgani uchun har ikkala tomonidan keladigan harflar qo'shilish yoki qo'shilmassligini hisobga olgan holda ular bilan bog'lana oladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
G'ayn	G'	غ	غ	غ	غ

----- غ ----- غ ----- غ ----- غ -----

tog'	g'uncha	g'anim
تاغ	غنچه	غنيم

1-topshiriq. **G'ayn** harfining har bir ko'rinishini to'rt qatordan yozing.

2- topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Tug', dog', yog', ag'o, g'ubor, og'ir, o'g'ul, g'arib, bug'u, g'oyib, dag'al, o'g'ri, tog'a, to'g'ri, rag'bat, tog'ora, g'urbat, bug'doy, dag'dag'a, sog'inch, g'ani.

3- topshiriq. So'zlarni o'qing yozilishiga e'tibor bering va daftaringizga yozing.

تاغ باغ غار غاز ساغ داغ آغيز غاو توغ اوغرى غايه
 غرام غاجير تغا غبار غدار غرايب غرابت غرب غربى
 غرض غره غريب غزات غشت غصه غصب غنچه اغا
 غنى غارت غواص غير قابرغه قايغو قرغه غرض
 غزاوات فتوى قطر فقط قطار قضا قصور قصد رضا قطب

4-topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'qing, qaysi harflar bilan yozilishini yodda tuting.

صفر صفا صبا قصر فصل صرف صورت صلابت
 فصاحت فاصق ضيا ضمير مضمون فرض فضل فضا فيض
 فايض طاوس طاقت طالب سلطان شيطان شرط ظلم ظالم
 مظلوم ظاهر ظريف نظر نظارت اضطراب منظره مناظره
 عوض علم عالم عقل عمارت عطا عرض عروض عرب
 عطر عشق عمر شعر شاعر فعل معرفت جمع نفع حكم
 احكام حاكم محكوم محكمه حكمت محرم حقيقت محنت حرام
 محروم حال احوال ثانى ثابت ثنا ثمر باعث حديث ثانيه

مثقال مثال عثمان مراث وارث بحث وثيقه مثنوى ذات ذاتدار
 ذاكر ذكر ذوق ذكاوت ذيل عذر مذکور مذحب عذاب غذب
 ذهن فطرت فغان فرض فطر عين فيض قُصور قَصَاب قَطِعاً
 قَطَعِي قَطَعَه قَطْرَه قُطِب قُطَار قِصَّه قَصِيدَه قَضَا قَصْد قِطْمِير
 قاضى قُصور طومار طغيان طنبور طبيعت طرف وطن
 مطبوعات فقط خط ظلمت ظالم ظفر مظفر نظر تعظيم وعظ
 الفاظ تلفظ انتظام مناظره

اطاعت اطراف اعتبار اعتراض اعتراف اعتقاد اعزاز اعلا
 اعلان اعلم اعيان افطار اكثر الهام إلهه الهيات الهيم انتقام
 انهار بهيان عيب مشقت تابع تأثير تاثرات تسنا تشبيه تشریف
 تعالى تعبير تعجب تعذير تُعْرَض تعريف تعزیه تعصب تعطل
 تعطم تعقيب تعلق تعليم تعمير تعيين جماعت جمع خم الخم
 جماعه دعوا ذكاوت ذليل ذوق ذهن رذالت ذكى ذكا رذيل
 رزم رسا سعادت صغور صغير جهل ذوق شاعر شعور عطر
 عطار قاعده قُرعه قطره قلعه ماهر مى مذهب مَرَض معارف
 مظلومه مطنن مطلوبات مطلع مطبعه مضمون مصلحت
 مصرع مصر میسر مصدر مشنوم معمور معمار معما معلم
 معقول معظم معطل معطر معصوم معراج معروضه معرفت
 مهذور معده معجون معبوده مقصد معقول وارث

4- topshiriq. maqollarni o'qing va daftaringizga yozing.

قىزنى عاشيغىغه بير
 تاپكان تاماغين ياغلار
 كيچكى ايكىننى حطرى بار
 صبر قيلسانك غوره دين حلوا بيتار
 سوزنى ايتكىل اوق قانغه جان نى جان غه سوق قانغه
 ايكى كيمه توتقتانلار قالدى غرق اب ايچينده
 قوچقار بولور قوزينى پيشانه سى دونگ بولور
 آغا بولور يگيتتى ايتاك ينگى كينگ بولور

خَيْر ايشيگا دَلالت قىلغوجى ثواب كا شريك

(Gulxaniy "Zarbul masal"dan)

5-topshiriq. Quyidagi maqollarni eski o'zbek yozuviga o'giring.

Bitar ishni boshig'a yaxshilar kelur qoshig'a

Teng tengi bilan tezak qofi bilan

Ato so'rab netarsan erni o'zi bo'lg'on so'ng

Osh degan erga quruq kalla yugurubdur

Osh egasi bilan totlig'

Arzon kira shahardin ovora qilur (Gulxaniy "Zarbul masal"dan)

6-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarning ma'nosini eslab qoling.

مغرب	Mag'rib	G'arb
اغا	ag'o (og'a)	og'a, do'st, birodar
غنى	g'ani	boy, badavlat
غارت	g'orat	vayronlik, buzg'unlik
غدار	g'addor	berahim, zolim; makkor
غنى	g'ani	Boy
غیر	g'ayr	begona, yot; raqib
قُرْعَه	qur'a	chek, fol, faraz
قريب	Qarib	yaqin kishi, qarindosh

7-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga transliteratsiya qiling va so'zlarni to'liq harakatlantiring.

1. Odil, ma'naviyat, ta'limot, ma'lumot, taomil, muolaja, faoliyat, oqibat, uqubat, istiora, alomat, ka'ba, oliy, olim, soat, asal, ma'raka, aks, in'om, illat.

2. Ta'rif, arsh, e'lon, iborat, aql, muammo, obid, maorif, ma'lum, jur'at, ajoyib, ma'muriyat, ahd, taalluq, amal, umumiy, Iroq, oshiq, ma'shuq, aloqa.

3. UZR , me'roj, me'mor, a'lo, odat, ma'rifat, ma'ruf, sha'bon, inoyat, arab, majmu', man', umr, oila, ana'na, ma'dan, iste'mol, va'da, odil, muallim.

4. Aziza, saodat, maosh, izzat, ta'ziya, uzlat, abbos, adolat, e'tibor, taajjub,

5. Mo'tabar, ta'mir, ne'mat, e'tiqod, ishq, ma'no, oqil, e'tirof, alloma, ulamo.

8-topshiriq. hikoyatni o'qing.

حکایت

بر کون بر پادشاه شه داده برله شکارغه باریب ایردی وقتیکه هوا قیزیدی و آفتاب آسمان نینگ میانه سیغه کیلدی پادشاه برله شه داده جامه لارینی بر مسخره بازنی کتفیغه قویدیلار پادشاه کولدی و ایدی ای مسخره باز سنگا بیر ایشاک نینگ یوکی بولوبدور مسخره باز ایدی ای پادشاه انداغ ایماس بلکه ایکی ایشاک نینگ یوکی بولوبدور

حکایت

بر پادشاه وزیر برله خرما یر ایردی تخمینی وزیر نینگ آدیغه تاشلار ایردی خرمانی یب بولغانیدین سونگ وزیرغه ایدی سن کوب یغوچی کیشی ایکانسن کیم خرما نینگ تخمی سنینگ آدینکده آنچه توپلانیب قالیبودور وزیر ایدی انداغ ایرماس بلکه حضرت پادشاه کوب یغوچی ایرکانلار زیراکه نه تخمینی قویوبدورلار نه خرمانی

حکایت

بر پادشاه بر مسخره بازدین رنجیده بولوب فیل نینگ ایاقی نینگ آستیغه تاشلاماقغه بویوردی مسخره باز شو رو فغان قویاردی و ایدیکه ای پادشاه من بیچاره فیل نینگ ایاقی نینگ آستیغه لایق ایماس من منی صَعوه نینگ ایاقی نینگ آستیغه تاشلاغیل و وزیرنی فیل نینگ ایاقی نینگ آستیغه تاشلاغیل زیراکه وزیر سیمیزدور

انینگ استخوانلاری فیل نینگ ایاقی نینگ آستیده
 یانچیلماغوسیدور پادشاه وزیرغه قراب تَبَسْم قیلدی و
 ایدیکه اول نیمه دیدور وزیر عرض قیلدیکه از برای
 خدا بو حرامزاده نینگ گناهیینی باغیشلاغیل یوقسه منی
 هم هلاکت قه تاشلاغای پادشاه غه مسخره باز نینگ و
 وزیر نینگ شفاعت قیل غانی پسند بولوب مسخره باز نینگ
 گناهیینی باغیشلادی و خَلَعَتِ شاهانه بیردی

Savol va topshiriqlar

1. Ayn va g'ayn harflari shakldoshligina ko'ra alifbodagi o'rni belgilang.
2. Yot harflar sirasiga kiruvchi ayn va o'zbek tili talaffuzida mavjud bo'lgan g'ayn harflari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
3. Ayn harfi vazifalarini tushuntiring. Imlosiga izoh bering.
4. Ayn harfining xususiyatlari deyarli arab tiliga xos nima uchun harfning eski o'zbek yozuvida saqlanib qolgan?
5. Tarkibida ayn va g'ayn harflari ishtirok etgan so'zlarga qanday baho berish mumkin?

20-mavzu RAQAMLAR

Raqamlar - arab. رقم – son, nomer)—sonlar ifodalanadigan shartli belgilar. Eng qadimda sonlar so'zlar orqali ifodalangan. Xalqlarning ijtimoiy-xo'jalik hayoti rivojlanishi bilan mukammalroq belgilarga va hisoblash sistemalarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Eng qadimgi raqamlar bobilliklar va misrliklarga mansubdir. Misr ieroglif raqamlarida (mil. av 3000-2500 yilda paydo bo'lgan) sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm-belgilar, keyinroq ieratik va demotik yozuvlari paydo bo'ldi.

Bobil raqamlari (mil. av. 2000 yil boshi) asosan 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari bo'lib, boshqa barcha raqamalar shular asosida ifodalangan. Misr ieratik yozuvidan YAqin va O'rta Sharqdagi barcha yozuvlar va Yunon-Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqamlar kelib chiqdi. Bosma yunon alifbosi slavyan-kirillitsa va harfiy raqamlarga asos soldi.

Hozirgi raqamlarning timsollari (nol bilan birgalikda) Hindistonda 5-asrga yaqin yuzaga kelgan. Bungacha Hindistonda kharoshti raqamlari va u bilan deyarli bir vaqtda brahmi raqamlari bo'lgan. Brahmi raqamlaridan hind gvalior raqamlari kelib chiqdi. Gvalior raqamlari esa arab raqamlariga asos solgan.

Arab raqamlari ikki turli sharqiy va g'arbiy (g'ubor) raqamlardan iborat. Sharqiy arab raqamlari Misr va undan sharqdagi arab mamlakatlari, Eron hamda Afg'onistonda qo'llaniladi. G'arbiy arab raqamlari (g'ubor) esa Misrdan

g'arbdagi arab mamlakatlarida qo'llaniladi. Evropada 9-asrdan boshlab g'ubor raqamlari tarqaladi va tezda ommalashadi. Sharq mamlakatlarida esa g'ubor raqamlari 19-asrgacha ham keng tarqalmadi.

Qadimgi raqamlardan faqat Rim raqamlari hozirgacha qo'llanadi
Hozirgi zamon raqamlarining evolyutsiya jadvali.

Sonlarning zamonaviy ko'rinishi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
Biraxmi	—	=	≡	𐤎	𐤏	𐤐	𐤑	𐤒	𐤓	
Gvalkor	𐌁	𐌂	𐌃	𐌄	𐌅	𐌆	𐌇	𐌈	𐌉	𐌐
TSifri vostochnix arabov	1	𐌒	𐌓	𐌔	𐌕	𐌖	𐌗	𐌘	𐌙	⋅
Gubor	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Rukopis 976 goda (Evropa)	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	
Rukopis nachalo XII veka	1	𐌒	𐌓	𐌔	𐌕	𐌖	𐌗	𐌘	𐌙	0
Skrobosko asarining qo'lyozmasi (1442)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
A.Dyurer raqamlari (1525)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Vidamaning bosma asaridagi raqamlar (1489)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0

Arab raqamlari – o'nta matematik belgi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Bu raqamlar bilan istalgan katta yoki kichik sonni yozish mumkin. Arab raqamlarining ishlatilishida mashhur o'zbek matematigi Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiyning muhim hissasi bor.

Arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilishguncha yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VI-asrdan boshlab arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo'llanilgan. Muhammad Xorazmiy Hindistonda kashf etilgan o'n raqamdan iborat pozitsion sistemani o'rganadi, soddalashtiradi, kengaytiradi va birinchi marta arab tilida bayon etadi. Xorazmiy «Arifmetika»si bilan birga bu hind raqamlari arab Sharqiga kirib keladi. Xorazmiyning bu asari arabchadan lotinchaga tarjima qilinib, X-asrda Ispaniyaga, XII-asrda Evropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi va hanuzgacha jahonda mazkur raqamlar arab raqamlari nomi bilan yuritiladi. Arab raqamlarini jahonga tarqatgan Muhammad Xorazmiy ekanligi haqida Abu Rayhon Beruniy o'zining «Hindiston» asarida aytib o'tgan.

Eski o'zbek yozuvida hozir arab raqamlari deb atalayotgan (aslida hind raqamlari bo'lsa ham, ommaga arab raqamlari nomi bilan singib qolgan) raqamlardan foydalanilgan. Bu raqamlarning ba'zi shakllari hamda ko'plikni ifoda etish tartibi hozirgi yozuvimiz raqamlari va uning tartibidan katta farq qilmaydi.

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa, sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni yozish lozimdir. Masalan:

1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar			11 dan 20 gacha bo'lgan sonlar		
۱	بیر	bir	۱۱	اون بیر	o'n bir
۲	ایکی	ikki	۱۲	اون ایکی	o'n ikki
۳	اۋچ	uch	۱۳	اون اۋچ	o'n uch
۴	تورت	to'rt	۱۴	اون تورت	o'n to'rt
۵	بیش	besht	۱۵	اون بیش	o'n besh
۶	آلتی	olti	۱۶	اون آلتی	o'n olti
۷	ییتتی	etti	۱۷	اون ییتتی	o'n etti
۸	ساککیز	sakkiz	۱۸	اون ساککیز	o'n sakkiz
۹	توققیز	to'qqiz	۱۹	اون توققیز	o'n to'qqiz
۱۰	اون	o'n	۲۰	ییگیرما	yigirma
O'nliklar			Yuzliklar		
۱۰	اون	o'n	۱۰۰	یوز	yuz
۲۰	ییگیرما	yigirma	۲۰۰	ایکی یوز	ikki yuz
۳۰	اوتتیز	o'ttiz	۳۰۰	اۋچ یوز	uch yuz
۴۰	قیرق	qirq	۴۰۰	تورت یوز	to'rt yuz
۵۰	ایلیک	ellik	۵۰۰	بیش یوز	besh yuz
۶۰	آتمیش	oltmish	۶۰۰	آلتی یوز	olti yuz
۷۰	ییتمیش	etmish	۷۰۰	ییتتی یوز	etti yuz
۸۰	ساکسان	sakson	۸۰۰	ساککیز یوز	sakkiz yuz
۹۰	توقسان	to'qson	۹۰۰	توققیز یوز	to'qqiz yuz
۱۰۰	یوز	yuz	۱۰۰۰	مینگ	ming

Yozuvda sonlar so'zlar va raqamlar bilan ifoda etilishi mumkin. Harflar bilan yozilgan sonlar o'ngdan chapga qarab yozib boriladi va o'qiladi. Masalan:

تینگری تعالی نینگ عنایتی بیلان و حضرت آن سرور
کائنات نینگ شفاعتی بیلان و چهار یار با صفالاری نینگ
همتی بیرلان سه شنبه کونی رمضان آیینینگ بیشیدا تاریخ

ساككيز يوز توقسان توققوزدا فرغانه ولايتى دا اون ايكي
ياشتا پادشاه بولدوم (ظهريد الدين محمد بابور "بابورنامه دان")

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni keltirish bilan ifoda qilinadi. Masalan:

1997 tarzidagi raqamlar xuddi shunday, ya'ni ۱۹۹۷ tarzida yoziladi. Hozirgi o'zbek tilida 2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlari tarkibidagi o'rtada kelgan undosh ikkilanadi: *ikki, etti, sakkiz, to'qqiz, o'ttiz, ellik* kabi. Eski o'zbek tilida esa yozuvda bir belgi bilan berilgan bo'lib, o'rniga qarab, ikki xil talaffuz qilingan: *iki//ikki, yeti//yetti, sekiz//sekkiz, toquz//toqquz, otuz//ottuz, elik//ellik* kabi.

80-90 sonlari *sekiz, toquz* sonlariga *on* (o'n) sonining qo'shilishi yo'li bilan hosil bo'lib, (*sekiz+on, toquz+on*), *seksen, toqsan* shakllari keyingi davrlarda vujudga kelgan. *Sekiz on, to'quz on* shakllari «Devonu lug'otit turk»da ham ko'rsatilgan (Qarang: MK, I tom, 410-b.).

Eski o'zbek tilida sanoq sonlarning kattalari *tuman* (تومان), *lak* (لك) bo'lib, oldida kichik miqdordagi sonlar qo'llangan. *Lak* «Boburnoma» asari tiliga xos: *Uch to'rt lak olub qo'yarlar* (BN, 332). *Bir lak afg'on yig'ilibdur* (BN, 468). *Tuman* so'zi esa barcha ijodkorlar asarlari tilida qo'langan: *Bir tuman xalq qirildi bari* (ShN, 37). *Yuz tuman barqi balo urdung manga* (Nav. LT, 83).

Eski o'zbek tilida murakkab sanoq sonlar komponentlari orasida *dag'i//taqi* bog'lovchi bo'lishi hollari ham uchraydi. Masalan, *Yigirmi dag'i bir* (ShN, 223). *Yilg'a ming sakkiz yuz-u, to'qson edi* (Furqat, 2, 26).

1-topshiriq. Birlik va o'nlik sonlarni arab raqamlari bilan yozing.

2-topshiriq. 1, 5, 8, 9, 12, 16, 17, 23, 24, 26, 29, 31, 35, 38, 83, 97, 98 sonlarini arab raqamiga va yozuviga o'giring.

3-topshiriq. Namunaga muvofiq murakkab sonlarga 10 ta misol yozing.

Namuna: ۱۹۸۷-1987 - bir ming توققiz يوز ساكسان ييتتى

4-topshiriq. Parchani o'qing, sonlarning yozilishi va o'qilishiga diqqat qiling. Qaysi asardan olinganligini aniqlang.

... قورغانينينگ شرق جنوبى جانبيدا بير موزون تاغ
توشوبتور براكوه غا موسوم بو تاغنينگ قله سيدا سلطان
محمودخان بير حجره ساليبتور اول حجره دين قويراق اوشبو
تاغنينگ تومشوغيذا تاريخ توقوز يوز ايكيذا مين بير ايوانليق
حجره سالديم اگرچه اول حجره موندين مرتفع دور

... خبردا كيلميش قوشلوق آشيغا تورت يوز قانگلي يانا
ايميشلار ييتتى يوز قانگلي اون خرج بولور ايردى تاقى
ايميشلار تال ييغاچلار ييغيب سبد توقوب كيليم كيب سبد
ساتار ايردى ياريم بهاسين صدقه قيلور ايردى ياريم بهاسى
غا ارپا ايتماك نى آليب يبيور ايردى

5-topshiriq. Hikoyatni o'qing.

حكايت

بر كون بر قارچيغاي بر خروس قه ايديكه سن
كوب بيوفادورسن زيراكه آدم لار سنى باقارلار و
سنينگ اوچون اوى قيلورلار و هر زمانده سنى توتار
بولسه لار نه اوچون قاچارسن و من اگر چنديكه دشت
نينگ قوشى دورمن و لكين بر نيچه كونلاركيم
آدميزادلار قوليدين طعمه يغوديك بولسام الار اوچون
شكار قيلورمن و هرچند يراق بولسام هم وقتيكه قچقير
يلغوديك بولسام ينه يانيب كيلغايمن خروس جواب
بيرديكه گاها برار پره نده نى سيخده كورغان مودورسن
و من كوب خروس لار نينگ كباب نينگ سيخده و
تولا خروس لارنى اوت اوزه سيده كباب قيليغليق
كوركاندورمن سنهم اگر پرنده نى سيخده كورور بولسانگ
كوب يراق بولور ايردينگ قارچيغاي جواب سوزلامادى

Savol va topshiriqlar

1. Raqamlarning qo'llanish tarixi haqida gapirib bering.
2. Hozirgi o'zbek tilida raqamlarning necha turi amal qiladi?
3. Arab raqamlari deb yuritiluvchi sonlarga izoh bering.
4. Arab raqamlari deb yuritiluvchi sonlar aslida qaysi xalqqa tegishli?
5. Arab raqamlarining jahonga yoyilishida kimning hissasi beqiyos?
6. O'rta asrlarda arab raqamlarining muomalaga keng kirishini Beruniy qaysi olim nomi bilan bog'laydi?
7. Arab raqamlari deb nomlanuvchi zamonaviy harflari va hozirgi sof arab raqamlari o'rtasidagi umumiyliklarni sanang.

21-22-mavzu

Forsiy izofa

Fors tilida izofa aniqlanmish bilan aniqlovchi o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi **i** tovushiga izofa deyiladi. Izofa arabcha so'z bo'lib, **qo'shish, orttirish** degan ma'nolarni anglatadi.

Hozirgi zamon o'zbek tilida ham ko'plab izofali birikmalar uchraydi. Masalan: *dard-i bedavo, dard-i sar, tarjima-i hol, nuqta-i nazar...*

Ammo klassik adabiy tilimizda izofali birikma jonli grammatik birikma sifatida keng tarqalgan edi. Klassik adabiy tilimizda yozilgan yodgorliklarni, badiiy asarlarni o'qib, tushunib olish uchun boshqa bir qator talablar bilan birga fors-tojik izofasini ham jonli grammatik shakl sifatida bilib olish kerak bo'ladi.

Fors-tojik izofasini o'rganishning bir qator murakkablik tomonlari bor. Bular quyidagilar:

1) Izofali birikma tarkibidagi so'zlarning tartibi o'zbek tilidagidek emas. Bunday birikmada aniqlanmish oldin keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. O'zbek tilida avval aniqlovchi, so'ngra aniqlanmish keladi. Masalan:

dard-i bedavo

nuqta-i nazar

davosiz dard

nazar nuqtasi

2) Eski o'zbek yozuvida aksariyat hollarda fors izofasi aks ettirilmaydi, ya'ni izofa yozuvda ko'pincha biror bir belgi bilan ko'rsatilmaydi.

Masalan, *oshiq-i zor* birikmasi arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvida **عاشق زار** tarzida yoziladi. Bu misolda *oshiq* vaz *zor* so'zlari o'zaro birikib izofali birikma hosil qilgan. Izofa ko'rsatkichi bo'lgan **i** esa yozuvda ko'rsatilmagan. Lekin yozuvda ko'rsatilmasa-da o'qilishi shart.

Aniqlanmish qanday tovush bilan tugallanganligiga qarab, izofa bir necha fonetik holatlarga ega bo'ladi:

a) Agarda aniqlanmish undosh harflardan biriga tugallangan bo'lsa izofa **zir** belgisi bilan ifodalanadi va **i** tarzida talaffuz etiladi. Fors tilida esa –e tarzida talaffuz etiladi. **Zir** belgisi yozuvda tushib qoladi, lekin har doim talaffuzda saqlanadi.

برادر عزیز	birodari aziz	aziz do'st
درد سر	dardi sar	bosh og'rig'i
عاشق زار	oshiqi zor	zor (bo'lgan) oshiq
درد بیدوا	dardi bedavo	davosiz dard

b) agarda aniqlanmish **a** unli tovushi bilan tugallangan bo'lsa, izofa **ء** **hamza** belgisi orqali ifoda etilib, **i** tarzida talaffuz qilinadi. **Hamza** belgisi yozuvda tushub qoladi.

والدۀ محترمہ	volidai muhtarama	muhtaram ona
ترجمۀ حال	tarjimai hol	tarjimai hol
نقٹہ نظر	nuqtai nazar	nazar nuqtasi
آیینہ جہان	oynai jahon	jahonning oynasi

v) Agarda aniqlanmish **o, u** unli tovushlaridan biriga tugallangan bo'lsa, izofa **ى** -yo harfi orqali ifoda etilib, **i** tarzida talaffuz qilinadi.

روی زمین	ruyi zamin	er yuzi
آشنای مهربان	oshnoi mehribon	mehribon o'rtoq
صدای تاشکند	sadoi Toshkand	Toshkent ovozi
بوی گل	bo'yi gul	gul hidi (ifori)

1- topshiriq. Eski o'zbek tilida faol qo'llangan izofiy birikmalarni arab gafikasiga o'giring.

Xoki poyi, savdoyi xam (Lutfiy), duri Omman, la'li badaxshon (Javhariy), porai nong'a (Navoiy), obi hayvon (Lutfiy), bulbuli gulshan (Qambar o'g'li), g'unchayi xandon (Xorazmiy), bulbuli bo'ston (Xorazmiy), mahi tobon (S.Ahmad), ravzai rizvon, g'unchai xandon, ayyori turkiston, safhai gul, Masalan: **chashmai hayvon** – tiriklik bulog'i, **obi hayot** – tiriklik suvi (Atoiy 74-b.), **tubiyi jannat**, **fitnai davr**, **bandai hajr**, **nargisi shahlo** (Atoiy 75-b.)

2-topshiriq. Atoiyning "manga" radifli g'azalini eski o'zbek yozuviga o'giring. Izofiy birikmalarning imlosiga e'tibor bering.

Ey g'amu darding hamisha rohatu darmon manga.

Ostoning xoki **rohi chayshmai hayvon** manga.

Iydi akbardur muborak **umri jovidon** bilan,

Gar qoshing yosi uchun bo'lg'il desang qurbon manga.

Ishtiyoqing bahrida **g'arqob** bo'ldum, rahm qil,

Ey **buti chin**, **qavli yolg'on**, **ahdi bepoyon** manga.

Bo'lg'ay erdi Yusufim hajring azobinda shafi'.

Holi zorimni ko'rub **payg'ambari Kan'on** manga.

Parvarish qildim ko'ngulni bir o'zumga yor deb,

Bevafo xo'blarni sevdi, bo'ldi **xasmi jon** manga.

Zulfungiz zanjiriniing devonasiman to abad,
Bermasun ko'p **dardi sar** bu **aqli sargardon** manga.

Men Atoyimen labing vasfidinkim, tahsin o'qur,
Ruhi Shirin bila Xisrav, balki Hindiston manga.

3-topshiriq. Atoiy asarlarida qo'llangan izofa shakllarini eski o'zbek yozuviga o'giring. Izofa shakllarining ma'nosiga e'tibor bering.

Shopuri zu-l-Aktof - Shopur qilichlar sohibi¹

sultoni sohibqiron – sohibqiron² sulton

mehri xovariy – sharq yulduzi

bayi javidoniy – abadiy yashash, adabiylik

gadozodai xiradmand – gadoning aqli o'g'li

podshohi suxandon – suxandon shoh.

devonai siyohro'y – siyohro'y devona yoki sharmanda bo'lgan devona.

gavhari yaxto – bebaho gavhar

durri yakto³ – tengi yo'q dur

xasoyili pispndida – maqtovga loyiq

Chashmai sabz navohiysi – Chashmai sabz tumani (tuman nomi)

Bog'i safid - oq bog'

podshohi islompanoh – islom himoyachisi bo'lgan podshoh

dalili beshitiboh – shubhasiz dalil

giriftori beqayd – qo'l-oyog'i bog'langan

andalibi nag'masaro – nag'machi bulbullar

kulohi davlat – davlat do'ppisi (bosh kiyimi)

barqi havodis – hodisalar chaqmog'i

zanjiri irodat – niyatlar zanjiri

daryoyi rahmat – rahmat daryosi

Izofiy zanjir

Klassik manbalarda fors tili sintaksisiga xos konstruktsiyalar tez-tez uchraydi. Yuqorida oddiy – ikki so'zdan iborat birikmalarning izofa yo'li bilan bog'langan turlari bilan tanishdik. Izofa yo'li bilan bog'langan so'z birikmalarining murakkab turi fors tilshunosligida izofiy zanjir nomi bilan yuritiladi. Demak, izofiy zanjir deganda birdan ortiq ismlarning aniqlovchi va aniqlanmish munosabatiga ko'ra o'zaro ketma-ket bog'lanishi tushuniladi. Ismlarning bunday bog'lanishi o'zbek tili sintaksisida so'z birikmasi zanjiri deb yuritiladi. Ushbu murakkab birikmaga shoir Atoyining g'azallaridan olingan quyidagi birikmalar misol bo'la oladi.

¹ Тарихий китоблардан маълум бўлишича, Шорур ушбу лақабни кўрлаб арабларнинг елкасига қилич санчиб ўлдирганлиги учун олган

² Соҳибқирон – бахтли; **соҳиб қирон** – бирикма шаклида бўлиб, изофа йўли билан боғланган – маъноси -, **яқинлик соҳиб**

³ Бунда якто санок сони сифат ўрнида қўлланиб, танҳо, тенги йўқ, бебаҳо маъноларини ифодалаган

izhori kasri nafs – nafs balosi izhori
maxzani ulumi shar'iyi – idiniy ilmlarning xazinasini
mahrani rozi nihoni – yashirin sirlarning ishtirokchisi
g'avvosi doirai bahri yaqin – yaqinlik dengizi g'avvosi
g'ariqi daryoyi rahmat – rahmat daryosiga cho'kkan

3-topshiriq. Berilgan izofiy birikmalarni arab yozuviga o'giring.

Sarv-i noz, shom-i hijron, oshiq-i beqaror, mardo'm-i Farg'ona, ofat-i jon, go'sha-i junun, afsona-i hijron, nuqta-i nazar, ohu-i biyobon, ruy-i zibo, ahl-i ilm, lab-i xandon, may-i nob, sado-i Turkiston, sharh-i hol, kuy-i dil, abri navbahor, ahl-i din, fasl-i zimiston, luqma-i shirin, bo'y-i gul, balo-i nafs, shab-i yaldo, orom-i jon, parda-i nihon, xok-i aziz, bog'-i eram, banda-i nochor, hosil-i umr.

4-topshiriq. Hikoyatni o'qing.

حكايت

ايكى كيشى ماللاريني بير قرى كمپيرغه تابشورديلار و ايديلار هر وقت كيم بيز ايكيميز كيلور بولساق آلغايميز نيچه كونلاردين سونگ اولكيشيدين بيرى كمپيرنينگ آديغه كيلدى و ايدى منينگ شريكيم اولدى ايمدى مالنى منگا بير غايسن كمپير ناچار بولوب مالنى انگا بيردى نيچه كوندين سونگ ينه بيرى كيلدى و مالنى تيلادى كمپير ايدىكه شريكينگ كيليب ايردى سانى اولدى ديدى من هرچند مبالغه قيلديم و حُجَّتِ مشروعه كيلتوردوم ليكن سوزومنى انكلامادى و همه مالنى آيب كيتى مذكور كيشى كمپيرنى قاضينينك آديغه ايلتيب عدالت تيلادى قاضى تولا تاملدين سونگ بيلديكه كمپيرنى گناه دور و اول كيشيغه ايدى سن اول شرط قيليب ايركانسن كيم هر وقت ايكيميز آلغايميز و سن شريكينكى كيلتورغيل و مالنى اندين آغيل نچوك يلغوز بويرغه كيلدينگ اول كيشى جواب ايتالمسدين اوز يوليغه كيتى

Savol va topshiriqlar

1. Izofa deganda nimani tushunasiz?
2. Izofaviy birikuv qaysi tillarga xos?
3. Izofiy zanjir nima, murakkab birikma nima?

4. Izofiy birikmalari tarkibidagi soʻzlar qaysi soʻz turkumlaridan iborat boʻlishi talab etiladi?
5. Klassik mantlarda forsiy sintaktik shakllar (forsiy izofa)ni qoʻllashdan maqsad nima?
6. Forsiy izofa shakllarining imlosi haqida gapiring.

23-24-mavzu
ALIF MAQSURA VA VOFI ZOIDA
Alifi maqsura

Oʻzbek tiliga arab tilidan oʻtgan soʻzlar shakliy yozuv qoidasiga qoʻra arab tilida qanday yozilsa, oʻzbek manbalarida ham shunday yozilgan. YA'ni soʻz oxirida yoy harfi i, e tovushini emas, o tovushini ifodalaydi va «**alifi maqsura**» deb yuritiladi. Masalan:

موسى	Muso	حتى	hatto
تقوى	taqvo	دعوى	da'vo
عيسى	Iso	مصطفى	Mustafo
يحيى	YAhyo	فتوى	fatvo

Vofi zoida

Fors tilidan oʻzbek tiliga kirib kelgan bir guruh soʻzlar turkumida و harfi yozilsa ham, talaffuzda tushib qoladi. Ularning barchasida و harfidan soʻng **alif** ا harfi yoziladi. Masalan:

خوارزم	xorazm	Xorazm
خواب	xob	uyqu
استخوان	ustixon	suyak
خواننده	xonanda	xonanda, qoʻshiq kuylovchi
خوان	xon	oʻquvchi, oʻkiyotgan, kuylayotgan
غزالخوان	gʻazalxon	gʻazalxon, gʻazal oʻquvchi
خوشخوان	xushxon	yoqimli kuylovchi
درخواست	darxost	talab, soʻrov
خواهلاماق	xohlamoq	xohlamoq
خواجه	xoja	xoʻja, ega, xoʻjayin

خواهش	xohish	xohish, istak
خوانش	xonish	kuy, ashula
خواهن	xohan	xohlovchi, xohlayotgan
نيكخواه	nikxoh	yaxshilik tilovchi
خوشخواه	xushxoh	yaxshilik tilovchi
خوابگاه	xobgoh	uxlash xonasi
دلخواه	dilxoh	ko'ngil ochuvchi

Eslatma: ayrim so'zlarda **vov** و harfidan so'ng **alif** ا yozilmay, **yo** ی harfi yoziladi va talaffuzda **h** tovushidan keyin **i** deb o'qiladi. Masalan:

خويش **xish** qarindosh-urug', yaqinlar

1-topshiriq. Ushbu baytlardagi **vov** و yozilib o'qilmaydigan so'zlarni toping.

آرزو قیلدیم وفا اهلین کورای دیب تاپمادیم
خواه زاهد خواه فاسق خواه سایل خواه شاه.

ای نوایی یارا یارا بولسا کونگلینگ یخشیدور
کیم ترددسیز آلیشقای لار انی دلخواه لار.

2-topshiriq. Ushbu hikoyatni o'qing va ko'chirib yozing.

حکایت

بر کیشی تولا مالنی بر صرّافغه تابشوروب شهرغه کیتی یانیب
کیلغاچ مالنی تیلاب ایردی صراف انکار قیلدی و منگا بیرماب
ایردینگ دیب قسم یاد قیلدی اول کیشی قاضینینگ آدیغه
باریب احوالینی سوزلادی قاضی تعامل قیلدی و ایدی برار
کیشیغه سوزلاماگیل کیم فلان صراف منینگ مالیمنی بیرمایدور
دیب و سنینگ مالینگ اوچون بر تدبیر قیلغایمن ایرته سی
قاضی اول صرافنی ایندادی و ایدی منینگ باشیمغه بر مشکل
توشوبدور تنها قیلغالی قدرتیم یوقتور سنی اوز اورنومغه نائب

قىلماقنى خواھلايمىن زىراكە سن دىانتلى كىشىدورسن صراف قبول قىلدى و خرسند بولدى اويغە جوناغاچ قاضى اول كىشىغە ايدى ايمدى مالينگنى صرافدين تىلاغيل البتە بيرغو سيدور مذکور كىشى صرافنينگ آديغە باردى صرافنى كورغاچ ايدى كيلغىل خوش كيليب سن سنينگ مالينگنى اونوتقان ايركانمن بو كيچه ياديمغە توشتى القصة اول كىشىنينگ مالينى بيردى و نايبلىق آميدده قاضيبنگ آديغە باريب ايردى قاضى ايدى بوكون من پادشاهنينگ آديغە باريب ايرديم انگلاديمكه سнга بر اولوغ ايشنى تاپشورماقنى خواھلايدور خداغه شكر قيلغىل اولوغ مرتبه تابغونگدور ايمدى اورنومغه نايبلىقه اوزگا كىشىنى ايستاغايمن القصة قاضى بو حيله برله رخصت بيردى.

Savol va topshiriqlar

1. Manbalarda forsiy qaysi grammatik shakllar qo'llangan?
2. Vovi zoida va alifi maqsura grammatik xususiyatmi yoki imloviy?
3. Vovi zoida deganda nimani tushunish lozim?
4. Alifi maqsura deganda nimani tushunish lozim?
5. Eski o'zbek yozuvida forsiy vovi zoida va alifi maqsuraning imloda aynan bersak, qaysi yozuvga amal qilgan bo'lamiz?

25-26-mavzu

QAMARIY VA SHAMSIY HARFLAR

Arab alifbosidagi harflar ikki yirik guruhga ajratiladi. Birinchi guruh harflari hurf-ul qamar **حروف القمرى (oy harflari)** va ikkinchi guruh harflari huruf-ush shams **حروف الشمسى (quyosh harflari)** deb ataladi.

huruf-ush shams harflari: **حروف الشمسى**

ت	ث	د	ذ	ر	ز	س
ش	ص	ض	ط	ظ	ل	ن

Qolgan harflar esa **حروف القمرى** hurf-ul qamar deyiladi.

ا	ب	ج	خ	ح	ع	غ
ف	ق	ك	م	و	ه	ى

Harflarning bu tarzda ikkiga ajratilishi arabiy soʻz birikmalarini, aniqrogʻi, arab izofasi yoʻli bilan bogʻlangan sintaktik birliklarni toʻgʻri oʻqish va toʻgʻri yozish imkonini beradi.

ARAB IZOFASI

Arab izofasidagi soʻzlarning tartibi ham xuddi fors-tojik tilidagi singaridir, yaʼni arab tilida ham aniqlanmish avval keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. Eski adabiy tilimizda arab izofali birikmalari forscha birikmalariga qaraganda ancha kam. Arab izofasining koʻrsatkichi **-ul** dir. Bu koʻrsatkich hamma vaqt yozuvda oʻz aksini topadi, lekin talaffuzda hamma vaqt ham **ul** tarzida oʻqilavermaydi. U baʼzan talaffuzda fonetik oʻzgarishga uchraydi.

Aniqlovchi soʻzining birinchi harfi (tovushi) izofaning **l** harfini oʻziga singdirib olmasa, bunday harflar **huruf-ul-qamariya** (oy harflari) deyiladi. *Mahbub-ul-qulub* birikmasida **q** tovushini ifoda etuvchi **qof** harfi oy harfi boʻlganligi uchun izofa koʻrsatkichi **ul** assimlyatsiyaga uchramagan.

1. Agar aniqlovchining birinchi harfi (tovushi)

غ	ع	ح	خ	ج	ب	ا
ى	ه	و	م	ك	ق	ف

harflaridan biri bilan boshlangan boʻlsa, **ul** izofa koʻrsatkichi aniq talaffuz etiladi. Masalan: *zarb-ul masal* ضرب المثل izofiy birikmasidagi *masal* soʻzining birinchi tovushi **m** boʻlganligi uchun izofa **ul** tarzida aniq talaffuz qilinishi kerak.

2. Izofali birikmada izofa koʻrsatkichi boʻlgan **ul** tovushini oʻziga singdirgan harflar **hurufush-shamsiya** (quyosh harflari) deb ataladi.

Agar aniqlovchi soʻzning birinchi harfi (tovushi) bilan boshlansa,

ت	ث	د	ذ	ر	ز	س
ش	ص	ض	ط	ظ	ل	ن

ul izofasining oxiridagi **l** tovushi aniqlovchi soʻzning birinchi tovushiga singadi, yaʼni assimlyatsiya hodisasi roʻy beradi. Masalan: *lison-al tayr* (qush tili)

لسان الطير birikmasi yozilgan, lekin *lison-ut tayr* deb oʻqish kerak.

Agar **al** aniqlik artiklidan keyin kelgan soʻzning birinchi harfi

الشمسى حروفhoʻruf-ush shams «quyosh harflari» guruhsidagi harflardan biri bilan boshlansa, **al** artiklidagi **l** lom talaffuz etilmay, undan keyingi harf tashdid bilan oʻqiladi.

نصر الدين Nasr-al-din

Nasriddin

لغت الترك lugʻat-al-turk

turkcha lugʻat

al aniqlik artikli atiq otlar oldida ham kelishi mumkin. Agar **al** artiklidan keyin kelgan soʻz «oy harflari» حروف القمرى hoʻruf-ul

qamari guruhsidagi harflarning biri bilan boshlansa, **ال** **al** artikli qo‘shilib kelgan so‘zning tugallangan tovushiga ko‘ra **ul** yoki **al** birikmalari tarzida talaffuz qilinadi.

الخوارزمي **al-xorazmi** Xorazmiy

ال **al** aniqlik artikli ustiga yozuvda **وصلة** **vasla** belgisi qo‘yiladi. Aksariyat hollarda **vasla** belgisi tushib qoladi va alifning o‘zi yozilib, **وصلة** **vasla** borligiga ishora qiladi.

السلام **as-salom** salom
البيروني **al-Beruni** Beruniy
دار الفنون **dor-ul-funun** universitet

1-topshiriq. Quyidagi birikmalarni ko‘chirib yozing va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rganing.

ضرب المثل **Zarb-ul-masal**
میزان الاوزان **Mezon-ul-avzon**
عبد الله **Abd-ul-loh**
فخر الدين **Faxr-al-din**
شيخ الاسلام **Shayx-ul islom**

2-topshiriq. Berilgan Atoiy baytlarida qo‘llangan arabiy izofa shakllaridan namunalarni arab yozuviga o‘giring.

Ey soching sha‘ninda nozil oyati “**hablul varid**”,
Davlati husnung uchun jon dardidur “**hal min mazid**”.
Ey mudarris, men qarodin oqni farq aylamon,
Lavhashulloh Bog‘i Zog‘on, habbazo Bog‘i Safed

3-topshiriq. Hikoyatlarni o‘qing.

حکایت

بر پادشاه توشیده کوردیکه همه تیشلاری توشوب کیتیبدور
بر منجمدین ایننگ تعبیرینی سوردی منجم ایدیکه پادشاهنینگ
اولاد و قریندشلاری پادشاهدین ایلکاری اولغایلار پادشاه
درخشم بولوب منجمنی بندغه سالدوردی و ینه بر منجمنی
ایندادی و اول منجمدین توشینینگ تعبیرینی سورادی منجم

عرض قیلدیکه پادشاه همه اولاد و قرینداشلاریدین اوزون
پشاغایلار پادشاه بو جوانی منظور قیلدی و انگا انعام بیردی

حکایت

بر کیشی بر اولوغ مرتبه غه مینیب ایردی ایننگ بر
دوستی مبارکبادلیق قیلماقلیق اوجون آلدیغه باردی اول کیشی
سوردیکه سن کیمدورسن دوستی شرمنده بولدی و ایدی منی
تانسو سن کیم من قدیمغی دوستینگدورمن و تعزیت اوچون
کیلیبدورمن زیراکه کور بولغان ایمیش سن دیب ایشیتیب ایردیم

حکایت

بر کیشی بر طوطینی باقتی و انگا فارسی تیلینی اورگاتی
هرچند سعی قیلدی اول طوطی در این چه شکدین اوزگا کلیمه نی
اورگانمادی اول کیشی هر نمیرسه نی سورسه ایننگ جوابیده
در این چه شک دیر ایردی مذکور طوطینی ساتماق اوچون
بازارغه ایلتی انگا ایکی یوز روپیه بها قویولدی بر مغل
طوطیدین سوردیکه سن ایکی یوز روپیه غه لایق مودورسن
طوطی ایدی درینچه شک مغل کوب خرسند بولدی و طوطینی ایکی
یوز روپیه غه آلیب اویعه ایلندی اول مغل هر نمرسه نی کیم سورسه
طوطی در این چه شک دیر ایردی مغل طوطینی انداغ کوردی اوز
کونکلیده شرمنده و پشیمان بولدی و ایدی نیمه احماقلیق قیلیب ایرکان
من کیم مونداغ طوطینی آغان ایرکانمن طوطی ایدی در این چه
شک مغنی کولگو آلدی و طوطینی آزاد قیلدی

Savol va topshiriqlar

1. Izofa nima?
2. Arabiy izofa turi haqida gapirib bering.
3. Klassik mantlarda arabiy sintaktik shakllarni qo'llashdan maqsad nima?
4. Arabiy izofa shakllarining imlosi va o'qilishi haqida gapiring.
5. Arabiy izofaning to'g'ri o'qishda qaysi omillarga e'tibor qaratish lozim?
6. Arab alifbosidagi shamsiy va qamariy harflarning izofiy birikmalarni o'qishdagi ahamiyati haqida gapirib bering.

7. Hozirgi o'zbek tilida arabiy izofali birikmalar bormi? Misollar keltiring.

27-mavzu

Arab izofasi ishtirokidagi matnlarni o'qish

1- topshiriq. Berilgan izofiy birikmalarni arab yozuviga o'giring.

Dor-ul ilm, Muhokamat-ul lug'atayn, Qissas-ul anbiyo, tolib-ul ilm, G'aroib-us sig'ar, Navodir-ush shabob, lison-ul arab, Majolis-un nafois, dor-ul fnun, nazm-ul javohir, Muntahab-ul lug'at, malik-ul kalom, rohat-ul qulub, Mantiq-ut tayr, Muntahab-ut tavorix, Mizon-ul avzon.

2-topshiriq. Berilgan jummalarni ko'chirib yozing. Jummalarda ishtirok etgan izofiy birikmalarni aniqlang va ularning imlo qoidalarini tushuntiring.

3-topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'qing vasla belgisini tegishli o'rinlarga qo'yib ko'chiring.

4-topshiriq. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan olingan matnni o'qing.

حَقْشَنَاسَلِك

حَقْشَنَاسَلِك ديب بر كَشِينِيْنِگ قِيلِگَان يَآخْشِيلِگِيْنِي اُونُوْتَمَاسَلِكْنِي ايتلور بوتون عالمده گي انسانلار حَقْشَنَاسَلِك و دوستلک آرقاسيده ياشارلار قرص ايكي قولدن چقار شريعته يَآخْشِيلِك قِيلِگَان كَشِيْگِه يَآخْشِيلِك قِيلِمَك و اجبدور حكاملار يامانلک قیلغان كَشِيْگِه هم يَآخْشِيلِك قِيلِمَك لازمدور ديرلار حاصل يَآخْشِيلِكْدِن ضرر كورگان باشي يارلگان كشي يوقدور يَآخْشِيلِكْدِن دوستلک ميهربانلک توغار ايكي كونگل آراسيده اُلفت و محبت چوققلاری يوگوريشور قوووشولار بو دوستلکني جمال و کمالی حَقْشَنَاسَلِكْدورْکِه براودن كورگان يَآخْشِيلِكْنِي اُونُوْتَمَای شونینگ برابرگه بز هم اوز وظفمیزنی ادا قيلمک لازم ايکان خيچ بولمسه تقدير قيلمک ايله برادرلک و دوستلک حرمتيني ادا قلماغمز لازيمدور. چونکي مؤمين برادری مؤميندور.

دلدن دل اوزره آچيله دور ايكي خيل يولى
مهري مهر يولى آچيلور کينه کين يولى

معلوماتدور که هر بر ملتني ترقی و تعالیسی اوز ملتیکه جان مال
قلم ایله ایشلاگن کشیلارنینگ خضمتلارینی تقدیر قیلوب وظفه لار
هیكلار قلملار ایله یاد قیلوب اوتوب کیتگان بهادر عالم و
شاعرلارینی روحلارینی شاد قیلوب ایسلاوچی کشیلارنینگ غیرت و
جسارتلارنی زیاده قیلماکده ایکان افسوس بزلاز تقدیر قیلماک بر
طرفده ترسون تقدیر مسخره حتی تکفیر قیلماک ایله قارشو آلورمز.

یاخشی اشدور خقنی تقدیر ایلامک هر خضمتده

خقشناس اولماک خقیقی بر قوتدور ملته

خقشناس اولماکله مشهور ایردیالار پیغمبرم

توغری یولنی تاشلامک اصلا یاقشماش اُمته

28-mavzu

Yil hisobi

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki yil hisobi misrliklarga taalluqlidir. Mamlakatda yuz berib turadigan qurg'oqchiliklar misrliklarni qattiq qayg'uga solgan. Ular Nil daryosining suvini bekorga isrof bo'lib dengizga oqib ketmasligining chora-tadbirlarini izlaganlar. Nihoyat Misr kohinlari 21 yoki 22 iyun – yoz kechasining eng qisqa kuni sahar paytida koinotda Sirius yorug' yulduzining paydo bo'lishini va buning natijasida Nil daryosining tosha boshlashini aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Siriusning bu yildan keyingi yilga qadar paydo bo'ladigan kunlari 365 kun ekanini hisoblab, uni o'ttiz kundan iborat o'n ikki bo'lakka bo'lganlar, qolgan besh kunini yil oxiriga qo'shimcha ilova qilganlar. Shunday bo'lsa ham yulduzning namoyon bo'lishi har to'rt yilda bir sutkaga kechikkan. Ular kunlarni yana qayta boshdan hisoblab chiqib bir yil 365 kun, olti soatga teng, degan xulosaga kelganlar. Lekin taqvimni o'zgartirmay o'z xolicha qoldirganlar. Bu tuzatishni oradan ancha vaqt o'tgach (meloddan avval 46-yilda) Rim imperatori Yuliy TSezar amalga oshirdi. Bunda bir oy o'ttiz, ikkinchi oy o'ttiz bir, faqat bir oy – fevral yigirma sakkiz kun qilib olindi. Ana shu qisqa oy – fevralga to'rt yilda bir marta bir kundan qo'shiladigan va shu yil kabisa (orttirilgan) yili deb ataladigan bo'ldi. Bu tuzatish natijasida bir yil 365 kun, olti soat emas, balki 365 kun besh soat, qirq sakkiz daqiqa, o'n to'rt soniyadan iborat bo'lib, bu farq to'rt yuz yilda uch kecha kunduzni tashkil qiladi va taqvimni orqada qolishiga sabab bo'ladi.

1582 yili Rim papasi Grigoriy XIII tomonidan taqvimga yana yangi tuzatish kiritildi. Evropa mamlakatlari asta-sekin shu taqvimga o'ta boshladilar. Faqat Rossiyagina Yuliy taqvimidan istifoda etishda davom etdi. 1918 yilga kelganda Yuliy va Grigoriy taqvimi orasidagi farq o'n uch kunga etgan edi. Maslahat bilan ana shu o'n uch kun tashlab yuboriladigan bo'ldi va 1918 yilning o'ttiz birinchi yanvaridan keyin bira to'la 14 fevralga o'tishga

qaror qilindi. Qarangki, yangi taqvim ham unchalik aniq emas ekan. Daqiqa va soniyalar yig'ilib uch ming uch yuzinchi yildan keyin bir sutkaga etar ekan. Hozirda olimlarimiz yanada aniqroq va mukammalroq taqvim yaratish yo'lida izlanyaptilar. Biz hozirda foydalanayotganimiz taqvim ana shu tariqa yuzaga kelgan.

Melodiy yili

Melodiy yil hisobining boshlanishi Iso payg'ambarning tavalludi bilan bog'liq. Shu sabab isaviya, xristianlik yil hisobi deb yuritiladi. Xristianlik tarqala boshlagan ilk davrda bir qancha yil hisoblari mavjud edi va ulardagi har xillik tufayli turli noqulayliklar tug'ilgan. Buni bartaraf etish uchun yangi yil hisobi tuzishga ehtiyoj sezildi. Manbalarda keltirilishicha VI asrda Rim monaxi Dionskiy hech bir dalil-hujjatsiz Iso payg'ambarning tavalludini bundan besh yuz yil oldin sodir bo'lgan deya, e'lon qilgan va shundan yil hisobi yuritishni taklif etgan. XVIII-XIX asrgacha Evropadagi ko'pgina davlatlar melodiy yil hisobini qabul qilganlar. Rossiya Pyotr I ning farmoni bilan 1700 yil birinchi yanvardan boshlab melodiy yil hisobiga o'tgan. O'rta Osiyoda bu ish XIX asrning II yarmidan amalga oshirilgan.

Melodiy yili planetamizning Quyosh atrofida bir yil aylanish davri 365, 25 kecha-kunduz hisobidan olingan. Ortiqcha 0,25 kecha-kunduz hisobiga esa har to'rt yilda fevral oyiga bir kun qo'shib yigirma to'qqiz kun hisoblangan. O'sha yili, yuqorida ham aytib o'tganimizdek, 366 kunga teng bo'lib kabisa yili deb atalgan.

Hijriy yil hisobi

Hijriy yili musulmonlar yili bo'lib, 622 melodiy yilidan, ya'ni Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga hijrat qilgan davridan boshlanadi. Hijriy yili ikki xil yil hisobiga ega. **Birinchisi – hijriy qamariy yil** hisobi bo'lib, oyning er atrofida aylanish davri 29,5 kecha-kunduz hisobidan olingan. Hijriy yil hisobi ham o'n ikki oydan iborat bo'lib, olti oyi yigirma to'qqiz, olti oyi o'ttiz kundan iborat bo'ladi. Bir yil 354 kunni tashkil qiladi. Kabisa yilida o'n ikkinchi oy o'ttiz kun qilib olinadi va buy il 355 kunni tashkil qiladi.

Ikkinchisi – hijriy shamsiy yilidir. Bu yil hisobi erning quyosh atrofini bir marta to'liq aylanib chiqish davriga asoslangan. Shu sabab hisob quyosh kunlari asosida olib boriladi va bir yil 365 (366) kunga teng bo'ladi. Faqat bir oy yigirma sakkiz kundan iborat bo'ladi. Har to'rt yilda bu oyga bir kun qo'shilib, yuqorida aytib o'tganimizdek, yigirma to'qqiz kun tashkil qilinadi va shu yili kabisa yili hisoblanib 366 kundan iborat bo'ladi.

Hijriy qamariy yili hijriy shamsiy yilidan har yili 11 kun ortda qolib boradi. Shu sababli hijriy qamariy yilida yil boshi – muharram oyi doim ham bir vaqtga to'g'ri kelavermaydi. Hijriy qamariy yili o'ttiz uch yilda bir davrani aylanib chiqib yana bir vaqtga to'g'ri keladi. Uning o'ttiz uch yili hijriy shamsiyning o'ttiz ikki yiliga teng bo'ladi.

Bundan tashqari hijriy yilda har o'ttiz yil ichida o'n bir kun tuzatish kiritiladi. YA'ni, taqvimiy oy hisobi oyning haqiqiy davridan daqiqa va soniyalar

hisobiga ortda qolib boradiki, bular yig'ilib o'ttiz yilda o'n bir kunga etadi. Bu farqni yo'qotish maqsadida arablar har o'ttiz yilda o'n bir sutka qo'shib o'ttiz yilning o'n to'qqiz yilini 354 kun, o'n bir yilini 355 kun qilib hisoblaydilar. Shunda har o'ttiz yilning 2, 5, 7, 10, 13, 16, 18, 21, 24, 26, 29-yillari kabisa, ya'ni orttirilgan yillar bo'lib 365 kundan iborat bo'ladi. Odatda, kabisa yiliin aniklash uchun uni o'ttizga bo'lish kerak. Qolgan qoldiq yuqorida sanab o'tilgan sanalardan biriga to'g'ri kelsa shu yil kabisa yili bo'ladi. Masalan, 1423 yilning qanday yil ekanini tekshirib ko'rish uchun uni o'ttizga bo'lamiz, $1423:30=47$ bo'ladi va o'n uch qoldiq qoladi. O'n uch yuqoridagi sanalar ichida mavjud. Demak, 1423 yili kabisa yili ekan.

Hijriy - qamariy yil oylari

Qo'lyozma kitoblarning xotima qismiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda nafaqat asarning yozib tugallangan yili, balki qaysi oy va qaysi sanada tamomlanganini ham aniq ko'rsatilganining guvohi bo'lamiz. Demak, tarixiy dalillarni aniq, to'g'ri anglashimiz uchun hijriy yil oylari nomlari bilan ham yaxshi tanish bo'lishimiz kerak bo'ladi. Misol sifatida Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonining xotimasi ta'rixini keltiramiz:

Garchi ta'rix erdi sekiz yuz,
 Sekson o'tmish edi, yana to'quz.
 Oyi oning jumodius-soniy,
 Panjshanba yozildi unvoni.

Misralardan ma'lum bo'lishicha, doston hijriy 889 (melodiy 1484) yilning jumadius-soniy oyi, payshanba kuni yozib tugatilgan ekan.

Ko'rinadiki, hijriy yil hisobi oylarini bilish zamon talabi bilan bog'liq.

Hijriy qamariy yil oylari o'n ikki oydan iborat bo'lib, yigirma to'qqiz va o'ttiz kundan tashkil topgan:

Hijriy, qamariy oylarining kirilcha yozilishi	Kuni	حجرى قمرى يىل آيلارى	№
Muharram	30	محرم	1.
Safar	29	صفر	2.
Rabiul-avval	30	ربيع ال اول	3.
Rabiul-oxir	29	ربيع ال آخر	4.
Jumodiul-avval	30	جمادى ال اول	5.
Jumodiul-oxir	29	جمادى ال آخر	6.
Rajab	30	رجب	7.
Sha'bon	29	شعبان	8.
Ramazon	30	رمضان	9.

Shavvol	29	شوال	10
Zul-qa'da	30	ذوالقعدة	11
Zul-hijja	29-30	ذوالحجه	12

Hijriy - shamsiy yil oylari

Hijriy shamsiy yil oylari 622-yilning yigirma birinchi martidan, ya'ni kecha va kunduzning uzunligi barobar bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi. Yil davomiyligi huddi Grigoriy takvimidagi singari 365 yoki 366 kundan iborat bo'ladi. Bu hisob quyoshning davriyligiga asoslangani uchun oylar doimo yilning ma'lum bir vaqtida keladi:

Oylarning boshlanish sanalari	Kunlar	حجرى شمسى يىل آيلارى	№
21 mart – 20 aprel	31	حمل	1.
21 aprel – 21 may	31	سور	2.
22 may – 20 iyun	31	جوزا	3.
21 iyun – 22 iyul	31	سرطان	4.
23 iyul – 22 avgust	31	اسد	5.
23 avgust – 22 sentyabr	31	سنبله	6.
23 sentyabr – 22 oktyabr	31	ميزان	7.
23 oktyabr – 21 noyabr	30	عقرب	8.
22 noyabr – 21 dekabr	30	قوس	9.
22 dekabr – 20 yanvar	30	جدى	10
21 yanvar – 19 fevral	30	دلو	11
20 fevral – 20 mart	29-30	هوت	12

1-topshiriq. Hijriy qamariy va hijriy shamsiy yili oylarini daftaringizga ko'chirib yozing, arab imlosida yozilishiga diqqat qiling va yod oling.

Hijriy va melodiy yillarining birini ikkinchisiga aylantirish usuli

Hijriy yilini melodiyga aylantirish uchun hijriy yilni o'ttiz uchga (o'ttiz uch soni hijriy va melodiy yillarining bir-biriga to'g'ri kelish davri) bo'linadi. Chiqqan bo'linmani yana hijriy yildan ayiriladi. Hosil bo'lgan ayirma soniga 622

(Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga qilgan hijrat yili) qo'shiladi. Chiqqan natija melodiy yilidir. Masalan, 1425 yilni melodiyga aylantirish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim bo'ladi:

- 1) $1425:33=43$
- 2) $1425-43=1382$
- 3) $1382+622=2004$

Demak, hijriy 1425 yili melodiy 2004 yilga to'g'ri kelar ekan.

Melodiy yilni hijriy yilga aylantirish uchun melodiy yilidan 622 ni ayiramiz. Chiqqan ayirmani 32 ga bo'lamiz. So'ng har ikki amal natijalari qo'shiladi:

- 1) $1873-622=1251$
- 2) $1251:32=39$
- 3) $1251+39=\text{hijriy } 1290$.

Bu sana chorizm bosqinchilarining Xiva xonligiga bostirib kirgan yilidir (hijriyda).

Izoh: Bo'lish paytida qolgan qoldiq o'n ettidan katta bo'lsa, uni butunlab bir deb olamiz va hosil bo'lgan bo'linmaga qo'shamiz.

Melodiy yilini hijriy shamsiy yiliga aylantirish uchun melodiy yilidan 622 ni ayirish kerak. Chiqqan natija hijriy shamsiy yilini bildiradi. Masalan:

$$1998-622=1376$$

Demak, melodiy 1998 yili 1376 hijriy shamsiy yiliga teng ekan.

Hijriy shamsiy yilini melodiy yiliga aylantirish uchun esa aksincha amal qilinadi.

$$1367+622=1989 \text{ yoki } 1382+622=2004$$

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, yirik davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tug'ilgan kunining 550 yillik munosabati bilan Afg'oniston Islom Respublikasining poytaxti Kobul shahrida hijriy shamsiy 1369 yilning 21-22 dalv oyida xalqaro ilmiy simpozium bo'lib o'tdi. Biz bu sanani melodiy yilga o'girsak, 1991 yil 9-10 fevral kunlariga to'g'ri keladi.

1-topshiriq. 890, 213, 909, 767 yillarini melodiy yiliga aylantiring.

2- Topshiriq. 1501, 1850, 1939, 2004 yillarni hijriy yiliga aylantiring. O'zingizning va oila a'zolaringizning tavallud topgan yillarini hijriy yiliga aylantiring.

3- Topshiriq. Ogahiyning "Zubatut tavorix" asari 1274/1957-58 yilda kitobat qilingandan so'ng turli xattotlar tomonidan turli davrlarda ko'chirilgan. Quyida berilgan qo'lyozma nusxalarini ko'chirilgan sanalarini melodiy yilga o'giring.

1. Mullo Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon nusxasi hijriy 1289 yilda ko'chirilgan.
2. Mullo Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devonning ikkinchi qo'lyozma nusxasi hijriy 1322 yilda ko'chirilgan.
3. Mullo Xudoybergan Xivaqiy ibn Muhammadnazar nusxasi 1328 yilda ko'chirilgan.

4-topshiriq. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan olingan matnni o'qing.

قناعت

قناعت ديب جناب حق طرفيدن احسان بولگان احوالگه يتوشدو غيميز نعمت و مالگه شکر باشيميزگه كيلگان فقر مصيبت فلاکتلارگه چداب صبر قيلماقنى ايتيلور قناعت حسد طمع حرص خوارلک کبی علتلارنينگ دواسی نفسيمزيننگ غناسيدور

قناعت بر خزینادورکه نقدینه سی کونندن کون آرتار بو خزیناگه ایگه بولگان کشیلار عمرلارینی شوق و راحتدا کیچیرورلار بونینگ ایله برابر قناعتسزلکدن پیدا بولادورگان حسد دیگان جاننینگ اینگ زور دشمنیدن قوتولورلار چن انسانلار کشینینگ مالنه ملکنه سعادتته معیشتته حسد قيلماس قناعتدن آیریلمس عمرینی راحتده اوتکارور انسان هر بر ایشگه کوچی يتیگونچه چالشمق جناب حق تقدیرده گی نرسه سیدن نیمه نی بیرسه شونگه قناعت قيلماق لازمدور زیراکه انسان اوز معیشتینی ناموسینی ساقلامک اوچون فدای جان درجه سیگه بارگونچه سعی قيلماقغه بویوریلیمیشدور لکین بو سعی نینگ مشروعی هر بر ایشده قناعتنی قولدن بیرماسلکدور عالمده قناعت کبی دلنی پاکلایدورگان نرسه یوقدور جناب حقنینگ امریگه اطاعت قاندای سعادت ایسه تاقدیریگه قناعت زیاده بختیارلکدور حضرت علی افندیمز دنیاده سعی جدلی ایله معیشت اوتگارگان قناعت ایگاسی هچ کمغه محتاج بولماگان زور بایلار کبی راحتده سعادتته یاشار دیمیشلار افلاطن حکیم انسانینک سعادتنی قناعتینی قولده توتماکده ثروت و معیشت توغریسیده جناب حقنینگ تقدیرگه راضی بولماکده دور دیمیشلار

حقانیت

حقانیت دیب ایشده توغرلیک سوزده راستلکنی ایتلور انسان بوستان سلامتگه گلزار سعادتگه حقانیت یولی ایله چقار انسانیت نینگ ایلدیزی اولان رحمدلک حقشناسلک عادلک کبی اینگ یاخشی صفتلارنینگ آناسی حقانیت دور جناب حق نینگ شو نام مبارکینی مقدس بلگان کشی هیچ وقت حقانیتدن ایریلماس چونکه حقانیت نوری قایسی دله جلوه گر اولسه جناب حق نینگ توفیقی ربانیسی شو دله نشوه نما قیلور عقل ایگالاری وجدان صاحبلاری هر وقت کورگان قیلگان و بیلگانلارینی حقیقتنی و توغریسینی سوزلار ایشده توغرلیک بیراونینک نفصیگه مالیکه خیانت قیلماو سوزده توغرلیک هر وقت راست سوزلاماقدور

راستلیغ حقنی رضاسینی تاپار

توغری یولده یوق بولور مو هیچ چاپار

بزیم شرعت اسلامییه ده اگر بر کشینینگ حقیگه بهتان قیلینوب قیلماگان ایشنی قیلدی دیب سوز سویلانسه بیلگان کیشی راستینی سوزلاب شول کیشینی آقلاماک واجبدور رسول اکرم نبی محترم صلی الله و سلم افندیمیز النجات فی الصّدق نجات راستلیکده دور دیمیشلار حضرت مولانا رومی اسلامیت عین حقیقتدور حقنی قبول قیلوچیلار حقوقی شرعییه نی سقلاماقغه بویورولمیشدور لار چونکه شرعت حکملارینینک اینک اساسیسی ایلدیز حقاییدان ابارتدور دیمیشلار

حقشناسلیک اولماق شرافتدور جهانده آدمه

حقنی اظهار ایلاماک بیرلا کوروک ویر عالمه

یاراشور انسانه صدقو توغرلیک گر کورسه گریه

توغرینینک یاردامچیسیدور حق تعالی غم بیمه

توغریلارنینک مسکنی فردوس ایوانیده دور

ایگریلار ایکی جهانده هم الم کانیده دور

Savol va topshiriqlar

1. Qachondan boshlab melodiy yil amalga kiritilgan?
2. Melodiy yil hisobi nimaga asoslanadi?
3. Hijriy yil nima?
4. Hijriy shamsiy yil hisobi nima asoslanadi?
5. Hijriy shamiy yil oylarini ketma ketlik asosida aytib bering.
6. Hijriy qamariy yil hisobi nimaga asoslanadi?
7. Hijriy qamariy yil oylarini ketma ketlik asosida aytib bering.

29-mavzu

Muchal va burj

Muchal yil hisobi

Ajdodlarimiz arab istilosiga qadar o'zlarining yil hisobiga ega bo'lishgan. Muchal hisobiga asoslangan hisob ana shunday yil hisoblaridan biridir. Bu hisob turi uzoq davrlardan beri turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbek, qozoq, uyg'ur, xitoy, turkman hamda mo'g'ul xalqlari o'rtasida qo'llanib yozma manbalarda, hujjatlarda, turli voqealarning sanasini (ta'rixini) aniqlashda, yohud qayd etishda istifoda etib kelingan. Qadimiy qo'lyozma yodgorliklarning xotimasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda asarning yozilib tugallangan ta'rixi hijriy yili bilan berilishi barobar muchal hisobida ham ko'rsatib o'tilganining guvohi bo'lamiz:

تمت الكتاب بعون ال ملك الوهاب كاتب كتاب ملا خواجه
نیاز ابن شباد صوفی خوارزمی فی سنه ۱۳۲۵ قوی بیلی
ماه رمضان نینک ۲۶ چی سی دا اتمام سرحدیکا یتتی

Xotimadan ma'lum bo'lishicha, qo'lyozma Xorazmda kotib Mulla Xo'janioz ibn Shabad so'fi Xorazmiy tomonidan hijriy 1325 (melodiy 1907) qo'y yili ramazon oyning 26-sida ko'chirib tugatilgan.

Muchal borasidagi dastlabki ma'lumotlar Beruniyning «Osorul-boqiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» va boshqa manbalar orqali bizgacha etib kelgan. Ulardan ma'lum bo'lishicha, turklar o'n ikki yilni o'n ikki hayvon nomi bilan ataganlar va insonning tug'ilishi, vafoti, jang tarixlari va boshqa muhim hodisa, voqealarning sodir bo'lgan yilini aniqlashda ana shu yillarning aylanishiga suyananlar.

Muchal yili hisobi tartibi:

1. Sichqon. 2. Ud (sigir). 3. Bars (yo'lbars). 4. Tovushqon (quyon). 5. Nak (timsoh). 6. Yilon (ilon). 7. Yo'nd (ot). 8. Qo'y. 9. Bijin (maymun). 10. Taqag'u (tovuq). 11. It. 12. To'ng'iz.

Muchal yili 21 martdan boshlanadi. Kishining qaysi muchal yilida tavallud topganini hisoblab topish uchun uning tug'ilgan yiliga to'qqiz raqami qo'shiladi, hosil bo'lgan son o'n ikkiga bo'linadi, qolgan qoldiq muchal yili hisoblanadi. Masalan, biron kimsa 1980 yili tug'ilgan bo'lsa, uning muchal yili quyidagicha aniqlanadi:

1. $1980+9=1989$

2. $1989:12=165$

Qolgan qoldiq soni 9. Demak, u kishi bijin, ya'ni maymun yilda tug'ilgan ekan.

Yilning muchalini aniqlashning yana bir usuli mavjud. Buning uchun muchali aniqlamoqchi bo'lgan yildan to'rt sonini ayirib, so'ng o'n ikkiga bo'lish lozim. Qolgan qoldiqqa bir raqami qo'shilsa muchal yili chiqadi. Maslan, 1976 yilning qaysi muchalga to'g'ri kelishini aniqlash uchun:

1. $1976-4=1972$

2. $1972:12=164$

4 qoldiq qoladi. Unga bir raqamini qo'shsak besh bo'ladi. Demak, 1976 yilning muchali «nak» - «timsoh» (baliq) ekan.

Muchal yili hisobi haqidagi ma'lumotlar turkiy yozma manbalarning deyarli barcha davrlarida uchraydi. Bu hisob turi qadimgi turkiy manbalarda ham mavjud. Jumladan, Kul tegin katta bitiktoshida shunday satrlar mavjud: Tyrkymə budunıma yəgin ancha qazg'anıp aqaḡ(ım q)ag'an **it yil onunch ay altı otuzqa ucha bardı...**

Muchal yili hisobi so'nggi davr yozma manbalarda ham te-tez uchraydi. Jumladan, Ogahiyning tarixiy asarlarida bu hisob turi keng qo'llangan va, albatta, muchal yili nomlari hijriy yil oylari bilan birga qo'llanib, tarixiy voqealarning sanasi yanada aniqroq ifodalanishiga erishilgan. Masalan, "Donish ahlining xotiri xatirlarig'a ma'lum bo'lsunkim, bu nusxai muxtasar ta'lifi hazrat zillullohiy g'ufronpanohiyning vafoti malomatsamotidin o'ttiz besh kun so'ng, **sanai hijriy ming ikki yuz olmish ikkida yilon yili rabe'u-l-avval oyining to'rtida, dushanba kuni** ixtimom topdi." Ogahiy Rahimqulixonning tavallud sanasi to'g'risida quyidagicha ma'lumot beradi: "...ul hazratning valodati lozimu-sh-sharofati jaddi burugvori sultoni firdavsmakon Muhammad Rahim Bahodirxonning ayyomi **xo'jastafarjomida sanai hijriya ming ikki yuz yigirma to'qquzda, muvofiqi it yili** afzali avqotda, kamoli sootda vuqu' topib, inoyati subhoniy rahbarligi bila adam masakanidin vujud gulshanig'a qadamovar bo'ldi...

Quyidagi jadvalda muchal yilining amaldagi yillarga mosligi berilgan.

1.	Sichqon (mush)	1924	1936	1948	1960	1972	1984	1996	2008
2.	Sigir (baqar)	1925	1937	1949	1961	1973	1985	1997	2009
3.	Yo'lbars (palang)	1926	1938	1950	1962	1974	1986	1998	2010
4.	Quyvon (xargo'sht)	1927	1939	1951	1963	1975	1987	1999	2011
5.	Baliq (nahang)	1928	1940	1952	1964	1976	1988	2000	2012
6.	Ilon (mur)	1929	1941	1953	1965	1977	1989	2001	2013
7.	Ot (asp)	1930	1942	1954	1966	1978	1990	2002	2014
8.	Qo'y (go'sfand)	1931	1943	1955	1967	1979	1991	2003	2015
9.	Maymun (hamduna)	1932	1944	1956	1968	1980	1992	2004	2016
10.	Tovuq (murg')	1933	1945	1957	1969	1981	1993	2005	2017
11.	It (sak)	1934	1946	1958	1970	1982	1994	2006	2018
12.	To'ng'iz (xo'k)	1935	1947	1959	1971	1983	1995	2007	2019

Burj

«Burj» soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, «yasanmoq», «bezanmoq» degan maʼnolarni anglatadi. Ilimi falakiyotda quyoshning yillik harakati doirasidagi oʻn ikki toʻp yulduz nomini bildiradi. Burj nomlari quyidagilardan iborat:

1. Hamal. 2. Savr. 3. Javzo. 4. Saraton. 5. Asad. 6. Sunbula. 7. Mezon. 8. Aqrab. 9. Qavs. 10. Jadiy. 11. Dalv. 12. Hut.

Etti sayyora – Oy, Utorid, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhallar mana shu burjlarni turli vaqtlarda bosib oʻtadilar. Chunonchi, quyosh bir yil davomida, oy esa bir oy ichida mazkur oʻn ikki burjni bosib oʻtadilar.

Manbalardan maʼlum boʻlishicha, turkiy xalqlardagi oylarning nomlari ham burjlardan olingan. Masalan:

Bahor fasli «burji obiy» deb atalgan va oʻz ichiga hamal (21 martdan), «savr» (21 apreldan), javzo (21 maydan) oylarini olgan.

Yoz fasli – «burji noriy» deb atalib, saraton (21 iyundan), asad (21 iyuldan), sunbula (21 avgustdan) oylaridan iborat boʻlgan.

Kuz fasli – «burji bodiy» deb yuritilgan va oʻz ichiga mezon (21 sentyabrdan), aqrab (21 oktyabrdan), qavs (21 noyabrdan) oylarini olgan.

Qish fasli – «burji hokiy» nomi ostida jadiy (21 dekabrda), dalv (21 yanvardan), hut (21 fevralda) oylarini oʻzida mujassam qilgan.

Burjlardan qoʻlyozma asarlarning yozib tugallangan muddatini belgilashda, davlat ahamiyatiga ega boʻlgan muhim hujjatlarning bitilgan yoki tasdiqlangan sanasini, hamda biron muhim hodisa yoxud voqealarning sodir boʻlgan aniq vaqtini belgilashda istifoda etilgan. Shuningdek, badiiy adabiyotda ham burjlarning harakati yoki tavsifidan obrazli tasvir yaratishda muvaffaqiyat bilan foydalanilgan. Misol tariqasida Alisher Navoiyning «Sadi Iskandariy» dostonining muqaddimasini keltirish mumkin. Muqaddima tarkibidagi mavjud naʼtda Muhammad paygʻambarning oʻz argʻumogʻi – buroqi bilan maʼnaviy olamga qilgan sayohati tasvirlanadi. Uning samoviy safari osmoni falakning sakkiz charxi falagi, yaʼni sakkizta yulduz toʻplami va burjlar orqali oʻtadi. Navoiyning yuksak mahorati shundaki, u ana shu sayohat orqali koinot goʻzalliklari, yulduzlar turkumi, burjlar, ularning xususiyatlari, holatlarinin haqqoniy tasvirini ham yaratib oʻquvchining koʻz oldida jonli manzara chizadi. Eng muhimi u oʻz kitobxonini koinot sirlariga oshno qiladi.

Navoiy paygʻambar qadami tekkan har bir falak yoki burjni tasvirlar ekan, ularning masnadrinishin «hokim» lari sifatlariga hayotiy jonli koʻrinishlardan chizgilar beradi. Inson hayotiga xos ayrim koʻrinishlarni ularning harakatlariga moslab goʻzal badiiy tasvirlar yaratadi.

Chunonchi, Muhammad paygʻambarning buroqi ikkinchi falakka qadam qoʻyishi bilan, Utoridning siyohdonu qalami sinadi. Bu maktab koʻrmaganlar (yulduzlar turkumi)ning mashgʻuloti tezlik bilan ilm oʻrganishdan iborat boʻlib qoladi. (Ikkinchi planeta hisoblanmish Utorid sayyorasi afsonalarga asoslanib adabiyotimizda «falak kotibi» yoxud «shoirlar homiysi» deb atalgan). Yoki uchinchi falak sohibasi Zuhra Muhammad paygʻambarni koʻrgach, aytayotgan

qo'shig'ini bas qilib, chalayotgan udini tezlik bilan chodiriga yashiradi va o'rnidan turib yo'l bo'shatadi. (Qadimgi shoirlar «Zuhra» - «Cho'lpon» yulduzini «osmon cholg'uchisi», «sozanda»si deb ataganlar).

Muhammad payg'ambarimiz shu tariqa har bir sayyorani bosib o'tgach, uning safar yo'li endi o'n ikki burj orqali o'tadi: «Hamal» Muhammadek mehribon kishini topgach, Muso (payg'ambar) singari cho'pondan voz kechdi. Osmoni falak esa xudi juvozkash Xo'kiz (savr) singari unga fidoyilik bilan atrofida aylanar edi. «Javzo» («egizaklar», «dupaykar» deb ham yuritiladi) ham uning xizmatiga bel bog'lashib, duosiga qo'l ochib turardi. Falakdagi «boshhoq» donalari jilvalanuvchi gavharni eslatar, gavhar ham emas, yonib, porlab nur sochayotgan yorug' yulduzlar singari edi. Uning oyoq tomonida «Mezon» joylashgan bo'lib, o'z ishini adolat bilan yuritar edi. «Dalv» esa yo'l ustiga qo'yilgan katta xumlarni suv bilan to'ldirish ila ovora, suvi tugasa o'rniga inju sochish niyatida aylanar edi. Sakkiz falak va burjlarni osonlik bilan bosib o'tgan Muhammad o'z arg'umoni bilan osmonning eng yuksak - to'qqizinchi qavati Arshi a'loga kirib boradi. Ma'naviy safar uning Haq bilan uchrashuvi va undan gunohkor bandalarining gunohini o'tishi hamda osoyishtaligini ta'minlashni so'rab olish bilan yakunlanadi.

Ko'rinadiki, Navoiy bu hayratomuz safar tasviri orqali kitobxonni yo'l-yo'lakay osmon jismlarining holati, haqiqat sirlari, sakkiz sayyora va o'n ikki burj bilan tanishtira boradi. Shu bilan birga, ular tasavvurini o'rta asr astronomik bilimlari bilan boyitishdek oliyjanob maqsadni ham amalga oshira borgan.

Adabiyotimizda «Quyosh Asad burjida» degan gap ham bor. Ma'lumki, asad (iyul-avgust) yilning juda issiq davriga to'g'ri keladi. "Sher ustida quyosh chiqishi" (Sherdor madrasasi) tasviri shunga ishora bo'lib, u shon-shavkatni, qudratni bildiradi. Bu Ibn Sinoning hayot yo'liga ishoradir. YA'ni u ilmi bo'lib bu yo'lda baxt topdi, qiyinchiliklarga ham duchor bo'ldi. Oxir oqibat ularni bilim kuchi, ilm qudrati bilan engib shon-shavkatga burkandi.

1- topshiriq. Muchal yili va burj nomlarini arab alifbosida daftaringizga ko'chirib yozing va yod oling.

2- topshiriq. O'zingiz va oila a'zolaringizning muchal yillarini va qaysi burjda tavallud topganliklarini hisoblab aniqlang va daftaringizga ko'chirib yozing.

3- topshiriq. Mazkur xotimani kirill yozuviga o'giring va hijriy yilini melodiy yiliga aylantiring.

تمت الكتاب بعون ال ملك الوهاب سنة ١٢٦٤ برس ييلى شعبان.

4- topshiriq. Sha'bon oyi hijriy qamariy yil hisobining nechanchi oyi hisoblanadi?

5-topshiriq. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan olingan matnni o‘qing.

ياخشى خلق يامان خلق

اخلاق عُلماسى انسانلارنىڭ خىلقلارنىڭ ايكىگە بولمىشلار
اگر نفس تربيت تاپيب ياكشى ايشلارنى قىلورگە عادت قىلسە
ياخشىلىكغە توصيف بولوب ياكشى خلق اگر تربيتسىز اوسوب
يامان ايشلايدورگان بولوب كىتسە يامانلىكغە توصيف بولوب
يامان خلق ديب اتالور

جناب حق انسانلارنىڭ اصل خلقتە استعداد و قابىلىتى
ياخشى ايله يامانى فايده ايله ضررنى اق ايله قارانى
ايبيرادورگان قىلوب يارتمشدر ليكن بو انسانده گى قابىلىتى
كمالگە يىتكورمك تربيه ايله بولادور قوش اوياسنده كورگان
قىلادور انسان جوهر قابولدر. اگر ياكشى تربيه تاپيب بوزوق
خىلقلاردين ساقلانوب گوزل خىلقلارگە عادتلانوب كاتتە بولسە هر
كم قاشيده مقبول بختيار بر انسان بولوب چيقار اگر تربيتسىز
اخلاقى بوزولوب اوسسە الله دين قورقمایدورگان شريعتگە عمل
قىلمایدورگان نصيحتتى قولايگە آلمایدورگان هر خيل بوزوق
ايشلارنى قىلادورگان نادان جاهل بر رسواى عالم بولوب قالور
رسول اكرام نبى محرم افنديمىز ايمانى كامل بولگان كيشيلار
ياخشى خلقى بولورلار سزنىڭ اينگ ياكشىلارنىڭ
خاتونلارىگە ياكشىلىك قىلگانلارنىڭ دوزدور ديمشدار.

خدانىڭ رحمت و فيضى همه انسانگە يكسردور
و ليكن تربيت بر لا يتوشماك شرطى اكبردور
توغوب تاشلاو ايلا بولماس باله بولگاي بلا سيزگە
وجودى تربيت تاپسە بولور اول رهنما سيزگە
تيمورچىنىڭ باله سى تربيت تاپسە بولور عالم
بوزولسە خلقى لقمان اوغلى بولسە بولغوسى ظالم
يامانلارگە قوشولدى نوحىنىڭ اوغلى اولدى بى ايمان
يورودى كَهْف ايتى خوبلار ايله بولدى اتى انسان

Savol va topshiriqlar

1. Muchal hisobi deganda nimani tushunasi?
2. Muchal hisobi tarixi haqida gapirib bering?
3. Muchal hisobi qaysi xalqlarda amalda bo'lgan?
4. Muchalni topish amallari xususida gapiring?
5. Muchal nomlari ketma ketlik asosida aytib bering.
6. Burj nima? Burj nomlari nimadan kelib chiqishini gapirib bering.
7. Burjlarning nomlanishi nimaga bog'liq?

30-31- mavzu

Abjad hisobi

Arab yozuvi o'zining go'zalligi, xushxatligi bilan jahon xalqlarining e'tiborini doimo jalb qilib kelgan. O'tmishda bu yozuv tarixiy yodgorliklar, ulkan inshootlar, osori atiqalar uchun naqsh, bezak vazifasini ham bajargan. Bulardan tashqari uning yana bir muhim vazifasi bor, u ham bo'lsa arab alifbosining raqam, son ma'nosini ifoda etish bilan bog'liqligidir.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, arablar (meloddan 2000 yil ilgari) o'z alifbolarini tuzishda qadimgi yozuvlar bo'lmish finikiya va oromiy yozuvlaridan harflar nomlarini va ular bilan birga har bir harfning raqamiy tengligini ham olganlar. Demak, abjad hisobining tartibi finikiya va oromiy yozuvlaridan kelib chiqqan. Lekin ular alfavitida harflar soni yigirma ikkita bo'lib, to'rt yuzdan keyingi sonlarning ifoda qilinishida oxirgi harf «tav» (arablarda «atun»)ga oldingi harflardan birini qo'shib besh yuzdan minggacha bo'lgan son ifodalarini hosil qilganlar (Masalan: tavqof, tavresh, tavshin kabi). Arablar bu usulni biroz takomillashtirdilar. Ular oltita harf ixtiro qilib «saxaz» va «zazag'» so'zlarini yasadilar. Bu atamalar besh yuzdan minggacha bo'lgan son ifodalarini hosil qilishga yordam berdi. Shu tariqa arablarda yigirma sakkiz harfni o'zida jamlovchi sakkiz atama hosil bo'lgan. Bular quyidagilar:

كلمن	حطى	هوز	ابجد
50 40 30 20	10 9 8	7 6 5	4 3 2 1
ضظغ	ثخذ	قرشت	سعفس
1000 900 800	700 600 500	400 300 200 100	90 80 70 60

Mazkur atamalar muayyan bir ma'noni anglatmaydi, ular harflar mujassami xolos. «Abjad hisobi» ana shu atamalarning birinchisi nomiga qo'yilgan. Harflar vositasida son tushunchasini ifoda etish usuli esa «abjad hisobi» deb atalgan. Bu usul harflar sirasini yod olishda qulay bo'lgani sabab maktablarda maxsus o'qitilgan va abjad o'qiyotgan bolalar «abjadxon» deb atalgan.

Eski o'zbek yozuvidagi forslar va turklar tomonidan keyinchalik kiritilgan to'rt harf - ژ، چ، گ، پ borasida abjad hisobi amalga oshirilayotgan matnda ushbu harflar ishtirok etayotgan bo'lsa hisobda ularning shakldoshlari (ب، ک، ج، ز) dan istifoda etilgan.

Abjadning kelib chiqishi haqida ham qat'iy bir fikr mavjud emas. «Abjadni hukamolar tartib berganlar, hijo harflarining hammasi unda to'plangandir va ma'nisi yashiringandir» yoki «Abjad mashhur kishilar nomidan olingan» qabilidagi farazlar yuradi.

Manbalarda keltirilishicha, arablar qadimda abjad atamalaridan hafta kunlarini nomlashda ham foydalanganlar.

Abjad hisobining ixcham, lo'nda va qulayligi uning she'riyatda ham keng qo'llanishiga sabab bo'ldi. Biron muhim xodisa, voqealarning sodir bo'lgan vaqtini, qo'lyozmalarining yozib tugallangan yilini, mansabdor shaxslarga bag'ishlab yozilgan qasida va tarixlar sanasini berishda sonlar harflar bilan ifodalangan. Bu usul muayyan sanani she'riyatda ixcham holda ifodalashni ta'minlashi barobar, ularni esda tutishni ham osonlashtirgan. O'zbek va sharq she'riyatining asosiy an'analaridan hisoblangan qator she'riy san'atlar asosini ham ana shu abjad hisobi tashkil qilgan. Xatto bu usuldan foydalanib maxsus asarlar yaratilganki, ularning ayrim namunalari bizgacha etib kelgan.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, abjad hisobi musiqa san'atida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan. XV asrda yashab ijod etgan mashhur musiqashunos Zaynobbiddin bin Mahmud al-Husayniy Navoiyning topshirig'i va unga atab yozilgan «Qonuni ilmiy va amali musiqiy» («Musiqaning ilmiy va amaliy asoslari») asarida cholg'u asboblari baland va past tovush hosil bo'lish sabablari, intervallar va ularning nisbiy munosabatlari kabi masalalarni yoritishda abjad usulidan foydalangan.

Abjad hisobidan boxabar bo'lishlikning hozirgi davrda ham ahamiyati katta. Ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan qo'lyozma manbalar bilan shug'ullanadigan har bir shaxsning yozma yodgorliklar yaratilgan yoki nusxa ko'chirilgan yillarini aniq belgilashda hamda abjad hisobi bilan bog'liq muayyan she'rlar va harfiy san'atlarning ta'rixini aniqlashda abjad hisobidan yaxshi xabardor bo'lishi talab qilinadi.

1-topshiriq. Mazkur raqamlarni ifoda etuvchi harflarni topib o'zaro ulab, o'qisangiz Sa'diy Sheroziy va Alisher Navoiy ijodiga taalluqli bo'lgan baytlarni aniqlashga muvaffaq bo'lasiz.

1. 10, 600, 300, 10, 30, 1, 200, 20, 10, 400, 10, 4, 50, 1, 20, 200, 31, 2, 1, 200, 60, 50, 1, 60, 400, 1, 20, 10, 50, 20, 2, 600, 400, 10, 50, 20, 50, 10, 300, 6, 4, 1, 400, 1, 3, 1, 200, 60, 50.

2. 10, 7, 7, 400, 10, 30, 1, 600, 1, 50, 20, 20, 1, 40, 4, 10, 90, 10, 8, 1, 400, 400, 10, 30, 1, 60, 1, 50, 20, 20, 10, 10.

2-topshiriq. Quyidagi maqollarni o'qing, ko'chirib yozing va ular ifoda etgan raqamlarni aniklang:

بيلاگى زور بىرنى بيقار
بىلىمى زور مىنگى بيقار
سونىنگ آقىشىگا قارا
خلقنىنگ خاھىشىگا قارا
آدملار عقلى نىنگ چىراغى بىلىم
بلادان سقلانىش يزاغى بىلىم

Abjad hisobi va u bilan bog'liq harfiy san'atlar

O'zbek mumtoz adabiyoti she'riy san'atlarning bebaho konidir. She'rga o'zgacha jilo, chuqur ma'no, joziba, ziynat, musiqiylik kabi qator xususiyatlar baxsh etuvchi badiiy san'atlarni adabiyotshunoslar ikkiga – ma'naviy va lafziy san'at turlariga bo'lib o'rganib kelganlar. Lekin eski o'zbek yozuvi harflari bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir guruh harfiy san'atlar ham mavjudki, hozirda ularni ham alohida tasniflash lozim. «Chunki harfiy san'atlarning amaliyot doirasi kengligidan tashqari, sanoq ko'pligi va funksional xizmatining muhimligi bilan ham maxsus o'rganishga arzigulikdir» O'tmishda adabiyot namoyondalari mazkur san'at turining asosi bo'lmish arab harflarining grafik shakllaridan badiiy san'at sifatida keng istifoda etganlari ma'lum. Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Jomiy, Navoiy, Boburlar, keyinchalik Mashrab, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqatlar lirik qahramonning zohiriy va botiniy qiyofasi hamda ruhiyati bilan bog'liq holatlarni tasvirlashda arab alifbosining ا د ص ع ج

ن kabi harflaridan, nuqta va xarakterli ayrim so'zlardan mohirlik bilan foydalanganlar. Xatto bu san'at turi husni xat uslublari nomlarini, xattotlik bilan bog'liq jarayonlarni tasvirlashda ham muvaffaqiyat bilan qo'llangan.

Ta'rix san'ati

Ta'rix biron muhim voqea hodisaning sodir bo'lgan vaqtini aniq ifodalaydigan maxsus nazmiy asar bo'lib, qofiyalanish va hajm jihatidan qat'iy bir qoidaga ega emas. Shu sabab u masnaviy, qasida, g'azal va boshqa janrlarda ham yozilishi mumkin.

Ta'rixlar asosan qo'lyozma yodgorliklarning yozilishi, xotima topishi, nusxalar ko'chirilib tugallanishi, hukmdorlarning taxtga o'tirishi yoki chetlatilishi, harbiy yurishlar vaqtidagi g'alaba yoxud mag'lubiyat, madrasa, masjid, yirik inshootlarining qurilishi, ta'mirlanishi, tabiat hodisalarining sodir bo'lishi bilan bog'liq voqealar munosabati bilan bitilgan.

Ta'rix janri ba'zi xususiyati bilan muammoga o'xshab ketadi. Muammoda biron nom yashirib berilsa, ta'rixda biron raqam, sana yashiringan bo'ladi. Raqamlarni she'rga kiritish vazn nuktai nazaridan qiyin bo'lgani sabab, shoirlar abjad hisobiga murojaat qildilar. YA'ni ro'y bergan voqea sanasini harflar orqali ifodalash usulini qo'llab ta'rixlar yaratdilar.

Ta'rixga oid nazariy kitoblarda bu janrni ifodalashda ikki usul qayd qilinadi: sarif va ta'miya.

1. Ta'rix sarif. Sarif istilohi arab tilida ochiq, ravshan degan ma'noni bildirib, bu usulda bitilgan ta'rixlarda ko'zda tutilgan sana ochiq ifodalanadi.

2. Ta'rix ta'miya. Ta'miya istilohi arabcha "a'mo" so'zidan olingan bo'lib, "bekitilgan, yashiringan" degan ma'noni bildiradi.

Ta'rix sarifda ta'rix moddasi uning yozilishi shaklidanoq anglashilib turadi. Mullo Olim Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston" asarida Rahimqulixonning vafoti haqida quyidagicha ma'lumot beradi:

... اوچ يل حكومرانليک قىليب ۱۲۶۱ سنه هجریده وفات قىلدى
آتاسى نینگ اسریده باباجان تورا دىماک ايله نامزاد بولوب خلق
آراسیده جور و ظلم قىلماک ايله مشهور ايردى

Ogahiyning "Zubatu-t-tavorix" asarida quyidagi tarix beriladi. ... Sanai hijriya ming ikki yuz ellik to'quzda, bars yilining avoxirida, muharammu-l-haromning uchlonchi kunikim, juma' erdi, namozi juma' adosidin so'ng jamshidona savlatlar va xurshidona shavkatlar bilan muborak oyoqin davlat rikobig'a qo'yub, saodat yakronig'a rukub qildi (98). Bunda Abulg'oz Rahimquli Muhammad Bahodirxonning ovga chiqishi va qaytishi sanasi ko'rsatilgan.

Anglashilishicha, Mullo Olim Mahdum Hoji Xiva hukmdori Rahimqulixonning vafotini 1261 (1845) deb ko'rsatadi.

Ta'rix ta'miyada so'zning ma'nosi mavzuga tamoman munosib tushadi va ta'rix moddasi abjad hisobida chiqadi.

Alisher Navoiyning «Nazm ul-javohir» nomli didaktik va axloqiy mavzulardagi ruboiylardan tarkib topgan asari muqaddimasida shoir asarning yaratilish sababi, yozilgan yili va maqsadi haqida fikr yuritadi. Undan ma'lum bo'lishicha, Alisher Navoiy keng ko'lamdagi badiiy namunalarini o'qib, qur'oni karimni mutolaa qilib yurgan vaqtlarda forsiy tilda she'rga solingan Hazrat Alining so'zlari uning ko'ngliga jo bo'lib qolgan. Ularni turkiy tilda ham she'rga solish Navoiyning niyatlaridan biri bo'lgan. Lekin shoirning e'tirof etishicha, bunga imkon va vaqt topolmagan. Ammo shu payt Hirot adabiy hayotida ajoyib bir asar maydonga keladi. Bu Husayn Boyqaroning «Risola»si edi.

Navoiy bu asar yozilgan yil ta'rixini «fayz» so'zi orqali beradi. Abjad hisobida bu so'zdagi harflar yig'indisidan 890 (1485) yil chiqadi. Tarix moddasi 80، ی - 10، ض - 800 ga teng. Ularni o'zaro qo'shadigan bo'lsak, 890 kelib chiqadi. U melodiy 1485 ga teng.

Ta'rix ta'miyada so'zning ma'nosi mavzuga munosib tushmasligi mumkin. Bunda muallif ta'rix moddasini to'g'ri chiqishi uchun matnga qo'shimchalar ilova qiladi. Buni quyidagi misol orqali ko'ramiz.

Ogahiyning "Zubdatut tavorix" asarida juda ko'plab ta'rix san'ati qo'llangan. Tarixlardan dastlabkisi Xiva hukmdori Olloqulixon farmoniga ko'ra

shahzoda Rahimqulixonning harbiy yurushga o'tlanishi munosabati bilan yozilgan. Ushbu janrning betakror namunasi bo'lgan bu ta'rix ogahiyning she'riyatidagi martabasi nechog'lik baland bo'lganiga bir dalildir. Ta'rixning ko'zda ko'zda tutilgan sana bekitilgan so'nggi misrasi quyidagicha:

سال تاریخ این ازیمترا
ز آگهی جست آن خزاجه ستشیم
وی چو بگزشته از ساری احمال
"عزم نصرت نشان" نمود رقم (a 394)

Muallif so'zlari zamiriga yashiringan sanani aniqlash uchun ta'rix moddasini topish talab etiladi. Tarix moddasi (azmi nusrat nishon) jumlasiga bekitilgan. Abjad hisobiga ko'ra عجم نصرت نشان jumlasidagi ع 300, ش 50, ن 400, ت 200, ر 90, ص 50, ن 40, م 7, ز 70, ا 1, 50 ga teng. Ma'lum bo'ladiki, عجم نصرت نشان jumlasidagi harflarning abjad hisobidagi yig'indisi – 1258. Ta'rix nihoyasidagi "Chun bu ta'rix adadda bir ziyoda erdi. Ta'miya ilmi bilan "isqot" qilildi" so'zlari asosida va "ihmol"ning "sari", ya'ni boshlanishi alif abjad hisobi bo'yicha 1 ga teng ekanini hisobga olinsa, 1258 dan 1ni ayiramiz, hosil bo'lgan 1257 hijriy yil hisobi bo'yicha ushbu ta'rixda ko'zda tutilgan sanani anglatadi.

"Zubdatu-t-tavorix" asarida keltirilgan ikkinchi ta'rix Xiva xoni Olloqulixonning vafoti hamda uning o'rniga shahzoda Rahimqulixonning xon ko'tarilishi voqeasiga bag'ishlangan. Ushbu ta'rixda muallif so'zlar zamiriga bekitilgan sana – ta'rix moddasi she'ring maqt'asida ifodalangan.

گفتم زی سری ادب گزشته
مه رفته و آفتاب آمد (400 a)

Ta'rix moddasi (mah raftau, oftob omad) so'zlari zamiriga yashiringan. Endi bu harflarning abjad hisobiga ko'ra qaysi raqamlarga to'g'ri kelishini aniqlaymiz: ف 1, ا 5, ه 400, ت 80, ف 200, ر 5, ه 40, م 80, د 4, د 40, م 1, ا 2, ب 1, ا 400, ت 80.

Ma'lum bo'ladiki, bu jumladagi harflarning abjad hisobiga ko'ra yig'indisi – 1259. Asarda muallif ta'rix matnidan so'ng keltirgan "Chun bu ta'rix adadi bir ziyoda erdi, ta'miya ilmi bilan isqot qilildi. Andoqki, andoqkim, "Zi sari adab guzashta" iboratidin ma'lum bo'lur" izohiga ko'ra hamda "adab"ning "sari" – bosh harfi alif 1 ga teng ekanini hisobga olinsa, ishoraga binoan 1259 dan 1ni ayirish kerak bo'ladi. Natijada Olloqulixonning vafoti va Rahimqulixon xorazmshohlik taxtiga o'tirgan sana kelib chiqadi. Bu hijriy 1258, melodiy 1842/1843 yillardir

Masalan, Hasanxo'ja Nisoriy o'zining «Muzakkiri ahbob» tazkirasida Jomiy haqida ma'lumot berar ekan «Umr yoshlari گاس (kos)ga etganda» degan jumlaning qo'llaydiki, bunda کاس so'zining abjad hisobi 81 ni tashkil

qiladi va u shoirning vafot etgan vaqtidagi yoshini bildiradi. («Muzakkiri ahbob» 41-bet).

Mana bu ta'rix Ubaydulaxxon davrida Buxoroda barpo qilingan oliy imoratlardan biri Mir Arab madrasasining qurib bitkazilishi munosabati bilan shoir Aziziy tomonidan aytilgan bo'lib, ta'rix ma'naviyning eng go'zal ko'rinishlariga misoldir:

میر عرب فخر عجم آن که ساخت
مدرسه عالی بو العجب
بو العب این استکه تاریخ او
مدرسه عالی میر عرب

She'ning ta'rix moddasi **میر عرب عالی** iborasi harflari yig'indisidan chiqadi, ya'ni 942 (milodiy 1536).

Ta'rixnavislik XVIII-XIX asrlarda rivojlanishning yuqori nuqtasiga ko'tarildi. Natijada ta'rixlar nuqtali va nuqtasiz harflarning yig'indisidan – jamidan ham yaratila boshlandi. Sodir bo'lgan voqeaning ta'rix moddasi nuqtasiz harflardan olingan bo'lsa, bu hol muammo ilmida «muhmal», nuqtali harflardan olingan ta'rix moddasi esa «mujavhar» deb atalgan. Ta'rixning bu usulida nuqtali va nuqtasiz harflar alohida yig'iladi va birlashtiriladi, so'ng ularning harfiy raqamlari aniqlanadiki, bu she'ning ta'rix moddasi bo'ladi. Bunda yig'ilgan harflar ba'zan ma'no anglatmasligi ham mumkin, lekin ko'zda tutilgan sanani aniq ifodalashi jihatidan ahamiyatlidir.

Bu davrlarda she'rda arab harflari nomlarini keltirish orqali ham ta'rixning ajoyib namunalari yaratildi:

ضاد (ض) ایدی تاریخ تقی حا (ح) و دال (د)
مدتی هجرتدین اوتوب ماه و سال.

Baytda keltirilgan **ض ح د** harflarining abjad hisobidagi raqamlarini oladigan bo'lsak **ض** – 800 ga, **ح** – 8 ga, **د** – 4 ga teng bo'ladi va ular yig'indisi 812 ni tashkil qiladi. Bu Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostonining yaratilgan yilidir. Melodiy yili bilan 1409 yilni anglatadi.

Ta'rix aytish san'atining o'ziga xos qat'iy qonun-qoidalari mavjud. Unga ko'ra ta'rix moddasi yashiringan so'z yoki iboradagi raqamlar topilishi lozim bo'lgan sanadan ortiq bo'lsa «isqot» usulidan foydalanib uni kamaytiriladi, aksincha orttirish lozim bo'lsa «idhol» usuliga murojaat qilinadi.

Xullas ta'rixlar o'z vaqtida juda muhim ahamiyat kasb etgan. Ular o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undagan, tafakkuri doirasini kengaytirishga xizmat qilgan. Bizgacha Navoiy, Ogahiy, Munis, Komil va boshqa shoirlarning ko'plab ta'rixlari etib kelgan. Ta'rix janri qo'lyozma bayozlar tarkibida ayniqsa ko'p uchraydi.

Ta'rix san'ati adabiyotimizda bir qator janrlarning shakllanishiga zamin bo'ldi.

1-topshiriq. Quyidagi ta'rixlarni o'qing, daftaringizga ko'chirib yozing va ularning sanasini aniqlashga harakat qiling. O'zingiz bilgan, eshitgan ta'rixlardan misollar keltiring:

بیر آه تارتیب ایتتینک فوتیغا خسته محیی
دیدینگکه واصل حق جنت مآب ثاقب.

Yordamchi holatlar: Ta'rix moddasi tagiga chizilgan so'zlarning abjad hisobidan chiqadi (1334). Isqot amaliga ko'ra «آه»ning qiymatini ayirsak, 1328 qoladi. Bu sanani melodiy yiliga aylantiring.

Mana bu ta'rix bir bino ta'miri munosabati bilan shoir Muqimiy tomonidan aytilgan. Ta'rix moddasi tagiga chizilgan so'zdan chiqadi.

کوروب اوشبو فرح افضا بنانی
مقیمى سوردی عقلدین نهانی
دیدى از روی لطف آهسته ناگاه
خرد تاریخینه تعمیر ثانی

Quyidagi ta'rix Shaybonixon tomonidan Najmiddin Kubro vafotiga bag'ishlab aytilgan bo'lib, ta'rix moddasi tagiga chizilgan so'zlardan chiqadi (1221).

آنینک تاریخیدور شاه شهدا
ینه بیر الف بیرلا بولور ادا

Tubandagi ta'rix Sirojiddin Xodayliqiy tomonidan Xislatning «Armug'oni Xislat» bayozining yozib tugallangani (1911) va chop etilgani (1921) munosabati bilan aytilgan.

سورادیم عقلدین انگا تاریخ
دیدى بو دلکشا بیاضنی اوقو

1-topshiriq. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan olingan matnни o'qing.

وطنی سویمک

وطن هر بر کشی نینگ توغولوب اوسکان شهر و مملکتینی
شول کشی نینگ وطن دییلور. هر کیم توغولگان اوسگان بیرینی
جانیدن آرتوق سویار حتی بو وطن حسی طویغوسی حیوانلارده هم
بار اگر بر حیوان اوز وطنیدن او یوریدن ایریلسه اوز بیریده گی کبی
راحت راحت یاشاماس معیشتی تلخ بولور هر وقت دل نینگ بر
گوشه سیده اوز وطنینینگ محبتی تورار.

بز تورکستانلیلار اوز وطنیمزنی جانیمزدن آرتوق سویدیگیمیز
کبی عربلار عربستانلارینی قوملک اسیغ چوللارینی اسکیمولار
شمال طرفلارینی اینگ ساووق قار و موزلک بیرلارینی باشقه
بیرلاردن زیاده سویارلار اگر سویماسه لار ایدی هواسی یاخشی
تیریکلک آسان بیرلارگه اوز وطنلارین تاشلاب هجرت قیلورلار
ایدی

بابالارمیز کشی یورتیده سلطان بولگونچه اوز یورتینگده
چوپان بول دیمشلار.

مین عیبلک ایماس ای وطنم تاغلاریم

بیوقت تاشلاب کیتدم آیا باغلارم

هجران قیلادور مینی جدالیغ

دوندی غمه روز و شب و چاغلارم

همه گه معلوم دورکه اینگ مقدس دینی بیریمز اولان عربستان
گه باغلارینی هاولیلارینی ساتوب هجرت قیلگان حاجی لارمیزنینگ
اکسری ینه اوز وطن لاریگه قایتوب کیلورلار بونینگ سببی یعنی
بولارنی تارتوب کیتورگان قُوت اوز وطن لارینینگ
توپراغلارینینگ مهر و محبتی دور رسول اکرم نبی محترم صلی الله
علیه وسلم افندیمز حب الوطن من الایمان - وطننی سویمک
ایماندندور دیمشلار.

وطن وطن دیه جانم تنیمدن اولسه روان

بَنگه نه غم قالور اولادیمه اوی و وطنیم

غباره دونسه غمیم یوق وجود زیر وَحم

چراکه اوز وطنیم خاکیدور گور و کفنم

توغوب اوسان بیریم اوشبو وطن وجودیم خاک

اولورسه اصلنه راجع بولورمی من غمناک؟

Savol va topshiriqlar

1. Abjad hisobi nima?
2. Abjad hisobida sonlarning harflar bilan ifodalanishini izohlang?

3. Inson fikrini sonlar bilan ifodashi mumkinmi yoki aksincha harflar orqali sonni (qiyamatni) ifodalash mumkinmi?

32-MAVZU

O`tilgan mavzularni mustahkamlash

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga fatha, kasra, zamma va satr ustki belgilarini quyib oʻqing.

مقند منجم مداح تعجب مشقت تلفظ كله ترقيبات غدار
تردد تبر طنز مره ذره بطل تفكر تصور معلم مقلد رسام
مكار بره شفاف كذاب منت سله رقااص تشبث مؤلف تصدق.

2-topshiriq. Tubanda berilgan soʻzlarni eski oʻzbek yoziviga oʻgiring va satr osti va usti belgilarini qoʻying. Shu soʻzlarning ishtirokida gap tuzing. Baqqol, siddiq, takallum, farrosh, arra, tasadduq, darra, tashabbus, hammol, fazilat, taalluq, xurram, tasavvur, sator, takabbur, gʻalla, raqqos, raddiya, zarra, oppoq, hatto, hurriyat, hammom, dallol, shaddod.

3-topshiriq. Mazkur soʻzlarni hozirgi oʻzbek yozuviga oʻgiring.

تأسف تاريخ انشات مؤرخ تأكيد غرائب مؤلف تاثر تامين
عجائب تأمل مأمور عائله قرانت تألف

4-topshiriq. Berilgan soʻzlarga tegishli harakatlar va satr ustki belgilarini qoʻying va soʻzlarni mashq daftaringizga koʻchirib yozing.

مصور ميسر ضمنا لسان العرب تكلم تنفس ترقيبات جلاذ
عفت باطنا تكبر علت مشقت تبرك قصص الانبيا منور
عبد اللطيف عبد الله مناظره

4-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing vasla belgisini tegishli oʻrinlarga qoʻyib koʻchiring.

عجائب المخلوقات دار الفنا دار البقا طالب العلم محاكمه
اللغتين فوايدالكبار سعادت الاقبال نوادر الشباب

5-topshiriq. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan olingan matnни oʻqing.

وقار

وقار ديب كبر و غروردن منمنلكدن اوز نفسيني ساقلامگنى ايتلور. وقار شرع و حكمت يوزه سيدن انسان اوچون اينگ كيركلى ياخشى خلقلارنينگ بریدور وقارسز آدم اعتبارسز بايگه كبرلى كيشى علتلك فقيرگه اوخشايدور هر كمينگ قدر و اعتبارى نفسى نينگ وقارلى ايله اولچانادور وقور كشيلاز كبر و غرورگه اصلا يقين يورماسلار چونكه غرور منمنلك تكبرلك كشيلى خوار خلق آراسيده بى اعتبار قيلور هر قانچه علم و دولت صاحبي بولسه هم بر پلچه قدر و قيمتى بولماس منى بلورسنمى؟ موندای قيلورمن اوندی سخاوت قيلورمن ديب اوزينگ اوزى ماقتاماكلک ریاكارلك زور عيب و وقارسزلكدور

وقارلك كشى يامان خلقلاردن پاك عدالتلك اشیده سوزیده توغرى شفقت و مرحمتلى اوز دینداشلاریگه خیرخواه ملت فايده سيگه ترتشوچی صاف قلبى ارسلان يوركلى بولور حضرت على وقور كشى كبر و غروردن پاك بولور وقار آدمگرچيلک نينگ مدار افتخارى انسانيت نينگ حامى اعتباريدور ليکن وقار نينگ حقيقى درجه سيگه يتمک اوچون علم و معرفت لازم دور ديمشلاز

افسوس بو زمانده بزيم اعتبار يوق
ياشو قریده غيرتو ناموسو عار يوق
فسقو فُجور ايله گرفتار بارچه جان
علمو عملده بزده ثبات وقار يوق
اوتماقده عمر هاى هوس برله بر هوا
ملت غمینی اويلاغوچی هوشيار يوق.

وجدان

وجدان ديب روحيمزگه فكرميزگه تأثير قيلادورگان حسيات يعنى سيزوو طويماقندن عبارت معنوى قوتنى ايتلور بز هر وقت افعال و حرکاتيمزنى ياخشى و يامانلغينى فايده و ضررليغينى آنجق وجدانميز ايله بيلورمز وجدان انسان نينگ عقل و فکرىنى حقيقى

میزانی دور که بو ترازو ایله اوز کمچیلکلارینی اولچاب بیلیمک ایله برابر باشقه لارنینگ هم افعال و حرکاتینی سیزور اگر اشلاگان اشی شریعت عقل و حکمتگه موافق بولسه محبت قیلور قباحت و یامان اشلارنی قیلسه نفرت قیلور بز جناب حق نینگ امر و نهیینی فکر و روحیمزنگ معنوی قوتی اولان وجدانیمز ایله اییره بیلورمز

وجدان یاخشی خلقلانینگ منبعی اولدیغندن وجدان صاحب لاری هر بر اشنی بی غرض خالص نیت ایله اشلار شول سبیلی هر کم نظریده مقبول و سویوکلی بولور اما وجدانسز کشیلارنینگ اشلاریده نیت و عمل لاریده دوست و آشنالق لاریده یاشین بر غرض لاری اولدیغندن هر وقت حسرت و ندامت چیکوب وجدان عزابیغه گرفتار بولورلار.

هر بر انسان نینگ حقیقی فاعلی وجدانیدور

میوه سی یاخشی عمل دور حاصلی وجدانیدور

انسان دنی وظیفه لارینی عُلُویتینی وجدانی سایه سیده تقدیر قیله بیلور چونگه وجدانی سلامت کشیلار ایمان و اعتقادلارینی کمالگه بیتکورمک اوچون جناب حقنینگ بویروقلارینی دین و ملتغه فائده لک ایشلارنی شاد و خرملک ایله ایشلار

الحاصل وجدان هر کیمینینگ افعال و حرکاتینی کورساتادورگان مصفا بر آیینه دور که بو کوزکوگه چین نظر قیلغان کشی اوز عیب و کمچیلکلارینی توزاتمک حرکتیده بولوب باشقه لارنینگ عیب و قصورلارینی اختارماقغه وقتی بولمس بزیم اسلامیتده وجدان اخلاقینی اصلاهی اوچون سعی حرکت قیلماک لازم اولدیغیندین شول دائره ده حرکت قیلغان کیشیلار اککی جهانده عزیز و مُکرّم بولورلار ارسطو حکیم روحیمزنینگ معنوی قوتی اولان وجدانیمز فکریمیزگه قوت بیرگوچی بر واسطه ادراکیه دیلور یعنی حسیاتیمزنینگ روحیمیزگه تأثر ایتتیرگوچی بر رابطه ایلکتیریقییه سیدور دیمیش

ابن سنا حکیم وجدان روح و فکریمیزی طویغونقیلماکغه
بیرینچی واسطه دور دیمیش

صاف وجدان کبی هیچ کامیده مزان اولماز
کشی اوز عیبینی بیلماک کبی عرفان اولماز
شاد مسرور اولور انصاف ایله وجدانلی کشی
کیمکه وجدانسیز ایسه توغری چین انسان اولماز

33-34-mavzu

Nasta'liq xatidagi matnlarni o`qish

Xattotlik san'ati va nasta'liq xati

Tarixda eski yozuvning bir necha xil uslubi ko'rinishlari bo'lgan.

Yozuvning uslubiy ko'rinishlari deganda har bir qalam egasining o'ziga xos individual yozuv manerasi, uning dastxati emas, balki yozuvning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan, odat tusiga kirib qolgan umumiy uslubiy ko'rinishi – xat shakllari nazarda tutiladi.

Matbaachilik yuzaga kelmagan, kitobat ishlari zaxmatkash kotiblarning qo'l mehnati va san'ati bilan amalga oshirilgan davrlarda xilma-xil yozuv usullarining kelib chiqishi tabiiy bo'lgan.

Hattotlik tarixiga oid ma'lumotlarda kotiblarning xatti suls (suls xati), xatti nasx (nasx xati), xatti muhaqqaq, xatti rayxoniy, tavqe', riqo' xatlari bo'yicha yozishda san'at va mahorat ko'rsatgachliklari tilga olinadi.

Arab yozuviga asoslangan xatning eng ko'xna usullaridan biri xatti ko'fiy (ko'fiy xati)dir. Qur'onning ilk namunalari ko'fiy xati bilan bitilgan edi. Nuqtasiz harflarni g'isht qoliplari shakliga solib siyrak, yakka-yakka qilib yozishga asoslangan bu yozuvning har xil tarmoqlari yuzaga keladi va natijada asl ko'fiy xati bora-bora qabr toshlari, binolarni bezashdagina ishlatiladi.

Ko'fiy xati tarmoqlari bilan bir qatorda O'rta Osiyoda nasx xati («xatti nasx») ham keng tarqala boshlaydi. Harflari ost-ust belgilari bilan tikroq, ingichkaroq va zichroq qilib yozilgani, oz o'ringa ko'proq gapni sig'dirish mumkin bo'lgani uchun nasx xati hayotdan ancha mustahkam o'rin egallaydi. Temur zamonidan boshlab Xuroson va Movarounnahrda nasta'liq («nasx+ta'liq») xati shakllana boradi. Sulton Ali Mashhadiy asos solgan Hirot xattotlik maktabi bu yozuvning keng yoyilishi va chuqur ildiz otishiga sababchi bo'ladi. Navoiy, Bobur asarlari, uch xonlik davrida yaratilgan va ko'chirilgan forsha-tojikcha va turkcha-o'zbekcha yozma yodgorliklarning deyarli hammasi nasta'liqning O'rta Osiyo xati deb atalayotgan uslubiy ko'rinishida yozilgandir.

Yozuvning yana xatti ta'liq, xatti devoniy, xatti shikasta kabi ko'rinishlari ham bor. Xatti ta'liq – xatti nasxga, xatti devoniy esa nasta'liq xatiga yaqin bo'lgan. Ammo shikasta (siniq) xati harflarning o'zaro zanjirsimon bog'lanib

ketishi, soʻz yoki qatorlarning uzoq-uzoq yozilishi bilan yozuvning boshqa uslubiy koʻrinishlaridan ajralib turadi.

Shuni qayd etish zarurki, yozma faoliyatda, ayniqsa, kitobat ishida bu yozuvlarning davrga mos koʻrinishdagina foydalanib qoʻya qolmasdan, uning boshqa usullarini ham qoʻllaganlar. Masalan, kitobning bezagi yoki sarlavhalarini yozishda bir usuldan, oyatlarni ajratib koʻrsatish maqsadida -- ikkinchi bir usuldan, asosiy matnni yozish uchun – uchunchi usul, xotima qism ifodasi uchun – toʻrtinchi v.b. Shuoyi xatdan – bezak uchun, tugʻro xatidan – imzo uchun, tumor, gʻubor (mayda), shajariy xatlaridan yana oʻzga maqsadlar uchun foydalanish odat boʻlgan.

Xatotlik (arabcha **خطاط** - kalligraf) – *yozuv, xat sanʼati* (kalligrafiya, husnixat), kitob koʻchirish kasbi. Oʻrta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Yozuv paydo boʻlgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan shugʻullana boshlashgan. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalganidan soʻng xattotlik keng rivoj topgan.

Oʻrta Osiyoda matbaachilik vujudga kelgunga qadar kitob tayyorlash, ularning nusxasini koʻpaytirish ishi bilan xattotlar shugʻullangan. Saroylarda ayrim amaldorlar huzurida xattotlar jamoalari tashkil topgan (masalan, Mirzo Boysunqur saroyida qirqta xattot ishlagan).

Xattotlik sanʼati uslublari toʻgʻrisida koʻp risolalar yaratilgan. Amir Temur hukmronligi davrida nastaliq uslubi yaratilgan, uni yaratgan mashhur xattot Mirali Tabriziy shuningdek, Sultonali Mashhadiy, Majnun ibn Kamoliddin Rafiqiy, Darvesh Muhammad ibn Doʻstmuhammad Buxoriy, Munis Xorazmiy, Ishoqxon Toʻraqoʻrgʻoniy kabilarning xattotlik haqidagi risolalari bizgacha etib kelgan. Ularda yozilishicha, xattotlikda etti xil asosiy sanʼat mavjud: **suls, muhaqqaq, nasx, tavqeʻ, riqoʻ, taʻliq, nastaʻliq.**

XVII asrda arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri koʻfiy xati ixtiro qilinguncha (ixtirochi YAʻrab ibn Qahton) Oʻrta Osiyoda turli yozuv usullari mavjud boʻlgan. Masalan, **makkiy, madaniy, basariy** va boshqalar. Bulardan oldinroq maʼqaliy (tik chiziqli) yozuv boʻlgan. Kufiy yozuvi koʻpgina obidalarning naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa Muqtadi zamonida yashagan olim ibn Muqlaʻ (864-934) ni xatti sitta (olti xil yozuv: suls, nasx, muhaqqaq, rayhoni, tavqeʻ, riqoʻ) ixtirochisi deb tan olingan.

Zamonlar oʻtishi bilan kufiyning turli shakllari ixtiro etilgan. Qurʼonning ilk namunalari (masalan, Oʻzbekiston Diniy ishlari idorasida saqlanayotgan Usmon qurʼoni) shu yozuvda yozilgan, keyinchalik bu yozuv, asosan, binolarda bezak sifatida qoʻllangan. Muhaqqaq yozuvi kufiy yozuvining bir oz oʻzgartirilganidir. Rayhoni uslubi muhaqqaq yozuviga oʻxshagan, lekin harf shakllari rayhon barglariga oʻxshagani uchun shu nom bilan atalgan. Nasx yozuvi kufiy va muhaqqaq yozuvlaridan koʻra qurʼon koʻchirishda maʼqulroq topilgan. Tavqeʻ buyruq va farmonlar yozishda foydalanilgan. Riqoʻ yozuvi tavqeʻga ancha yaqin, lekin undan nozikroq. Asosan maktublarda ishlatilgani, kitobga aloqasi boʻlmagani uchun parcha (arabcha - ruqʻa) qogʻozlarga nafis

qilib yozilgani uchun riqo' deb atalgan. Bulardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa yozuv usullari bo'lgan.

Tug'ro – imzo qo'yishda qo'llanilgan.

Shajariy – harflar daraxt shoxlariga o'xshab ketadi.

G'ubor – mayda xat bo'lib, ixtirochisi Saidqosimdir.

XV asr boshlaridan kitob ko'chirishda (fors, eski o'zbek tillarida) nasta'liq xati rasm bo'ldi. Navoiy ta'biricha, xattotlar sultoni bo'lgan Sultonali Mashhadiy nasta'liq xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan. Kitobatchilikda bosmaxona paydo bo'lguncha kotib, xattotlar mehnati asosiy rol o'ynadi. Kitob chiqarish ishlari hukmdorlarning xohishi va mablag'lari bilan amalga oshirilgan. Bu borada Boysunqur, Alisher Navoiy, Feruz va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir.

Xatotlik bosqichlari:

Mufradot – harflarning alohida ko'rinishlarini yozish mashqi. Bu bosqichda alifdan boshlab, boshqa ko'rinishdagi harflarni o'xshashligiga ko'ra yozib o'rganishgan. Bunda o'quvchilar har bir harf bilan tanishib, uni tanish, o'qish va yozish malakasiga ega bo'lishgan. Masalan:

ب	ب ت ث پ	ف	ف ق
ح	ح خ چ	ک	ک گ
د	د ذ	ل	ل
ر	ر ز ژ	م	م
س	س ش	ن	ن
ص	ص ض	و	و
ط	ط ظ	ی	ی
ع	ع غ		

Murakkabot - mufradot bosqichida o'rganilgan harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashq qilindi. Bunda har bir harfning turli ko'rinishlari bir-biriga ulanishi yoki ma'lum bir harfning turli ko'rinishlari boshqa harf ko'rinishlari bilan o'zaro bog'lanishi o'rganiladi. Masalan:

ببب	للل	ععع	ججج
ففف	یی	با	تا
سبب	نبی	رو	دنا

Muqattaot – murakkabot bosqichida o'rganilgan malaka va ko'nikmalar yordamida ma'lum so'z va so'z birikmalarini ko'chirib yozish, mustaqil ravishda yozish, shuningdek, fard, qit'a va ruboiylarni ko'chirish mashq qilingan.

نادر کوز درد بازار احمد مشق دفتری آزار نور دیدا کتاب
السواد

Insho – bu bosqichda o'rganilgan bilimlar asosida jumla va bir necha jumladan iborat matnlar tuzilgan.

وطني سویمانک ایماندان دور بيشيكدان قبرکاچا علم
ایزلا

Xatolik qurollari:

Qalam – qo'lyozma kitob yaratishdagi eng asosiy yozuv qurollaridan birining nomi. Qalam so'zi asli yunoncha «qalamos» bo'lib, yunon tilida qamishni ifodalagan.

Xattotlik ishida qo'llangan qamish qalam tayyorlash jarayoni ancha murakkab bo'lgan. Qalam tayyorlash kishidan o'ziga xos malaka va tajriba talab qilgan. Qalam yasashga mo'ljallangan qamish turi to'g'ri kelgan joydan olinmagan. Ular turli joylarda etishtirilgan. Xususan, 16 asrning etuk xattotlaridan bo'lmish Fathulloh ibn Ahmadning fikricha, Vosit shahri (Kuf va Basra shaharlari o'rtasida joylashgan) atrofida etishgan qamish eng oliy nav hisoblangan bo'lsa, Amudaryo sohillarida o'suvchi qamish o'zining sifati bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan. Misr va Mozandaron qamishlari esa keyingi o'rinlarda turgan. Shu nuqtai nazardan qalamni qanchalik bekamu ko'st va sifatli yasalishi qamishni qaerda o'sganligi, yo'g'onligi, rangi, saqlanishi, ishlov berilishi kabi holatlarga ham juda bog'liq bo'lgan. kamishning etishgan joyiga ko'ra qalam turlarini anglatuvchi terminlar ham joy nomlariga ko'ra yasalgan: vositiy, amuriy, misriy, mozandaroniy va boshqalar.

Qog'oz کاغذ - qog'ozning yaratilish tarixi miloddan avvalgi VII asrlarga borib taqaladi. Qadimda qog'ozlar pariros daraxtidan, maxsus ishlov berilgan teridan tayyorlangan. Eramizning II asrida Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Xitoyliklar serdaromad sanalgan qog'oz ishlab chiqarishni qanchalik sir turmasinlar, VII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Samarqandda Xitoy qog'ozini kabi yuqori sifatli qog'ozlar ishlab chiqarila boshlandi. Chunki Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan xom ashyoning barcha turlari: ipak, paxta, kanop, qamish, poxol, tut novdasining po'sti kabilar mavjud edi. Dastlabki yozuv qog'ozlari o'rama shaklda, juda katta hajmda, keyinchalik esa, ularning daftar, bizga yaxshi ma'lum bo'lgan sharq qo'lyozmalari shaklida tayyorlangan.

Siyoh سیاہ - yozuv ishida rang sifatida qo'llangan suyuqlik. Bu so'z fors tilida qora degan ma'noni ham bildiradi.

Mixrak محرک termini dovot, ya'ni siyohdondagi siyohni aralashtirishda foydalaniladigan cho'p. Bu so'z asli arabcha bo'lib, harakatga keltiruvchi ma'nosini ifodalaydi va u «harraka» - حرک - aralashtirmoq, harakatga keltirmoq fe'lidan yasalgan.

Mistar **مسطر** – kotib tomonidan matnni ko‘chirishda qog‘ozdagi qo‘lyozma satrlarining to‘g‘ri va ravon chiqishini ta‘minlashda ishlatilgan yozuv quroli. Mistarni tayyorlashda qalin karton qog‘oz yoki bir necha varaqlar bir-biriga yopishtirib tayyorlangan qog‘oz olinib, unga yo‘g‘on iplar bir-biridan ma‘lum va teng masofadagi qatorlarda tortilib turadi. Xattot bunday mistarni toza qog‘oz yoki varaqning tagiga qo‘yib qo‘li bilan bosgan va uning natijasida iplarning izi qog‘ozga tushib, botiq chiziqlar paydo bo‘lgan. Kotib ana shu botiq chiziqlar bo‘ylab, matnni ko‘chirgan. Mistar so‘zi termin sifatida asosan Alisher Navoiy hamda Bobur asarlarida uchraydi.

Satr **سطر** - Qo‘lyozma asarning, umuman, maktub, hujjat kabilarning yozilgan har bir qatori satr termini bilan ifodalangan. Satr so‘zi arabcha bo‘lib, chiziq, yo‘l, qator ma‘nolarini ifodalaydi. O‘zbek tiliga uning asosan, qator va satr ma‘nolari ko‘chgan va shu ma‘noda qo‘llaniladi.

Poygir **پایگیر** - Qo‘lyozma asarlarning har bir sahifasiga ostiga qo‘yiladigan maxsus belgi. Boshqacha aytganda, tugayotgan qo‘lyozma sahifasining oxiriga keyingi sahifaning birinchi so‘zini yozib qo‘yish. Bu qo‘lyozma asarning sahifalari mavjudligi, to‘liqligi, yo‘qolmaganligini aniqlashga yordam bergan.

Xalqimiz yaratgan manbalar orasida qo‘lyozma asarlar ham raqamlash usuli bilan, ham poygir usuli bilan belgilangan.

1-topshiriq. Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodiga mansub asarni nasta‘liq xatida o‘qing.

دوست مولان ابی (نمونہ)

یارا کیلتور دینک منی یا	مین بو یا نخانگیاس ایردیم
یارا کوید ایردینک منی یا	او تکا ساله کو یاس ایردیم
	دوست مولان ابی کو نکلوم الله سزادور
در دگادمان ایستاماس	

ظلمت ایچره کیچه عمری ماه تابان ایستاس

کونکلیدور اشوقان یجو و تاراب نفوسهوا

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

سلاج آقاروب قدیمی هم بولسه پیمان ایستاس

جمشیدوزر قوم بیاض اعل سلاصین ایلکیدیا

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

اتفاقو غیرت ایلاب لیک عرفان ایستاس

کیددی دوری دوشدی آسمان میسجانی علم

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

بیزنی ایملار لاهل سیر اوزرادوران ایستاس

اوزکالار ایتمکده اهر کون سینگ شنای اخترا

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

بیزنی تورکیستان ایلی دردیگادمان ایستاس

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی اصری ترقی وقتیدا

تیسله دلت خجری باغیرنی لقمان ایستاس

قولیداور دامی مع کوزیداور کیفوخار

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

یا عطاءدیا حدیث تصویر قرآن ایستاس

علمسیر لیکدان همه کیلگان بلانی انخلاور

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

بوینچوک بد موردده لیک جسمیگاسیرجان ایستاس

اوزکابلت اوچه لار حکمت تاوب سونی سما

اوخلاما کوپ اوزبیک ایلی عصرترقی وقتیدا

بیزر حالی تاما قابی رنج بیرمان ایستاس

دام غلظتدين خلاص اولماقما امکان ایستاماس

ملت خوار اولماغین بیچ نامسلمان ایستاماس

بونه وحشت نه جمالت ایر قیزو سپرو جوان

ای نیهان یینگ حیف ای انسانیت اسلامیت

او خلاما کوپ اوزیک ایلی عصر ترقی وقتیدا

Savol va topshiriqlar

1. Arab grafikasiga asoslangan xat turlari va uning yuzaga kelish sabablari haqida gapiring.
2. Xattotlik nima? Xattot kim?
3. Hattotlikka oid terminlarga izoh bering.
4. Qadimda kitobatchilik san'ati rivoji nimaga asoslangan?
5. Kitobatchilik terminlari va ularning nomlanishi bilan faoliyat-jarayonlarni izohlang.

35-36-mavzu

Isloh qilingan yozuv

Asrlar davomida qo'llanib kelgan arab alifbosi xalq ommasining savod chiqarish uchun birmuncha qiyinchilik tug'dirardi. Shuning uchun ham o'zbek ziyolilari oldida alifboni soddalashtirish yoki boshqa osonroq imloni qabul qilish masalasi ko'ndalang turardi.

Nihoyat, 1921 yilda arab yozuvi isloh qilindi. YA'ni yozuv oldingisiga nibatan birmuncha soddalashtirildi. Ommaning osonroq savod chiqarish uchun muayyan qulaylik yaratildi.

Isloh talabiga muvofiq, yozuvda barcha harflar ifodalandi, arab tiliga xos bo'lgan tovushlarni ifodalofchi ayrim harflar (ظ ط ص ض ذ ث) yozuvdan butunlay chiqarib tashlandi. Ular o'rniga esa talaffuzi jihatidan o'zbek tilidagi tovushlarga yaqin bo'lgan harflar qo'llaniladigan bo'ldi. Eski yozuvdagi ص (sod), ض (se) harflari o'rniga isloh qilingan alifboda (sin) harfi, ظ (zo), ض (zod), ذ (zol) harflari o'rniga ز (ze), ط (to) tharfi o'rniga ت (te) ishlatila boshladi. Masalan:

Isloh qilingan yozuvda	Eski yozuvda	Hozirgi ko'rinishi
سابیت	ثابت	Sobit
سابیر	صابر	Sobir
زاگیر	ذاکر	Zokir

زهر به	ضربه	zarba
زاليم	ظالم	zolim
تاقت	طاقت	toqat

Ma'lumki, eski yozuvda qisqa unlilar yozuvda ifodalanmas edi. Isloh qilingan arab alifbosida esa ular yozuvda to'la aks etadigan bo'ldi. Hatto ular uchun maxsus harfiy belgilar ham ishlab chiqildi.

Isloh qilingan yozuvda	Eski yozuvda	Hozirgi ko'rinishi
ه	ا	a
ئا	آ	o
ئو	او	u
ئو	او	o'
ئى	اى	i
ئې	اى	e
ع	ع	'a

Misollar:

Isloh qilingan yozuvda	Eski yozuvda	Hozirgi ko'rinishi
ه نده	اندا	anda
ئاباد	اباد	obod
ئوچون	اوچون	uchun
ئوته ر	اوتار	o'tar
ئيش	ايش	ish
ئتيك	ايتيك	etik
عسر	عصر	asr

Eski yozuvda و (vov) harfi uch xil tovushni, ya'ni v, o' va u ni ifodalab kelar edi. Isloh qilingan yozuvda esa ular bir-biridan farqlanib turuvchi harfiy belgilar bilan yoziladigan bo'ldi. Hatto v undoshi uchun maxsus belgi qabul qilindi. Masalan:

Isloh qilingan yozuvda	Eski yozuvda	Hozirgi ko'rinishi
ه وه ز	عوض	Avaz

ۋە تە ن	وطن	vatan
---------	-----	-------

Eski yozuvdagi **ى (yo)** harfi isloh qilingan yozuvda uch xil ifodalanadi:

Islah qilingan yozuvda	Eski yozuvda	Hozirgi ko'rinishi
بىلىم	بىلىم	bilim
تىل	تىل	til
باي	باى	boy
كېل	كىل	kel

Eski yozuvdagi **نگ (ng)** yoki **ینگ (ing)** tovushi birikmalari isloh qilingan alifboda **ك** yoki **ك** harfiga muvofiq kelgan, masalan:

Islah qilingan yozuvda	Eski yozuvda	Hozirgi ko'rinishi
تاڭ	تانگ	tong
يۇرىڭ	يورینگ	yuring
سۈنۈڭ	سونینگ	suvning
اۈيىڭ	اۈيىنىڭ	uying

1- topshiriq. **a** va **o** unlilari ishtirok etuvchi so'zlardan topib, isloh qilingan eski o'zbek imlosida yozing.

2- topshiriq. **u** va **o'** unlilari ishtirok etuvchi so'zlardan topib, isloh qilingan arab yozuvida yozing vua ular yordamida gap tuzing.

3-topshiriq. **i** va **e** unlilari ishtirok etuvchi so'zlardan toping va ular yordamida gap tuzing va isloh qilingan eski o'zbek imlosida yozing.

4- topshiriq. **نگ (ng)** harf birikmasi bilan tugovchi so'zlardan topib, isloh qilingan alifbo asosida yozing.

5- topshiriq. **v** undoshining alohida hamda bog'langan holda yozilish shakllariga beshtadan misol toping va ularni isloh qilingan arab alifbosi asosida yozing.

6- topshiriq. Quyidagi so'zlarni isloh qilingan eski o'zbek alifbosi asosida yozing:

baland, matonat, qalandar, tang, maktub, talaba, chuqur, tiling, ko'ngil, xato, elak, olim, insof, zafar, o'qish, taraqqiyot, tuzum, talant, chang,

muhokama, fazilat, munozara, javob, oting, hasrat, marosim, vafo, samara, iqlim, husn, nafas, qalb, kunduz, olqish, to'ng'ich, o'rin, bong, havas, fasl.

7- topshiriq. Berilgan matnni o'qing va ko'chirib yozing.

زەرەفشان

زەرەفشان مەنبەسى (باشى) كېيىنكى ۋاقتلارغا چا تۈركىستاننىڭ مەدەنىي ۋە سىياسى جەھەتتىكى مەركەزى بولۇپ كېلىدىغان جايىنىڭ مەدەنىيەتتىكى تەربىيەلەنگەن دەريەنىڭ، مۇسلمان كىتابلىرىدا مەخسوس ئىسمى يوق. احتمال، ئىسلامىيەتتىن ئىلگىرىكى نامىق ئىسمى، ئىسلامىيەتنىڭ بىرىنچى ئەسىرىدە ياق ئۇنىڭغا ئېدى. خازىرى زەرەفشان «ئىسمى، مەھەللى كىتابلىرىنىڭ 18 نچى ئەسىرگە چە بولغاندا» ئۇچرە مەيدىر. بۇ ئىسمىنىڭ خەلق سۆزىدە ئىشلەتكەنى ھەم نامەلوم. رودزەر (تلا دريەسى) ئىستلاھى، ۋەقەت بىر ئىرماقنىڭ ئىسمى بولۇپ ئۇچرەيدىر. جۇغراڧىيونلار ۋە مۇئەللىم خەلەر دەريەنىڭ ئاقى ئونكەن ۋىلايەتتىن قاراب، «سوع دەريەسى، ياكى كوپىنچە، سەمەرقەندگە ياقىن بېرىدەكى چوپان – ئاتا بەلەندىلىكىگە قاراب، «ئاب كوھەك» (تاغ دەريەسى) دېيىپ ئاتايدىرلار.

ئامۇ دەريا خەۋزاسىنىڭ ئەكسىچە، زەرەفشان خەۋزاسىدا سۇنىڭ تەقسىم قىلىش نەرسى تىپى، ئىسلامىيەت دەۋرىدەن ئىلگىرى بىلگىلەنگەن ئېدى. دەريەنىڭ ئاقتۇرغان يولى ھەم ئۇنچە ئۆزگەرىشلەرگە ئۇچرەمەگەن. ئارقىلارنىڭ باشىنى تېز- تېز كۆچىرىپ، باشقا جايلاردان ئاچماققا سەبەب بولغان. دەريەنىڭ ۋە نەھەرلەر چوقۇرلىغىنى ھېسابغا ئالغىنىدا، ئىسلامىيەت دەۋرىدە قىيىنغان بارچا سۇغا ئېلىش ئىشلەرى كوپىنچە، باشقا ئىسمىدە بولسا ھەم، تاشلانغان، ئېسكى ئارقىلارنىڭ تۈزەتتىدەن عىبارەت ئىدى. ئىسلامىيەتتىن ئىلگىرىكى ۋاقتدا، زەرەفشان سۇيىدىن قانداقلىرى ئېدى. ۋە دەريەنىڭ باشىدا، مۇز تاغىدىن 25 چاقىم بېرىدە، ھاۋزدا سۇ خانەلەر بار ئېدى، دېگەن فىكىر ھەم تەئەككۇب ئېتىلىمەيدى. بۇندەكى بىنالار (سۇنى باغلاپ قوياتۇرغان ۋە ساقلاب تۇراتۇرغان) ئەلبەتتە، مەھەللى تاغلىقلار تامانىدىن قىلىنا ئاكاماس ئېدى.

بۇندەى بىنالارنى، فەقەت زەرەفشان ۋادىسىنىڭ يۇقارى قىسمىنىڭ سەمەرقەند ۋە بۇخارا بىلەن سىياسى جەھەتدەن مۇستەھكەم بىرلاشكەن ۋاقتىدا، بۇ ۋادىنىڭ ئورتا ۋا پەستكى قىسىملارىداغى مەدەنىي فۇقارالارغىنا قىيلا ئالار ئېدىلەر.

(Ushbu parcha V.Bartoldning “تۈركستاننىڭ سۇۋغارىلىش تەئرىخى” asaridan olindi. 173-175-betlar. Asar 1926 yil Toshkentda nashr qilingan.)

Savol va topshiriqlar

1. 20-asrning boshlarida eski o'zbek yozuvining isloh qilinishi sabablarini izohlang.
2. Arab yozuvining isloh qilinishi qaysi harflarda ko'zga tashlanadi?
3. Isloh qilingan yozuvda arabiy tovushlarni ifodalovchi harflarga nisbatan qanday yo'l tutildi?
4. Isloh qilingan yozuv qaysi jihatlari bilan amaldagi yozuvdan farq qiladi?
5. ۇ qaysi tovushni ifoda qilgan?
6. ڭ qaysi tovushni ifoda qilgan?
7. ۆ qaysi tovushni ifoda qilgan?
8. ئا qaysi tovushni ifoda qilgan?
9. ئپ qaysi tovushni ifoda qilgan?
10. ئۇ qaysi tovushni ifoda qilgan?
11. ئى qaysi tovushni ifoda qilgan?
12. عە qaysi tovushni ifoda qilgan?

ESKI O'ZBEK TILIDA IMLO MASALASI VA TINISH BELGILARI XUSUSIDA

Eski o'zbek yozuvidan foydalanishda hamma uchun umumiy bo'lgan imlo qoidalari mavjud emas edi. Uzoq davrlik tajribadan kelib chiqqan odat va ana'nalar avloddan avlodga o'tib qoida kuchini saqlab kelgan.

Eski o'zbek yozuvida turkcha-o'zbekcha so'zlar imlosiga nisbatan fonetik asos (printsip) talablari kengroq joriy qilingan bo'lsa-da, imloda tarixiy-ana'naviy asosga juda katta o'rin berilgan. Yozma adabiy manbalar orqali tilga behisob arabcha, forscha leksik qatlamlarning kirib kelishi tarixiy-ana'naviy mavqeining ortib borishiga sabab bo'lgan.

Eski o'zbek tilida so'z shaklini orfografik an'analar bo'yicha to'g'ri ifodalash uchun so'zning tabiatiga uning ko'rinishiga e'tibor berish talab qilinadi. Biz yozuv orqali ifoda qilmoqchi bo'lgan so'z tarixiy-etimologik jihatdan qanaqa so'z? Turkcha-o'zbekchami yoki o'zlashma so'zmi? Agar turkcha-o'zbekcha so'z bo'lsa, uni fonetik asosda (aytilishiga qarab) qisqa unilarni ham tegishli harflar bilan ifodalab yozish mumkin:

كىپرىك	kiprik	توزوك	tuzuk
كوپرىك	ko'prik	بىلیم	bilim

Xo'sh, hozirgi o'zbek tilida, eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan turkiy, forsiy va arabiy so'zlarni bir-biridan qanday ajratamiz? Buni maxsus qoidasi bo'lmasa-da, o'zbek tilidagi turkiy qatlamga mansub so'zlar, asosan, *bosh, ost, qizil, ko'k, bir, kel, yoz, ur* (*o'qib chiqdi, kela qol* kabi etakchi va ko'makchi fe'llardan iborat tarkibli fe'llar, qo'shma fe'llar *sotib oldi, olib keldi, kelib ko'rdi* va b.) kabi bir bo'g'inli bo'lishi, ikkita undosh (*ost, ust* kabi so'zlardan tashqari) yoki ikkita unlining qator kela olmaslik xususiyatiga ko'ra farqlashimiz mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi son so'z turkumi, tub fe'llar, olmoshlar (*hamma, ba'zi* olmoshlari, birgalik va bo'lishsizlik olmoshlarini hosil qiluvchi *hech va har* so'zlari, shuningdek, eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan *kamina, faqir, banda* kabi olmoshlar bundan mustasno), sifat so'z turkumi va boshqa mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga oid bo'lgan bir bo'g'inli so'zlar turkiy, o'zbekcha so'zlar sanaladi va arab alifbosiga asoslangan eski imloda tarkibidagi tovushlarning miqdoriga ko'ra to'liq yoziladi.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Ravish	Fe'l	Yordamchi so'z turk.
آتا	قىزىل	يىتى	مىن	بورون	اوقى	يانا
تاغ	كوك	اون	او	ايلكارى	كىل	بيلان
تاش	سارىق	يىگىرما	بو	ايرتا	بار	اوجون
ياز	قارا	ايلىك	شو	تانگ	تور	آست

Shuningdek, turkiy tillarga xos ot, fe'l va boshqa so'z turkumlariga oid grammatik kategoriyalar, so'z yasovchi va boshqa affikslar ham to'liq yoziladi.

Ot	Sifat	Son	Ravish	Fe'l
ايشچى	كوكيمتير	بيشتا	اونلاب	ايشلا
ايدا	سارغيش	يىتتىنچى	توتديك	اويلادى
اويلار	آپپاق	يىتتولان	آزراق	چيزديم
باشينگ	ياپيق	اونتاچا	كوپلاب	چىققاچ

Agar so'z arab, fors tillaridan o'zlashgan bo'lsa, bunday so'zlar tarixiy-etimologik asosda, ya'ni o'sha tilning o'zida qanday yozib kelingan bo'lsa, shu tarzda yoziladi. Masalan, *rassom* ma'nosidagi «*musavvir*» so'zini yozish talab qilinganda biz uni *مساویر* tarzida yozib qo'ysak ham o'qib tushunish mumkin, ammo bunda imlo buziladi, *oktyabr* so'zini hozirgi yozuvda *o'ktabir* deb yozib qo'ygandek qiziq holat yuz beradi. Chunki, «*musavvir*» so'zi tarixda *مصور* yozib kelingan.

So'zning tarixiy-ana'naviy tamg'asini qanday qilib tanib olish kerak?

O'rganuvchi xodim bu masalada ko'proq odat va ana'naga e'tibor beradi, lug'atlarga tayanib ish ko'radi.

Turkcha-o'zbekcha so'zlarning fonetik qurilishi haqida yuqorida ma'lumot berib o'tildi. Turkcha-o'zbekcha so'zlar qolipiga mos kelmaydigan, ularga zid ko'rinishda bo'lgan so'zlarni o'zlashma so'zlar, deb faraz qilamiz va ularning imlosini lug'atlardan qarab bilishimiz va to'g'ri yozishimiz zarur.

O'zlashma so'zlardan arab tiliga mansub so'zlar imlosi og'irroq. Eski o'zbek tilida keng qo'llangan «**ata**» «**ato**» so'zlariga e'tibor qaratsak. Bu so'zlarning she'riyatdagi o'rni yaqin bo'lishi va shunga ko'ra ular o'zaro yaqin o'qilishi mumkin, ammo imlosi butunlay farq qiladi: **اتا** (**ata**) – turkcha-o'zbekcha so'z, **عطا** (**ato**) – arabcha-bag'ishlash, atab qo'yish ma'nosidagi so'z. **باليغ** (**balig'**) bilan **بالیغ** (**bālig'**) bir xil talaffuz qilinadi, lekin ular ikki tilga mansub mustaqil shaklli va ikki xil ma'nodagi so'zlardir. Shuningdek, **Inson**, **Ibrohim** so'zlarini biz «i» bilan aytamiz, lekin bu so'zlar **انسان** **ابراهيم** shakllarida alif bilan yoziladi.

Hoyi havvaz va **alif**, **yo** va **vov** harflarining eski o'zbek tili va yozuvida qo'llanishi va vazifalariga ko'ra arab va fors tillarida qo'llanishidan farq qiladi. Eski o'zbek yozuvida ularning imlosi bilan bog'liq quyidagi shakllari mavjud:

Hoyi havvaz harfi bilan bog'liq imlo masalalari

1. Hoyi havvaz harfi arab tilida «**h**» tovushini va so'z oxirida kelganda esa ustiga ikki nuqta qo'yilib, «**t**» tovushini ifoda qiladi va u **ta marbuta** nomi bilan yuritiladi (bu haqda quyida batafsil ma'lumot berilgan). Bunday o'zlashma so'zlar o'zbek tilida ham majud bo'lib, «**a**» tovushi bilan tugaydi va asliga muvofiq hoyi havvaz harfi bilan yoziladi. Maslan: **بركه** **عامه** **معركه** kabi.

2. Hoyi havvaz harfi fors tilida so'z boshida va so'z o'rtasida «**h**» tovushini, so'z oxirida esa qisqa «**e**» tovushini ifoda qiladi. Masalan:

ham – **هم**, shahar – **شهر**, xona – **خانه**, noma – **نامه** kabi.

3. O'zbekcha so'zlarda **hoyi havvaz** arabcha va forscha so'zlardagi singari undosh tovushni ifodalash vazifasida qo'llanmaydi. Chunki o'zbek tilida «**h**» undoshining o'zi yo'q. Demak, o'zbek tilidagi «**h**» undoshi bilan kelgan so'zlar arab yoki fors tilidan o'zlashgan so'zlar blib, bu undosh umuman turkiy tillar uchun xos emas. Bu haqda M.Qoshg'ariy o'zining tilshunoslikka bag'ishlangan «Devoni lug'atut turk» asarida maxsus to'xtalib o'tgan:

Demak, hoyi havvazning unli tovushni ifodalash uchun qo'llanishi borasida o'zbek tilining fors tili bilan o'xshashligi bor. Biroq **hoyi havvaz** bilan ifodalangan unlining tabiati va vazifalari jihatdan o'zbek tili fors tilidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Hoyi havvaz forscha so'zladagi qisqa «**e**» unlisini ifodalasa, uning o'zbekcha so'zlarda turkiy singarmonizmga muvofiq

o'z oxirida orqa qator (qattiq) – a yoki old qator (yumshoq) – ä unlisi o'rnida ishlatilavergan. Masalan: ancha – انچه , necha – نيچه , kecha – كيچه , barcha – بارچه , boshqa – باشقا , qisqa – قيسقه , qayda – قايدہ , uzra - اوزره , uza - اوزه , ichra – ايچره , birla – بيرله , bila – بيله , nima – نيمه kabi. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, arab grafikasi asosidagi turkiy xalqlar yozuvining dastlabki davrlaridagi hoyi havvaz harfi turkiy so'zlarda umuman qo'llanmagan. Bu hol XI asr yodgorligi «Qutadg'u bilig»da ham aks etgan. Ushbu asarda hoyi havvaz harfi qo'llanishi mumkin bo'lgan hamma turkiy so'zlar va qo'shimchalardagi orqa qator «a» va old qator ä unilari uchun alif qo'llangan. Masalan: ancha – انچا , necha – نيچا , kecha – كيچا , barcha – بارچا , boshqa – تاشقا , qisqa – قيسقا , qayda – قايدا , uzra - اوزرا , uza - اوزا , ichra – ايچرا , birla – بيرلا , bila – بيلا , nima – نима kabi.

Yuqoridagi so'zlar hozirgi tilimiz nuqta nazaridan tub so'z sifatida tasavur qilinsa-da, ular tarixan yaasama so'z sanaladi va morfemalarga ajraladi. Otlardagi kelishik, fe'llarning zamon, mayl, nisbat va shaxs-son va bo'lishsizlik affikslari (qo'shimchalari) ham alif bilan yozilgan. Masalan: yag'ida – باغيدا , kunda – كوندا , saqishta – ساقيشتا , so'zda – سوزدا (o'rin payt kelishigi qo'shimchasi), chig'ayqa – چيغايقا , tabug'qa – تابوغقا (jo'nalish kelishigi qo'shimchasi), og'luma – اوغلوما , so'zuma – سوزوما (jo'nalish kelishigi qo'shimchasi), barma – بارما , kelma – كيلما (fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi), barsa – بارسا , kelsa – كيلسا (shart mayli qo'shimchasi).

XII asr yodgorligi «Hibatul haqoyiq» asarida jo'nalish kelishigi qo'shimchasining –g'a, -qa shakllari alif bilan ham, hoyi havvaz bilan ham yozilgan. Tub so'z sifatida tasavvur qilinadigan ancha – انچا , necha – نيچا , kecha – كيچا , barcha – بارچا , boshqa – باشقا , qisqa – قيسقا , qayda – قايدا , uzra - اوزرا , uza - اوزا , ichra – ايچرا , birla – بيرلا , bila – بيلا , nima – نима kabi so'zlarning hammasi asarda alif bilan yozilgan.

Hoyi havvazning turkiy so'zlarda qo'llanishi keyinchalik kengayib borgan. Masalan, XIV asr yodgorligi sanalgan «Muhabbatnoma» asarida *ancha, necha, kecha, barcha, boshqa, qisqa, qayda, uzra, uza, ichra, birla, bila, nima* kabi so'zlar ham alif, ham hoyi havvaz harflari bilan yozilgan. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining –g'a, -qa shakllari qo'yg'a – قوی+غا , qapuqqa اولوس+قه – توی+غه tarzida alif bilan ham, to'yg'a – قاپوق+قا

